

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasи**

SOYIB RAUPOV

**IJTIMOIY SIYOSAT
O'quv qo'llanma**

BILIM SOHASI: 500000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.

TA'LIM SOHASI: 520000 – Ijtimoiy ta'minot.

TA'LIM YO'NALISHI: 5520102 – Ijtimoiy ish (oila va bolalar bilan ishlash).

BUXORO – 2021

Muallif: Raupov Soyib – tarix fanlari nomzodi, BuxDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti.

Mas’ul muharrir: Inoyatov S.I., Tarix fanlari doktori, BuxDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi professori

Taqrizchilar:

To‘raev H.H.- Tarix fanlari doktori, BuxDU “Buxoro tarixi” kafedrasi professori.

Bafoev F.M. – Siyosiy fanlar nomzodi, Buxoro muxandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti.

Jumaev R.G‘.- Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, BuxDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti.

KIRISH

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan beshta ustuvor yo‘nalishdan to‘rtinchisida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish ko‘zda tutilgan. U quyidagicha bayon etilgan:“Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”.¹ Bu borada belgilangan vazifalarni o‘qigan har bir kitobxon ko‘z oldida birinchi galda ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ulkan ishlar gavdalanadi, albatta.

O‘tish davrining O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahonda “O‘zbek modeli” deb nom qozongan beshta tamoyilning to‘rtinchisi aynan aholining murakkab demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat qilib belgilangan edi. Hatto, mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar mohiyati xalqaro ekspertlar tarafidan aynan “ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish” deb ham nomlandi. Bu bejiz emas edi.

Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli

1. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strotegiyası. //<https://www.lex.uz/acts/3107036>

o‘zgaradi, davlat korxonalarini, hatto, ekin yerlari egalari o‘zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muxtojlar safining o‘zgarib, ya’ni kamayib-ko‘payib turishi ham tabiiy holdir.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og‘ir ijtimoiy mushkulotlarga olib kelishi mumkin. Mustaqil O‘zbekistonda avval-boshdan bu borada oqilona yo‘l tutildi.

O‘zbekiston xalqining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ilg‘or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan bu taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi.

Chindan ham, istiqlol yillarda ijtimoiy muhofaza muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlarga moddiy yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos, ya’ni miliy mexanizmi ishlab chiqildi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlarining mas’uliyati oshirildi. Inflyatsiyani inobatga olgan holda har yili bir necha marotabadan davlat byudjetidan ajratiladigan maoshlar, pensiya va stipendiyalar oshirib borilyapti. Muhtoj qatlam va guruhlarga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko‘rsatishning ham turli-turli shakllari paydo bo‘ldi va bu jarayon tobora takomillashib boryapti.

Bugunga kelib mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillardagi katta tajribalarga suyangan, mavjud an’analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti.

Agar Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan buyon o‘tgan davrga nazar tashlasak, bu borada ana shu qisqa fursat ichida mamlakatimizda qanchalar katta ishlar hayotga tatbiq etilganining guvohi bo‘lamiz. Buning uchun ana shu to‘rtinchı ustuvor yo‘nalish hisoblanmish ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan yetti vazifaning ijrosi yuzasidan qilingan ishlarga yana bir karra nazar tashlashga to‘g‘ri keladi.

Bularning bari - ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasini ko‘tarishni ko‘zlab amalga oshirilyapti.

1- Mavzu: IJTIMOIY SIYOSATNING OB'EKTI VA PREDMETI.

Reja:

- 1.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasi.Fanning ob'ekti va predmeti.
- 1.2. Ijtimoiy siyosatning rivojlanish bosqichlari va uni olib borish metodlari.
- 1.3. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi.
- 1.4. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov.

1.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasi.Fanni ob'ekti va predmeti.

„Siyosat“ (politika) atamasi lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra yunoncha „polis“ — davlat yoki ijtimoiy ishlar degan ma’noni anglatadi. Bu atamagni birinchi bo‘lib Aristotel (mil. av. 384—322 y.), ilmiy muomalaga olib kirgan.

Siyosat - davlatni boshqarish san’ati. Siyosat turli ijtimoiy siyosiy sinflar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq. Uning moqiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma’noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashki faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi. Shunga ko‘ra adolatli vaadolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid , demokratik va avtoritar siyosat ko‘rinishlarini boshkaruvda kuzatish mumkin.

Qadimda siyosatga jamiyat va shahar davlat (polis)ni boshqarish to‘g‘risidagi fan (Platon va Aristotel) sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida siyosat deganda davlatni boshqarishning vazifa va maqsadlari hamda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mayjud yoki zarur bo‘ladigan ijtimoiy-siyosiy institutlar, jamoat boshqarishdagi ishtiroki tushuniladi.

Siyosat o‘z ta’sir etish ob’ektiga ko‘ra 2 ga: ichki va tashqi siyosatga bo‘linadi. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayoti sohalari: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy texnikaviy, ekologiya, madaniyat, harbiy va boshqa sohalarni qamrab oladi.

Shu tarzda iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, demografik siyosat, agrar siyosat, texnikaviy siyosat, ekologik siyosat, madaniy siyosat, kadrlar siyosat, harbiy siyosat va boshqa yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi .

Siyosatdagi bu yo‘nalishlar orasida ijtimoiy siyosatning ham o‘z o‘rni va mavqeい bor. Ijtimoiy siyosat jamiyatga siyosiy rahbarlik qilishning shunday yo‘nalishidirki, u o‘z ichiga qator ijtimoiy tadbirlar orqali moddiy farovonlikni oshirish, ijtimoiy adolat, demokratiya, sinflar, millat va elatlar, ijtimoiy qatlamlar, jamoa va shaxsning turmush madaniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Jamiyatni yangilash vazifasi uzoq muddatli, chuqur o‘ylab ko‘rilgan yaxlit ijtimoiy siyosatga muvofiq kelishi, ya’ni ijtimoiy sohaning hamma tamonlarini bir butun holda o‘z ichiga olgan va xalq ommasining ehtiyojini to‘la qondirish, ularning faoliyatini yanada oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Davlatning ijtimoiy siyosati amalda asosan ikki kurinishda namoyon buladi: ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’midot. Ijtimoiy himoya mustakillikning moddiy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash va bozor islohatlarini amalga oshirish davrida aholini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilish va milliy xo‘jalikda amal qiladigan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va hatto, siyosiy chora-tadbirlar majmui bo‘lib, xususan, aholining yoshi, salomatligi, ijtimoiy holati hamda hayot kechirishning zarur vositalarga ega bo‘limganligi sababli yordamga muhtoj qatlamiga davlat va jamoat tashkilotlari va jamg‘armalarning yordami hisoblanadi.

Davlatning ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagidardan iborat:

- aholini hayot darajasini oshirish;
- samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish;
- aholini ish bilan ta’minlanishini nazorat qilish;
- migrantsion jarayonlarni nazorat qilish;
- nafaqa tizimini takomillashtirish;
- tibbiy xizmat va ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga davlat ijtimoiy siyosatini

amalga oshirish mexanizmlarini takominlashtirish, aholining turmush darajasini izchil oshirish va sifatini yaxshilash, ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora -tadbirlar tizimini moxiyatini o'rganishdan iborat.

Fanning predmeti – ijtimoiy siyosat fani ob'ekti, asosiy tushuncha va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirish, ijtimoiy siyosatning nazariy asoslarini tanishtirish, axoli daromadlarini oshirishda oylik ish haqqining o'rnini ko'rsatib berish, ijtimoiy xizmatlarni tushuntirish, aholini ijtimoiy muxofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'naliшlarini tushuntirish, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jaxon tajribasini o'rganish, ijtimoiy sheriklik tizimi: xokimiyat tizilmalari bilan aloqalarini o'rnatishni o'rganish, O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strotegiyasi va ustivor yo'naliшlarini tushuntirish, ijtimoiy sug'urta: huquq, moliya va iqtisodiyot haqida o'rgatish, demografik siyosatni tushuntirish, pensiya tizimining moxiyati va uni isloq qilishni tushuntirish, axoli bandligi, ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llarini tushuntirish, kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llarini tushuntirish, davlatning oilaga qaratilgan siyosatini tushuntirish, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlikning moxiyati va mazmunini ochib berish orqali talabalarga jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy jarayon, hodisalarni ilmiy taxlil etish zaruriyatini singdirishdir.

1.2. Ijtimoiy siyosatning rivojlanish bosqichlari va uni olib borish metodlari.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha ijtimoiy siyosiy faoliyat eng qadimgi davrlarda shakllanib, rivojlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzimi davrlaridanoq juda oddiy bo'lsada himoya funksiyalari o'rnatilgan. U oddiy insonlarning axloqida shakllanib, avloddan avlodga o'tib borgan. Bu himoya funksiyalari ijtioiy himoyaga muhtoj guruxlar – bolalar, kasallar va keksalarga qaratilgan bo'lgan. Albatta, bu jarayonga oddiy ishlab chiqarish, past samaradorlik, amaldagi patrialxal munosabatlar, urug'lar o'rtasidagi tarqoqlik va boshqalar salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu davr odamlarining ijtimoiy himoyasi o'z-o'zini asrash instingtiga asoslangan bo'lgan. Har qaysi xalqlarda turlicha kechgan.

Misol uchun eskimoslarda keksalar va kasalmand bolalar taqdir hukmiga tashlab qo‘yilgan. Xuddi shu davrda indeyslarda keksalar ulug‘lanib, ularga sig‘inganlar.

Quldarlik jamiyatida esa ijtimoiy siyosatning rivojlanishiga quyidagi faktorlar ta’sir ko‘rsatgan:

- kam bo‘lsada ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi;
- ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi;
- patrialxal oilaning shakllanishi;
- davlat, davlat tashkilotlari va davlat boshqaruving paydo bo‘lishi;
- qullar va erkin kishilarga nisbatan ikki xil axloqning mavjudligi.

Qadimda ijtimoiy himoya funksiyalari oila tomonidan bajarilgan bo‘lib, umume’tirof etilgan axloqiy tamoyillarga asoslangan. Agar odam yaqinlarini yo‘qotsa, bu vazifalar davlat , cherkov va vatandoshlar tomonidan bajarilgan.

Tarixiy nuqtai-nazardan Qadimgi-yaxudiy davlatidagi ijtimoiy siyosat o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu jamiyatda kambag‘allar, bemorlar va nogironlar bilan hamdardlik tuyg‘ulari rivojlangan bo‘lgan. Ijtimoiy himoya faqat mexnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlarga ko‘rsatilgan. O‘z navbatida, mexnatga layoqatli, sog‘lom odam ijtimoiy yordam olsa qattiq jazolangan.

Qadimgi Gresiyada gumanitar-demokratik xarakterdagи ilk qonunlar yaratilgan. Jumladan, ota-onalarni farzandlariga kasb-kor o‘rgatishga, yoki u yoki bu mexnat faoliyatiga tayyorlashlash majburlovchi qonun shunga misol bo‘la oladi. Shu bilan bir vaqtda Qadimgi Gresiyada antigumanitar qonunlar ham bo‘lgan. Masalan, nogiron bolalarni qoyadan pastga tashlab yuborganlar.

Tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirgan holda bu davr uchun xarakterli quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatish mumkin:

- mehnat unumdligining pastligi va aholining ommaviy qashshoqligi;
- davlatning ijtimoiy siyosatga kuchli ta’siri;
- ijtimoiy himoya professional assotsiatsiyalari ilk ko‘rinishlarining shakllanishi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi amalga oshirildi. Bu bosqichda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy muhofaza qilish buyicha bir qator qonunlar ishlab chiqildi.

Ularda aholini ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy sug‘urtalash masalalari ko‘rildi. XX asrning 30-yillarida Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Natijada aholi o‘rtasida ishsizlar soni oshdi, aholi daromadlari pasayib, turmush sharoiti yomonlashdi. Bunday muammolarni hal etish maqsadida Yevropa mamlakatlari va AQShda aholi turmush sharoitini o‘rganuvchi maktablar yaratilda.

Ikkinci jahon urushidan keyin qator mamlakatlarda ijtimoiy ta’mnotning yagona tizimi shakllandi. Endilikda aholining faqat faol qismi emas, balki barcha aholi qatlami hakida qayg‘urish, ularni ijtimoiy ta’minalash, hamda bemorlarga tekin tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlari yaratildi. Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi-da davlatning o‘rni oshib bordi. Ishlab chikaruvchi va ishchilar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarish va nazorat etish, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish borasida davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib bordi.

Turli davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi mamlakat-ning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq holda amal qiladi. Mamlakatda aholini ijtimoiy himoyalashning samarali tizimi hozirgi zamon iktisodiyotining rivojlanish belgisidir desak xato bulmaydi. Iktisodiyoti ravnaq topgan mamlakatda aholi turmush darajasining tez sur’atlarda o‘sishini kuzatish mumkin. Ushbu mamlakatda har bir kishi ijtimoiy kelib chikishidan qat’i nazar jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, uning mehnat qobiliyatidan to‘lato‘kis foydalilanadi, hamda uning haq-huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimida davlatning o‘rni oshib bordi. Ishlab chiqaruvchi va ishchilar o‘rtasidagi munosabatlarni boshkarish va nazorat etish, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish borasida davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib bordi.

Davlatning ijtimoiy siyosati quyidagi yo‘nalish va metodlarda olib boriladi. Birinchidan, barcha mehnatga layoqatlilarga tadbirkorlik va mehnat uchun qulay sharoitlarni ta’minalash. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: biznesni liberallashtirish; kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish; yuqori darajadagi bandlikni

qo‘llab-quvvatlash; mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ikkinchidan, jamiyatning barcha a’zolariga farovonlikning ma’lum standartlarini ta’minlash. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurat hisoblanadi: jamiyatda daromadlarni qayta taqsimlash; turli nafaqalar va pensiyalarni optimallashtirish; umumiy savodxonlik va barcha jamiyat a’zolari uchun zaruriy tibbiy yordamni uyushtirish.

Ijtimoiy siyosatining eng muhim vazifasi quyidagilar orqali ijtimoiy hayotdagi muvozanatning muayyan darajasiga erishish: a) tabiiy ofatlar, ocharchilik, kasalliklar, global jarayonlarning maksimal salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha davlat kafolatlarini berish; b) moddiy boyliklarni qayta taqsimlash, mamlakatda erishilgan turmush darajasini soliqlar, homiylik ishlarini rivojlantirish, tadbirdorlikni progressiv vositalar bilan birgalikda qo‘sib ta’minlashga yo‘naltirilgan tashkiliy harakatlarni muvofiqlashtirish. Ijtimoiy siyosat ijtimoiy ishning turli shakllari, davlatning bir martalik yirik qarorlari va tadbirdori, shuningdek, ijtimoiy (maxsus va kompleks) dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: aholini hayot darajasini oshirish; samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish; aholini ish bilan ta’milanishini nazorat qilish; migrantsion jarayonlarni nazorat qilish; nafaqa tizimini takomillashtirish; tibbiy xizmat va ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish.

O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosatning asosiy prinsplari quyidagilardan iborat: aholini kam ximoya qilingan qatlamlariga ko‘mak berish; ijtimoiy soxada davlat va jamoatchilik nazorati; ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalliy xokimiyatni ahamiyatini va vakolatlarini kuchaytirish; barcha fuqarolarga yashash uchun minimumni kafolati; aholini rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; imtiyozlar berishlarni asoslilagini ta’minlash.

1.3.Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi.

Extiyojlar— organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan narsalarga talab, muhtojlik.

Ehtiyojlar sub'ekt bilan uning faoliyati o'rtasidagi bog'lanishlarni ifoda etadi va maqsadlar, mayllar, intilishlarda va pirovardida hatti harakatlar, fe'l atvorda yuzaga chiqadi.

Faoliyat sohasiga qarab mehnatga, bilimga, muloqotlarga; ob'ektiga qarab moddiy, ma'naviy; sub'ektiga ko'ra yakka (shaxsiy), guruhiy, jamoaviy, ijtimoiy ehtiyojlar bo'lishi mumkin. Ehtiyojlarning umumiy qonuniyati — ularning umuman bevosita inson faoliyatiga, xususan, ijtimoiy ishlab chiqarishga bog'liq bo'lishidir. Ayni payda faollikka undovchi kuch bo'lgan ehtiyojlar, o'z navbatida, hayot sharoitlariga tanlama ta'sir ko'rsatadi, ularning o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, u yoki bu faoliyat usullarini va ehtiyojlarni qondiradigan predmetlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Masalan, bir vaqtlar kishilarda avtomobilga paydo bo'lgan ehtiyojlar ularni yaratish yo'lida izlanishlarning boshlanishiga sabab bo'ldi, butun bir sanoat tarmog'ining paydo bo'lishiga olib keldi.

Tarixan ehtiyojlar o'sib boradi, ular xilmaxil, o'zgaruvchan, tuzilmaviy o'zgarishlarga uchrab turadi. Ehtiyojlar tizimida iqtisodiy ehtiyojlar asosiy o'rinda turadi. Ularga birinchi navbatda, moddiy ashyoviy ehtiyojlar (moddiy va ma'naviy) — oziq-ovqat mahsulotlariga, kiyim kechak, axborot vositalari (gazeta, kitob va boshqalar)ga ehtiyojlar, shuningdek, iqtisodiy ehtiyojlar tuzilmasida oliv o'rinda turadigan mehnat qilish, ta'lim olish, sog'lijni saqlash extiyojlari kiradi.

Iqtisodiy ehtiyojlarni ham ularni ro'yobga chiqaradigan sub'ektlariga qarab tasniflash mumkin (shaxsiy — yakka, jamoa va ijtimoiy — umumiy ehtiyojlar).

Extiyojlar ob'ektiga ko'ra moddiy extiyojlar va ijtimoiy- madaniy extiyojlarga bo'linadi.

Moddiy extiyojlar azaliy, ular inson paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Ular tabiiy extiyojdir. Moddiy extiyojlar eng zarur va hayotiy extiejlardir. Oziq-ovqat, kiyim- kechak, turar-joy, transport va xokazo kabi qator extiyojlardan iborat bo'lib, ularning qondirilishi yashashning birlamchi shartidir. Moddiy extiyojlar , albatta moddiy ko'rinishga ega. Masalan, oziq-ovqat extiyoji – un, guruch, yog‘, go‘sht, shakar va boshqalar kabi moddiy shaklga ega. Kiyimlarga bo'lgan extiyoj – tuqli,

paypoq, kostyum-shim, ko‘ylak, palto, kurtka va boshqalarga bo‘lgan extiyoj sifatida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy-madaniy extiyojlar azaliy bo‘lmay, jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida, sivilizatsiya paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi. Jamiyat rivojlangan sari ijtimoiy-ma’naviy extiyojlar tabiiy zaruratga aylanadi xamda tobora yuksala boradi. Ijtimoiy-madaniy extiyojlar asosan turli xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan extiyojlar tarzida yuzaga chiqadi. O‘qituvchi, vrach, san’at arbobi, sport va boshqalar xizmatidan foydalanib inson axloqiy, ma’naviy, estetik, jismoniy jixatdan tarbiyalanadi, bilim oladi, kasb egallaydi, har tamonlama kamol topadi. Bu extiyojlar yaqqol moddiy ko‘rinishga ega emas.

Kezi kelganda shuni xam aloxida ta’kidlash lozimki, turli extiyojlar orasida ijtimoiy extiyojlar muxim o‘rin tutadi. Ijtimoiy extiyojlar qatoriga yuqoridan sanab o‘tganimiz ijtimoiy-madaniy extiyojlardan tashqari mehnatga layoqatsiz, keksaygan, nogironligi bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarning moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordamga , va umuman barcha fuqarolarning uy-joyga, ta’limga va sog‘liqni saqlashga bo‘lgan extiyojlari xam kiradi.

Ijtimoiy extiyojlarni qondirishda ijtimoiy ta’mnotinning axamiyati katta. Ijtimoiy ta’mnot — ijtimoiy extiyojmand fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’mnot to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar, homiylar (turli jamg‘arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ta’mnot miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me’yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik bo‘yicha, nogironlik bo‘yicha, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha va ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg‘iz nogiron va keksalarga) to‘lovleri ijtimoiy ta’mnotinning eng muhim turlari hisoblanadi. Qari-yalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish — nogironlarni «Mu-ruvvat» uylariga, yolg‘iz qariyalarni «Sahovat» uylariga joylashtirish,

muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashishda yordam ko'rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, ularga shahar jamoa transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish ijtimoiy ta'minotda katta rol o'ynaydi.

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy muammolar ham uchrab turadi. Bu muammolar uchta ko'rinishda bo'ladi. Birinchi turdag'i ijtimoiy muammolar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar qaramaqshiliklari natijasida, ya'ni muayyan ijtimoiy guruhlar bilan korxonalar, firmalar va h.k.lar o'rtasida paydo bo'ladi. Masalan, firma oylik maoshlarni qisqartirish orqali xodimlar ijtimoiy manfaatlariga ziyon yetkazadi.

Ikkinci turdag'i ijtimoiy muammolar ijtimoiy mexnat taqsimoti natijasida vujudga keladi. Iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish kuchlarini takominlashtirib borishni, yangi texnologiyalarni qo'llash orqali ish o'rinarini qisqartirib borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida ishsizlik va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Uchinchi turdag'i ijtimoiy muammolar eskirgan ijtimoiy munosabatlarning saqlanib qolishi bilan bog'liq. Bu asosan hozirgi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermaydigan ayrim eski normativ xujjalarning haligacha muomuladan chiqarilmaganligi bilan izoxlanadi.

Shuni e'tirof etish lozimki, jamiyat rivojlanib borishi bilan ijtimoiy muammolar xam rivojlanib boradi, yo'qolib ketmaydi. Demokratik davlat bu muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlab borishi va ularni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy siyosat yuritishi lozim.

1.4. Ijtimoiyadolat. Samaradorlik va tanlov.

Adolat – ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiysiyozi ongida katta rol o‘ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me’yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e’-tirof qilish va hokazoga mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushun-chasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-fal-safiy jihatni jamiyat a’zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o‘zaro tengligini nazarda tutadi. Ahloqiy jihatni insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariiga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g‘amini yeishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o‘z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tu-fayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o‘z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a’zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta’minlaydi.

Tarixan o‘zini oqlagan insonparvar ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiyadolatni ta’minlashdir. Ijtimoiyadolat tenglik va erkinlik so‘zlari bilan hamohang bo‘lib, u doimo va ko‘pchilik tomonidan qo‘llanib kelinadi.

Adolat tushunchasi inson yoki insonlar guruhi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar holatini ifodolovchi tushuncha bo‘lganligi uchun ijtimoiy so‘zi qo‘shiladi. Chunki ijtimoiyadolat ijtimoiy munosabatlarning barcha jahbalariga taaluqlidir.

Adolat tarix sinovlaridan o‘tgan tinchlik va mexnat, erkinlik va tenglik, birdamlik va baxt haqidagi tasavvurlar bilan birga, kishilarning ehtiyojlarini eng ko‘p ifodalaydigan g‘oyalar qatoriga kiradi. Adolat keng xalq ommasini qatiy va faol harakatga undovchi, safarbar etuvchi kuchga ega.

Islomning asosi bo‘lgan Qur’oni karim va Hadisi shariflarda ham adolat borasida ko‘p o‘gitlar aytilgan. Adolatli bo‘lish har bir inson uchun zarur amaldir.

Ayniqsa, mas'ul vazifada xizmat qiluvchi kishilar va rahbarlar uchun o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan adolatli muomalada bo‘lish o‘ta muhimdir. Bu haqda "Niso" surasining 58 oyatida shunday deyiladi: - "Albatta, Alloh sizlarga eng yaxshi pand-nasihatlarni qilur. Albatta, Aloh eshituvchi, ko‘rguvchi zotdir".

Adolat qilish rahbar odamlar uchun o‘ta zarur bo‘lgan mas’uliyat ekanini Rasullulloh (s.a.v) bayon qilib, o‘z hadisi shariflarida aytganlarki: "Sizlardan har biringiz rahbar nazoratchisizlar va har biringiz o‘z qo‘l ostidagilaringiz uchun so‘roq qilinursiz."

Birok kishiga yoki qavmga shaxsiy adovati bo‘lgani uchunadolatsizlik qilish yoki o‘z qarindoshi, tanish-bilishlariga yon bosib, ularni qo‘llab-quvvatlab adolatli bo‘lishni Allohtaolo qat’iy man etib aytadiki: "Ey mo‘minlar, Allohning o‘zi uchun haq yo‘lni tutuvchi bo‘lingiz! Birok qavmni yomon ko‘rishingiz sizlarni adolat qilmaslikka tortinmasin! Adolat qilingiz!" (Moida surasi, 8-oyat)

Ijtimoiy adolat tushunchasi deganda u inson turmushining hamma soxalarini, shaxs bilan jamiyat o‘zaro munosabatlarining barcha jixatlarini qamrab olganligini tushunamiz. Ijtimoiy adolat real xalq hokimiyatidan va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligidan, millatlarning amalda teng huquqligidan, shaxsning hurmat qilinishidan iborat. Keng miqyosdagi ijtimoiy kafolotlar: ish bilan ta’minalash, ma’orifda, madaniyat ne’matlaridan, meditsina xizmatidan foydalanish va uy joyli bo‘lish, keksalar, onalik va bolalik to‘g‘risida g‘amg‘o‘rlik qilish ham shular jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy adolat prinsipi xalq birligining, jamiyat siyosiy barqarorligining, rivojlanish jo‘shqinligining muxim sharti hisoblanadi. Shuning uchun davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolatni ta’minalashga alovida e’tibor qaratmog‘i lozim. Adolatsizlik ko‘rinishi qaerda sodir bo‘lmasin ishlab chiqarish, taqsimot soxasidami, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish ishidami, odil sudlovni amalga oshirishdami davlat, jamoat mulkidan va xizmat mavqeidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish va shu kabi boshqa hollardami, bularning hammasi kishilarning tabiiy norlozilagini qo‘zg‘atadi, unga qarshi faol harakat qilina

boshlanadi. Shunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun davlat ijtimoiy adolatni taminlashga to‘sqinlik qiladigin barcha to‘siqlarni bararaf etishi lozim.

Ijtimoiy adolat turli tarixiy davrlarda o‘zining mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Bir sharoitda adolat deb hisoblangan holat boshqa sharoitdaadolatsizlikka aylanishi mumkin. Ijtimoiy adolat muammosi cheksiz tenglikka erishish ma’nosini anglatmaydi. Uni to‘la ro‘yobga chiqarish ham mumkin emas, chunki odamlar o‘z qobiliyatlariga, o‘z faoliyatlarini ro‘yobga chiqarish darajasiga ko‘ra teng emaslar. Ijtimoiy siyosat odamlarning qonun oldidagi tengligini va imkoniyatlar tengligini ta’minlashi kerak.

Ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlamay turib, haqiqiy adolatni tasavvur qilish ham, uning tamoillarini amalga oshirish ham mumkin emas. Jamoat, davlat ishini o‘z ishi deb bilib, g‘amxo‘rlik qilish – ijtimoiy adolatning muxim qirrasidir.

Tayanch so‘z va iboralar:

siyosat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy siyosat ob’ekti, ijtimoiy siyosat predmeti, ijtimoiy adolat, ehtiyojlar, ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy siyosatning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy ta’mnot, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy manfaatlar.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Ijtimoiy siyosat deganda nimani tushinasiz ?
- 2.Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat ?
- 3.Ijtimoiy siyosat ob’ekti va predmeti nimadan iborat ?
- 4.Ijtimoiy siyosatning rivojlanish bosqichlari va uni olib borish metodlarini taxlil qiling ?
- 5.Ijtimoiy extiyojlar deganda nima tushuniladi ?
- 6.Ijtimoiy adolat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?

2-mavzu: IJTIMOIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

- 2.1. Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri.
- 2.2. O‘rta asrlar va uyg‘onish davridagi ijtimoiy siyosiy g‘oyalar.
- 2.3. Yangi va eng yangi zamondagi ijtimoiy siyosiy ta’limotlar.

2.1.Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri.

Ijtimoiy - siesii qarashlar taxminan miloddan avvalgi 4 ming yillikda insoniyat sivilizatsiyasining ilk o‘choqlari bo‘lgan Sharq o‘lkalari — Misr, Mesopatamiya, Hindiston va Xitoyda paydo bo‘lgan. Dastlabki ijtimoiy siyosiy fikrlar barcha qadimgi xalqlarda, Sharqda ham, G‘arbda ham diniy negizdagi afsona va rivoyatlar ta’sirida shakllangan.

Qadimgi xalqlardan misrliklar, xitoyliklar, hindlar, yahudiylar, forslar, greklar va rimliklar yerdagi tartiblarni koinot tartiblarining uzviy bir qismi va kelib chiqishi jihatidan ilohiydir, xudo uning bosh sababidir, deya talqin qilganlar. Bunday tafakkur tarzi uzoq davrlar mobaynida ijtimoiy-siyosiy ongda chuqur o‘rnashib, davlat, siyosatga oid g‘oyalarda ham o‘z ifodasini topgan.

Qadimgi Xitoydagagi ilk ijtimoiy siyosiy qarashlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda muqaddas bitiklarning emas, balki mutafakkir olimlarning davlatni tashkil etish, boshqarish, inson va jamiyat munosabatlari tahlili aks etgan ta’limotlari muhim o‘rin egallaydi. Ular safida Konfutsiy (Kun-Fu-szi — mil. av. 551—479)¹ qarashlari alohida ahamiyatga molik. Xitoyning keyingi taraqqiyoti uchun ham g‘oyatda ahamiyatli bo‘lgan konfutsiychilik falsafiy-axloqiy va siyosiy ta’limoti dinning o‘ziga xos muqobili vazifasini o‘tagan. Uning fikricha, davlat ulkan oiladir. Imperator hokimiyati oila boshlig‘i, ya’ni otaning oiladagi hokimiyatidek, qo‘l ostidagilarga nisbatanadolat va mehr- shafqatga asoslanishi lozim.

Mutafakkir davlat va jamiyat boshqaruvini avvalo intizom va tartib bilan bog‘lab „podshoh—podshohdek, xizmatkor—xizmatkordek, ota—otadek, o‘g‘il—o‘g‘ildek bo‘lsin“, deydi. Bunday boshqarish — hammani joy-joyiga quyish degan xulosani chiqaradi. U odamlarni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab to‘rt qatlamga

¹ <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/konfutsiy-oliy-odam-ruyomi-ruyob/>

ajratadi: aslzodalar (tabiiy tug‘ma qobiliyatli); bilimlarga o‘qish-o‘rganish jarayonida ega bo‘lganlar; bilimlarni qiyinchilik bilan o‘zlashtiruvchilar; bilim olishga intilmaydiganlar. Konfuiy fikricha, qatlamlararo tafovutlar ular o‘rtasidagi tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu tengsizlik kichiklarning kattalarga, quyi tabaqalarning yuqori tabaqalarga bo‘ysuiishini, hokimiyatning aslzodalar qo‘lida to‘planishi zarurligini taqozo qiladi. Konfutsiy ijtimoiy-siyosiy ta’limotining negizida ezgulik, insoniylik goyasi yotadi.

Dastlabki siyosiy g‘oyalar dastlab Sharqda paydo bo‘lganligiga qaramay G‘arbda, xususan Qadimgi Gresiya va Rimda tom ma’noda ilmiy shaklga yaqinlashdi. Ijtimoiy-siyosiy fikr afsona va rivoyatlar qobig‘idan chiqib inson, jamiyat masalalarini ilmiy-falsafiy talqin qilishga intildi.

Davlat va uning boshqaruv shakllari, usullari haqida dastlab Suqrot, uning shogirdi Platon, undan so‘ng Aristotsl yaratgan g‘oyalar diqqatga sazovordir. Platonning (mil. av. 427 — 347)¹ ijtimoiy siyosiy qarashlariga dastlab ustozি Suqrotning ratsional falsafasi katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsada, keyinchalik u ob’ektiv idealizm tarafdori va ifodachisiga aylandi. Bu ruh uning „Davlat“, „Siyosatchi“, „Sofist“, „Parmenid“ va „Qonunlar“ kabi asarlarida ilgari surilgan ikki dunyo to‘g‘risidagi qarashlarida yaqqol seziladi.

Platonning fikricha, inson tabiatи uch asosiy elementdan tarkib topgan: aqliy, jangarilik va yaratuvchilik. Shunga muvofiq ideal davlat ijtimoiy tuzilish jihatidan uch asosiy toifani o‘z ichiga oladi. Donolikka salohiyati bo‘lgan faylasuflar hukmdorlik qilib, davlatni boshqaradilar, jangarilikka moyil bo‘lgan jangchilar mudofaa bilan, yaratupchilik egalari — dehqon va hunarmandlar esa moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish bilan band bo‘ladilar.

Davlatning kelib chiqishini ijtimoiy ehtiyojga bog‘lagan holda „Davlat — har birimiz o‘zimizni qondira olmaganimiz holda juda ko‘p ehtiyojlarga muhtojligimizdan kelib chiqadi,” deydi Platon. Ushbu davlatda har bir inson o‘z tabiatida ustunlik qiluvchi xususiyatlarga ko‘ra mehnat taqsimotida o‘z vazifasini

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/platon-uz/>

bajaradi. Demokratik tuzum doirasida inson istagan ishini qilishi mumkin deya fikrlagan Platon bunday tuzumga qarshi chiqadi.

Platonning ideal davlat to‘g‘risidagi nazariyasi uning mashhur shogirdi, A. Makedonskiyning ustozи, Sharqda „birinchi muallim“ nomi bilan tanilgan Aristotel (mil. av. 384—322)¹ tomonidan keskin tanqidga uchradi. Jamiyatdagi sinfiy tabaqalanish va davlatning kelib chiqishini mutlaq, ilohiy g‘oya bilan bog‘lagan Platonga qarama-qarshi o‘laroq Aristotel inson salohiyatiga ko‘proq e’tibor bilan qaradi. Bu hol Platon va Aristotel’ ta’limotlari o‘rtasida muayyan tafovutlarni, qarama- qarshiliklarni keltirib chiqardi. Jumladan, „Siyosat“, „Etika“, „Ritorika“, „Afina politiyasi“ kabi asarlarida Gresiya va uning atrofidagi 158 shahar-polislар hayotini kuzatish asosida Aristotel real hayotdagi o‘zgarishlarning o‘z ichki ziddiyatlari asosida sodir bo‘lishini ta’kidladi va bu fikrlari bilan ustozidan ijobiy jihatdan o‘zib ketdi. Bu holni izohlar ekan „Platon mening do‘stim, lekin haqiqat undan ustunroqdir“, degan edi Aristotsl.

Aristotel „inson o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiy mavjudotdir“ degan fikrni ilgari surib, ungaadolat vaadolatsizlikning farqini anglaydigan yagona mavjudot sifatida qaraydi. Davlatning nisbiy yaxlitligini ma’qullab, uning maqsadi hamma fuqarolarga farovonlik ulashishdir, dsb hisoblaydi. Aristotel Platonga zid ravishda xususiy mulkni himoya qilar ekan, shaxsiy manfaatdorlik va xususiy mulkka ega bo‘lish insonga huzur bag‘ishlaydi, har kim o‘z ishi bilan band bo‘ladi, bu o‘z navbatida taraqqiyotni tezlashtiradi, deb biladi. Mutafakkir fikricha, boylikka bunday munosabat xudbinlik emas, balki o‘z-o‘zini hurmat qilishga hamda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Garchi, demokratiya kambag‘al — yo‘qsillar manfaatini ifodalaydi, umum manfaatini nazarda tutmaydi deb, demokratiyani mukammal tuzum qatoriga kiritmagan bo‘lsada, Aristotel davlatning mustaqilligi uchun kambag‘allar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish lozim, chunki, kambag‘allar odatda davlatni boshqarishdan chetda bo‘ladilar. Isyon va jinoyatlar ko‘payadi, qaerdaki o‘rta sinf

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aristotel-uz/>

bo‘lmasa, kambag‘allar soni ko‘p bo‘lsa murakkab vaziyat vujudga keladi va davlat halok bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi Gresiyadagi siyosiy-huquqiy tafakkurla ijtimoiy-siyosiy masalalarga katta e’tibor ustuvorlik qilgan bo‘lsa, Qadimgi Rim siyosiy-huquqiy qarashlarida huquqiy jihat ustunlik qilgan. Greklarda davlat va huquq masalalari bilan faylasuflar, rimliklarda esa amaliy tajribaga ega bo‘lgan huquqshunoslar shug‘ullangan. Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta’limotlari tarixi Mark Tulyi sitseron (mil.av 106- mil.43), Ulpian, Modestin (1—111 asrlar) nomlari bilan bog‘liq. Mashhur notiq va davlat arbobi sitseron „Davlat to‘g‘risida”, „Qonunlar to‘g‘risida”, „Majburiyatlar to‘g‘risida“ kabi asarlarida huquqiy davlatning ildizlari haqidagi ta’limotni yaratdi. Uning fikrncha, dastlab insonning tabiiy huquqlari, keyin esa davlat va uning qonunlari vujudga kelgan. Hujuqshunos va tajribali ma’mur sifatida sitseron davlatni qonunlar jamiyati deb biladi va odamlar boylik, qobiliyat jihatidan teng bo‘lmasalarda, lekin barchalari qonun oldida teng bo‘lishlari lozim deydi. Umuman, sitseron davlatning paydo bo‘lishini tabiatda mavjud bo‘lganadolat va huquqning ro‘yobga chiqishidan iborat, deb tushunadi. sitseronning qarashlarida uchraydigan „xalq“ va „olomon“ tushunchalariga berilgap ta’riflar yanada qiziqarlidir. Xalqqa umumiy huquq va foyda asosida birlashgan kishilar, olomonga esa hurmatga loyiq bo‘lmagan, davlatga zarar keltirishga, isyonlar qilishga moyil kuch sifatida qaraydi.

Mamlakatimiz xududa ijtimoiy siyosat to‘g‘risidagi ilk tushuncha va qarashlar asosan diniy-mifologik xarakterda edi. Avesto ta’limotiga ko‘ra, hokimiyat, haqiqat, adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalga tayanadi. Davlatning vazifasi yovuzlikka qarshi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtli saodatli hayotini ta’minlashdir. Islom dini ta’limoti bo‘yicha, Allohnpng o‘zi oliy qonun sohibi. Uning talablari, ko‘rsatmalarini payg‘ambarlar orqali insonlarga yetkaziladi. Davlat boshliqlari — podsholar, xonlar xudoning yerdagi soyasi, vakili hisoblanadi.

Qadimgi dunyo faylasuf mutafakkirlari qarashlarida, Zardushtiylik, Islom dini tv'limotlarida erkinlik va axloq g'oyalari bilan bir qatorda ijtimoiy adolat va insoniylik g'oyalari rivojlantirilgan.

2.2.O'rta asrlar va uyg'onish davridagi ijtimoiy siyosiy g'oyalar.

O'rta asr siyosiy-huquqiy g'oyalarining negizida xristian ilohiyotshunosligi yotadi. O'rta asr ijtimoiy siesiy fikri tarixida diniy an'analarning eng klassik (mumtoz) ko'rinishi katolik cherkovi asoschilari va da'vatchilaridan biri Avreliy Avgustin (345—430)¹ ning siyosiy nazariyasida o'z ifodasini topdi. A. Avgustin Rimning varvarlar tomonidan istilo etilishidan ta'sirlanib yozgan „Iloh shahri“ hamda „Va'z, pandnasiyat“ („Ispoved“) asarlarida dunyoviy davlat hokimiyatini inkor etib, katolik cherkovi diniy hokimiyatining yer yuzida hukmronlik qilishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi. Zo'rlikning har qanday ko'rinishini rad etar ekan, insonlar bir-birining ustidan hukmronlik qilish, biri ikkinchisini itoat etgirish, hukmronlikka intilish ishtiyоqida davlat va uning jazolovchi idoralarini o'ylab topganlar, deya hisoblaydi.

O'rta asrlar allomalaridan yana biri F. Akvinskiy (1225—1274) yashagan davr katolik cherkovining eng kuchli mavqega erishgan asrlariga to'g'ri keladi. Uning ijtimoiy siyosiy qarashlari aks etgan „Hukmdorlarning boshqaruvlari to'g'risida“, „Ilohiyot majmuasi“ asarlarida,² qolaversa, Aristotelning asarlariga yozgan sharhlarida ilohiyot va falsafa muammolaridan tashqari. huquq, axloq, davlatchilik va iqtisodiyot masalalari ham qalamga olingan. Umuman, F. Akvinskiyning diniy-siyosiy ruhdagi nazariyasi ijtimoiy tengsizlikning xudo tomonidan o'rnatilganligi to'g'risidagi g'oyani himoya qilishga asoslangan. Uning ta'limotiga ko'ra, dunyoviy hokimiyat ilohiy hokimiyatning yerdagi ifodasidir. Dunyoviy hokimiyat ilohiy hokimiyat talablari asosida ish ko'rsatsagina insonlarga yaxshilik va ezgulik olib kelishi mumkin. Faqat hokimiyatning aiiq shakli, hokimiyatga ega bo'lish usullari,

¹ <https://ziyouz.uz/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar-hikmati/354-430/>

² <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-287480-1.html?page=5>

uning tuzilishi va undan foydalanish xudoning g‘oyalariga zid, adolatsiz bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

Qonun nazariyasining tahlili F. Akvinskiy merosida muhim o‘rin tutadi. Xristian davlatining fuqarosi sifatida inson qonunlarning to‘rt turiga duch keladi: 1. Abadiy qonun — koinotni boshqaruvchi ilohiy tafakkur. 2. Tabiiy qonun — ilohiy, abadiy qonunning inson tafakkuridagi in’ikosi. 3. Inson qonuni — tabiiy qonun, tabiiy huquqdan inson irodasi orqali kelib chiqadi. F. Akvinskiy xuddi Aristotel kabi insoniyat yaratgan qonunlar barcha fuqarolarning manfaatlariga xizmat qilishi kerak, bu qonun vakolatli hokimiyat tomonidan ishlab chiqilishi lozim, deb hisoblaydi.

XIV asrga kelib, Yevropada cherkov hokimiyatiiing kuchsizlanishi, qirollar dunyoviy hokimiyatining kuchayishi davri boshlandi va bu hol markazlashgan milliy davlatlarning tashkil topish jarayonida yangi siyosiy- huquqiy nazariyalarni paydo qildi. Jumladan, ingliz faylasufi V. Okkam (1300—1350) dunyoviy hokimiyatning diniy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishi lozimligi g‘oyasini ilgari surdi. Bu esa xalq huquqining demokratik nazariyasi yaratilishiga olib keldi. Lekin, bu nazariyada xalq individlar jamoasi tarzida tushunilmas, o‘rta asrga xos jamoa huquqi tafakkuri ustunlik qilar edi.

Uyg‘onish davri ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari Yevropadagi Uyg‘onish (XIV—XVI asrlar) va Reformatsiya (XVI asr) davrlari o‘rta asr tartiblari sharoitida yangi burjua munosabatlarining paydo bo‘lishi, Petrarka va Bokkacho, Leonardo da Vinci va Nikkolo Makiavelli, Dyurer, Lyuter, Mikelandjelo va Myunserlar nomini dunyoga tanitgan davrdir.

Uyg‘onish va Yangi davr siyosiy-huquqiy qarashlarida davlatning paydo bo‘lishi va qaror topishi muammosini o‘rganish kuchayganligi ko‘zga tashlanadi. Davlat, jamiyat va shaxs to‘g‘risidagi qarashlar tizimida individ-fuqaroga alohida z’tibor berish boshlandi. Shuning uchun bu davrning siyosiy qarashlari „fuqarolik to‘g‘risidagi qarashlar“ deb ham ataladi. Yangi davr siyosiy fanining asoschisi deya tan olingan buyuk italyan gumanisti N. Makiavelli (1469—1527) diniy aqidalardan xoli bo‘lgan Uyg‘onish davri siyosiy falsafasini yaratdi. U „Hukmdor“, „Florensiya

tarixi“ asarlarida siyosatni birinchi bo‘lib fan sifatida asoslاب berdi va jamiyatning ilohiy emas, balki tabiiy qonunlar asosida rivojpanishini ta’kidladi.¹

Makiavelli o‘sha davr siyosiy boshqaruvida foyda hamda kuch asosiy mezon bo‘lganligidan kelib chiqqan holda hukmdor kuchli armiya to‘g‘risida qayg‘urishi kerak va qaysi tarafning armiyasi kuchli bo‘lsa, taqdir o‘sha tarafga kulib boqadi, degan fikrni olg‘a suradi.

Fransuz mutafakkiri Jan Boden (1630—1596)ning qarashlari ham muayyan qiziqish uyg‘otadi. „Davlat to‘g‘risida olti kitob“² asarida u birinchi bo‘lib davlat suvereniteti g‘oyasini ilgari surdi, davlat ilohiy tarzda kelib chiqmaganligini ta’kidlab, uning manfaatlari din manfaatlaridan ustun bo‘lishi lozimligini va vijdon erkinligi o‘rnatalishini targ‘ib etdi.

Xullas, Uyg‘onish davri ijtimoiy siyosiy ta’limotlari siyosiy- huquqiy ta’limotlar rivojining keyingi taraqqiyoti uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Shuni e’tirof etish kerakki, G‘apb mutafakkirlari ko‘proq huquqiy , amaliy, kundalik hayot muammolari nuqtai nazaridan fikr yuritib, Sharqdagidan ancha farqli tarzda «erkinlik», «teng huquqlilik», «erk» tushunchalariga ko‘proq darajada ahamiyat bergenlar.

Sharqda esa ijtimoiy siyosat tushunchasi ishlatilmagan bo‘lsa xam ijtimoiy adolatga katta e’tibor qaratilgan. Sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamohang tarzda «haq», «me’yor», «hakiqat», «burch» tushunchalari xam qadrlanib kelingan. Shuningdek, jamoa manfaati, oiladagi tartib-intizom, e’tiqod va ma’naviylik yukori baxolangan.

«Adolat» tushunchasining kelib chiqishi (sotsiogenezi) to‘g‘risidagi ta’limotni buyuk ajdodimiz Abu Nacp Forobi yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g‘oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tatbiqan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chikishida tabiiy extiyojlar yotishini, bu extiyojlarni

¹ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/>

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%96%D0%B0%D0%BD>,

uyg‘unlashtirish esa adolat tuyg‘usini shakllantirishini ta’kidlagan edi. Sharq mutafakkiri Konfutsiyning g‘oyalarini davom etirgan holda Forobiy «adolat» tushunchasi insoniyatning ma’rifiy davriga to‘g‘ri kelganligini ta’kidlaydi.

Forobiyning fozil jamiyat konsepsiyasiga ko‘ra, baxtsaodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo‘lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi. Shu ma’noda, fozil jamiyatda, avvalo, erkinlik mavjud buladi. Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bulib, bu me’yorlar fozil jamiyatning asosi bo‘ladi. Shy bilan birga, Forobiy fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. U yetuklashgani sayin o‘z a’zolarini himoyaga ola boradi. Shuni ham aloxida aytish kerakki, agar o‘tmish mutafakkirlari ijtimoiy kafolatlanish uchun inson faolligi masalasini ilgari surgan bo‘lsalar, Forobiy qarashlarida insonni ijtimoiy kafolatlashda jamiyatning roli aloxida uqtirila boshlandi.

Farobiy Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta’limotni ishlab chikdi. O‘rta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi. «Har bir inson, — deydi Forobiy, — o‘z tabiatи b-n shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga krita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»¹. Shaharlar, uning fikricha, insonlarning jamoa bo‘lib uyushishining oliy shakli bo‘lib, unda insoniy barkamol bo‘lib yetishishi uchun zaruriy sharoitlar bo‘ladi. Forobiy insonlar tabiiy ehtiyoj natijasida o‘zaro birlashib, jamoani tashkil qilganligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy shahar davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar xalqini baxt saodatga eltishi, uning boshlig‘i esa adolatli, yuksak axloqli va ma’rifatli, o‘zida

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/forobiy-uz/>

butun ijobiylar xislatlarni to‘plagan bo‘lishi lozim. Lekin, shunday shahar yoki mamlakatlar bo‘ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri zikri boylik to‘plash bo‘ladi. Forobiy bunday shaharlarni johil shaxarlar deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to‘plashga ruju qo‘ygan bo‘ladi. «Ulardan chiqqan rahbar ham, — deb ta’kidlaydi alloma, — rahbarlikni moldunyo ko‘paytirishda deb biladi. Shuning uchun ham ular ertayukech moldunyo to‘plash harakatida bo‘ladi. Bunday rahbarlarning qo‘l ostida bo‘lgan shahar xalqida har turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizojanjallar paydo bo‘ladi».¹ Farobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergen va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Farobiylar o‘zining ijtimoiy falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddaolarini o‘rganishni, axloqiy kamolot va baxt saodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi.

Adolatli davlat va fozil jamiyatping o‘zaro bog‘liqligi, siyosiy hokimiyat masalalari G‘azzoliy, Nizomulmulk (XI asr) asarlarida ham qalamga olingan. Imam G‘azzoliyning „Kimyoi saodat“ asarida davlat rahbari jamiyatning yuragi, odamlarning dono va diyonatli rahbar atrofida uyushishi Haq taolo xohishiga muvofiq, degan g‘oya ifodalangan.

Ammo, Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiy-Nizomulmulk (1018—1092) o‘zining „Siyosatnama“ („Siyar ul-muluk“), „Dastur-ul-vuzaro“, „Qonun ul-mulk“ kabi asarlarida adolat, insof, to‘g‘rilik va halollik kabi axloqiy kategoriyalarga urg‘u bergen bo‘lsada, siyosat hodisasini real hayot bilan bog‘lab talqin etgan hamda markazlashgan kuchli davlat g‘oyasini qat’iy himoya qilgan. Shohning jasur, dono, tadbirkor va qat’iyatli bo‘lishi g‘oyasini ilgari surgan. Davlatni idora qilishda amaldorlar katta o‘rin tutishlarini, ularni tanlash va joy-joyiga qo‘yishga o‘ziga xos talab darajasida qaragan. „Siyosatnama“da amaldorlarni tarbiyalash, himoyalash va

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/forobiy-uz/>

zarur bo‘lsa, jazolash bilan bog‘liq bo‘lgan tavsiyalar berilganki, bu hol siyosatchi va davlat rahbarlarining e’tiborini jalb etadi.

Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibi Ahmad al-Beruniydan (973—1048) ilm- fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalar, turli hajmdagi asarlar, yozishmalar qolganligi ma’lum. Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan asarlari orasida „Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya“ („Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“) va „Hindiston“ asarlari¹ ayniqsa mashhurdir.

Mutafakkir davlat va huquqning paydo bo‘lishi, ularning vazifalari masalalarini Forobiy kabi ehtiyojga bog‘lab, ma’rifatli shoh boshqaruvi g‘oyasini ilgari suradi, ijtimoiy hayotni o‘ziga xos „shartnoma“ning natijasi deb biladi.

Beruniy fikricha, idora qilish va boshqarishning mohiyati boshliqning zolimlardap aziyat chekkanlar huquqlaripi himoya qilishi, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligiii yo‘qotishidir deb biladi. Qolaversa jamiyatni boshqaruvchi shaxs qat’iyatli, ma’rifatparvar, yangilikka intiluvchi bo‘lmog‘i, oliv va quyi tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik,adolat o‘rnata olishi lozim. Har qanday nizo-janjallar, toj-taxt talashish, zo‘ravonlik, bosqinchilik harakatlariga qarshi turgan Beruniy, davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini olib borish g‘oyasini ilgari surgan.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980—1037) ham qomusiy olim bo‘lib, umumiy asarlari soni 450 dan ortiq, lekin bizgacha faqat 160 taga yaqini yetib kelgan. Jahonda „Shayx ur-rais“, ya’ni „Olimlar boshlig‘i“, „Tabiblar podshohi“ nomlari bilan ulug‘langan bu olimning „Kitob al-qonun fit-tibb“ („Tib qonunlari“) asari XII asrdan boshlab Yevropada lotip tiliga tarjima qilingan va 30 martadan ortiq nashr qilingan². U ham Forobiy kabi haqiqiy ideal jamoaga mavjud dunyoda eriishsh mumkin, jamiyat a’zolari o‘zaro kelishuv asosida qabul qilinadiganadolatl qonunlarga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti

¹ <http://ferlibrary.uz/abu-rayon-beruniy-muhammad-ibn-a>

² <http://ferlibrary.uz/abu-ali-ibn-sino>

podshoping o‘zi adolatsizlikka yo‘l qo‘ysa, xalqning unga qarshi qo‘zg‘oloni to‘g‘ri va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmog‘i lozim deb bilgan.

Alloma jamiyatda kambag‘allar soni ko‘payishiga qarshi chiqib, odamlarni bir-biriga o‘zaro yordam ko‘rsatishga, hamjihatlikka da’vat etadi. Xalqlar va davlatlar o‘rtasida tinchlik bo‘lishi ma’rifatparvar shoh boshqaruvi, ilm-fan ravnaq topishini orzu qiladi.

O‘zligimizni anglash, milliy an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ulug‘vor ishlarda xalqimizga ma’naviy kuch bag‘ishlab kelayotgan ulug‘ siymolardan biri Amir Temurdir.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari davlat mansablari, davlat xizmati, ularni tashkil qilish, ular o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni yuridik jihatdan tartibga solishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan¹. Shuning uchun u bugungi kunda ham fuqarolarning, hatto rahbarlarning ma’naviy yuksalishda muhim o‘rin egallaydi.

Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior Amir Temur sultanating barcha hududlarida axloqiy-ma’naviy mezonga aylangan. Ulug‘ ajdodimiz o‘z tuzuklarida “...amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech nima olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan bergenini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar”,² deb yozadi. Ana shundayadolat asosida o‘rnatilgan tartib-taomillar mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni ta’milagan, odamlarni halol mehnat qilishga, tadbirkorlik, yaratuvchanlik ruhi bilan yashashga undagan.

“Tuzuklar”da fuqaro manfaati oldingi o‘ringa olib chiqilgan. El-yurt va xalq manfaati, inson huquqlarini himoya qiluvchi «Tuzuklar»ni tahlil etar ekanmiz, buning guvohi bo‘lamiz:

1.Kasbu hunar va ma’rifat ahllariga saltanat korxonalaridan yumush berilsin.

¹ <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/212-temur-tuzuklari.html>

² <http://uzmarkaz.uz/uzc/news/sohibqiron-amir-temur-1336-1405--tavalludining-684-jilligiga>

2. Bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar.

3. Sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin.

4. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishiga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asboblar tayyorlab berilsin.

5. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib berib, unga yordam berilsin.

6. Har bir toifa va har jamoadan kimki o‘z ixtiyori bilan sipohgarchilik xizmatiga kirishni istasa, uni askarlikka olsinlar.¹

Buyuk bobokalonimiz Amir Temurdan meros qadriyatlar qondan qonga o‘tib, avlodlar tiynatida yashayveradi. Bugun ham Sohibqironning mardlik, jasorat, adolat, tadbirkorlik, vatanparvarlikka yo‘g‘rilgan ezgu fazilatlari mamlakatmizda yuritayotgan ijtimoiy siyosatda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Amir Tsmur pa temuriylar davri (1370—1501) siyosiy- huquqii qarashlaripi tahlil etishda buyuk faylasuf shoir Alisher Nanoiy (1441 — 1501) merosi alohida ahamiyatga ega. U davlatni xalq manfaatlarini ko‘zlovchi, xalq orzularini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblarini xalq xiematchilariga aylantirishga tirishdi va bu ishda uning o‘zi namuna bo‘ldi. U davlat ishlarini intizomga solishga, hukumat idora- larini, saroyni yaramaslardan, xalq hisobiga zarbof to‘n kiyuvchi, ayshu ishrat qiluvchi ifoslardan, amalparastlardan, fitnachilardan tozalash, ularni fosh etish, qamchilash uchun qo‘lidan kelganicha harakat qildi. Podsho va lashkar, podsho va boshqaruv tizimi xalqning osoyishta hayot ks chirishiga kafil, deydi Navoiy. Odamlar bilim va amaliy faoliyat, zehnu zakovatda bir emas, deydi u. Birov aqli, birov o‘ta aqli, kimningdir aqli kam, birov esa johil. Chunki har bir kishida Ollohning bir sifati aks etadi, sifatlar esa turlich, „ikki sifat birday“ emas. Shunday bo‘lgach, axloq nuqtai nazaridan ham odamlarni teng bir holga keltirib bo‘lmaydi. Demak, ularning mol-mulki teng bo‘lishi

¹ <https://zarnews.uz/post/amir-temur-tuzuklarida-belgilangan-olti-qoida>

amrimahol. Shu asosda Navoiy tasavvuf g‘oyalarining ezgulikka, adolatli siyosatga xizmat qiluvchi jihatlarini ko‘rsatadi.

Shoir va yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483— 1530)ning siyosiy faoliyatiga e’tibor qaratish muhim axamiyatga ega. Boburning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari uni jahonga mashhur qilgan shoh asari „Boburnoma“da bayon etilgan. Asarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonnipg XV asr ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy-iqtisodiy tarixi, muhim siyosiy voqealar mohir sarkarda va davlat arbobi nazari bilan tahlil etilgan. Asarda juda ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy masalalarga nisbatan muallifning shaxsiy nuqtai nazari o‘z ifodasini topgan.

Sharq allomalari ko‘pincha shoh va xokimlaradolatsizliklariga qarshi chiqib, mazlumlarni dadil ximoya qilganlar, haqiqat uchun kurashganlar.

2.3. Yangi va eng yangi zamondagi ijtimoiy siyosiy ta’limotlar.

Yangi va eng yangi zamondagi ijtimoiy siyosiy ta’limotlar jadallik bilan rivojlandi. Jumladan, Fransiya ma’rifatparvari Sharl Lui Monteskyo (1689— 1755) o‘zining „Qonunlar ruhi“ asarida „idora etish tarzi“ga yoki „qonunlar ruhi“ga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatib beradi. „Ko‘pgina narsalar — iqlim, din, qonun- lar, idora etish shakllari, o‘tmish saboqlari, axloq, odatlar xalqning umumiy ruhining natijasi sifatida insonlarni boshqaradi“, — deb yozadi.¹

Monteskyo hokimiyatning bo‘linish nazariyasini „aralash idora etish“ g‘oyasining davomi hisoblab, qonun ustuvorligini qayd etadi. Shu asosda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bir-birlarini to‘ldirgan holda hokimiyatni saqlab turishlari mumkin degan xulosaga keladi.

Siyosiy fikr rivoji Yevropadagi davlatlar qurilishi bilan uzviy bog‘liq holda bordi. Bu davr namoyondalari unitar mustaqil davlatning kamchiliklarini hisobga olib, siyosiy nazariyani amaliyot bilan bog‘liq holda amalga oshirishga harakat qila boshladilar. J. Medison (1751 — 1836) respublikanizmning ko‘zga ko‘ringan nazariyotchilaridan biri bo‘lib, u xalq — siyosiy hokimiyatning yagona manbai,

¹ <http://staff.tiame.uz/storage/users/413/books/kpa0YaCdebtRM4V2sARBX1N8pE2YEGFyTT2wpFL3.pdf>

saylovlari — respublikaviy idora etishning muhim xususiyati, degan qoidaga asoslanadi. U ko‘pchilik fraksiyasiga ehtiyyotkorlik bilan yondashadi, hokimiyatdan foydalaniib, ozchilikning manfaatlarini poymol etishi mumkinligi xavfining oldini olish choralariga alohida e’tibor bilan qaraydi. Ozchilikning erkinligini kafolatlash zarurligini himoya qiladi. Medison demokratiyaning vakillik orqapi idora etish shakli bilan birta liberal idora etish ham zarurligini isbotlaydi. Davlat hokimiyatining bo‘linishi, ularniig har birinipg nisbiy mustaqilligini va tengligini tan oladi. Siyosatning „Ijtimoiy konsepsiysi“ fuqarolik koniepsiyasining davomi sifatida shakllandi. U endi alohida individ — fuqaroga emas, ayrim ijtimoiy guruhga tayana boshladi. Millat, sinflar, insonlar, individlar muayyan guruhlarning, birlashmalarining mahsuli sifatida qaraladi.¹

Fransuz ma’rifatparvari J. J. Russo (1712—1778) esa siyosatda fuqarolik konsepniyasining qaz’iy ifodachisi va tadqiqotchisidir. Individlar davlatni yaratadi yoki ayni paytda individlarning o‘zi davlatning mahsulidir, degan fikrni olg‘a suradi. Russo uchta tashqi omilni quyidagicha qayd etadi: 1. Ijtimoiy tenglikni quvvatlab. mulkning jamiyat a’zolariga nisbatan tengsiz taqsimlanishiga qarshi chiqadi. 2. Siyosiy yaxlitlikni himoya qiladi. Davlatda xususiy hamkorlik bo‘lishi mumkin emas, degan g‘oyaga tayanadi. 3. U vakillik hokimiyatini qullik deb hisoblaydi. Bir so‘z bilan aytganda, Russo demokratiyaning bevosita shaklini qo‘llab-quvvatlaydi.²

Angliyalik konservator E. Berk (1729—1797) ta’limo tida tabiiy huquqlarni tan olmaslik g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Uningcha, davlat va jamiyat insonlarning ixtirosi emas, balki tabiiy rivojlanishning natijasidir.

Davlatning asosiy vazifasi tartib va qonunni saqlashdan iborat. Hokimiyatning vakillik shaklini qo‘llab chiqadi. Berk parlamentga Angliyadagi hokimiyatning haqiqiy shakli sifatida qaraydi pa uning faoliyati xalqomonidan nazorat etilishi mumkin emas deb hisoblaydi.

Yangi davrning birinchi tarixiy g‘oyasi sifatida vujudga kelgan ta’limot Liberalizm — loticha — ozod, erkin so‘elaridan kelib chiqqan bo‘lib, uning paydo

¹. <https://america-xix.ru/personalia/madison.html>

²<https://lib39.ru/events/scientists/russo.php>

bo‘lish tarixi Yevropadagi XVII—XVIII asrlarda bo‘lib o‘tgan burjua inqiloblari davriga borib taqaladi, ya’ni liberalizm feudal tartiblar va xristian cherkovi hukumronligiga qarshi olib borilgan kurashlar jarayonida siyosiy ta’limot sifatida shakllangan. Liberalizm ta’limotining asoschilari angliyalik Djon Lokk (1632—1704) va Adam Smit (1723—1790) hamda amerikalik Tomas Djefferson (1743—1826) lardir.

XIX asrda liberalizm Angliyada kuchli rivojlandi. Uning rivojiga bu yerda Mill’ (1806—1873), Gerbet Spenser (1820—1903), keyinroq esa Djon Keyns (1883—1946) lar katta hissa qo‘shdilar. Bu ta’limot taraqqiyoti XX asrda „yangi liberalizm“ konnepsiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Liberalizmning ijtimoiy fikr va siesiy oqim sifatida asosiy principlari inson erkinligi va ozodligi bo‘lib, liberalizmning asosiy qadriyatidir. Uning boshqa barcha prinsiplari mana shu asosiy qadriyatdan kelib chiqqan va bular qatoriga quyidagilarni kiritish lozim: — inson o‘z erkinligiga tayanib jamiyatda hayotiy maqsadlarini belgilash va faoliyat yo‘nalishini tanlash huquqiga ega; — u o‘z faoliyatining natijalari uchun, farovonligi va ijtimoiy ahvoli uchun o‘zi mas’uldir. Liberalizm insonning individual erkinligini uning avvalo siyosiy erkinligi va tabiiy huquqpari bilan uyg‘un holda tushunadi. Bunda insonning xususiy mulkka egalik qilish huquqiga alohida e’tibor beriladi. Demak, individual erkinlik avvalo xususiy mulk egasining erkinligi bilan uzviy bog‘liqpikda tushuniladi. Xullas, liberapizmning asosiy ideali teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan fuqarolarning jamiyatidirki, undagi har bir inson, agar mehnatsevar va aqli ekan, hayotda muvaffaqiyatlarga hamda ijtimoiy tan olinishga, ya’ni hurmatga erishishi mumkin. Inson erkinligi, ozodligi prinsipiga tayangan liberalizm hozirgi zamonaviy demokratiyaning g‘oyalari, me’yorlarini yaratishda katta rol o‘ynadi. Bu yerda gap barcha insonlarning qonun oldidagi tengligi; har bir insonning asosiy erkinliklardan (vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, assotsiatsiya va partiylar tuzish erkinligi) foydalanish huquqini tan olish; o‘zgacha fikrga nisbatan sabr-toqat; ozchilik huquqlarining tan olinishi to‘g‘risida bormoqda. Nihoyat, zamonaviy demokratiyadagi huquqiy davlat nazariyasi ham liberalizm mahsulidir,

ya’ni jamiyatni boshqaruvchi barcha tizim xalqning nazorati ostida ishlamog‘i kerak.¹

Yangi va eng yangi davrning yana bir ijtimoiy siyosiy g‘oyasi- Konservatizm ijtimoiy-siyosiy tafakkur ko‘rinishi sifatida 1789—1791 yillardagi Buyuk fransuz inqilobining natijalari va tajribalarining tanqidiy baholari sifatida shakllandi. Ta’limotning asoschisi angliyalik mutafakkir Edmund Berkdir (1729—1797). Shunga ko‘ra, klassik konservatizmni Angliyada vujudga kelgan deyish mumkin. E. Berk 1770 yil yozgan „Fransiyadagi inqilob to‘g‘risida o‘ylar“ asarida erkinlik konsepsiyasini himoya qildi, hatto bunga liberallar ham tan berishdi. Biroq, Berk fikricha, jamiyat hayotida yaxshi natjalarga inqilob orqali emas, balki ijtimoiy-siyosiy institutlarning evolyusion taraqqiyoti orqali erishiladi. XX asrda angliyalik faylasuf Karl Popper konserva- tizmning yirik nazariyotchisi sifatida tanildi. Konservatizmning asosiy qadriyatları tarix, hayot, qonun, tartib, iptizom, ijtimoiy barqarorlik, an'analar, oila, millat, davlat, jamiyat, hokimiyat, ierarxiya va dindir. Ijtimoiy konservatizmning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat: — insoniyatning qadimiy axloqiy an'analarini saqlab qolish; — qadriyatlar yoki ijtimoiy institutlarni radikal inkor qg‘glishga nisbatan shubhali munosabat; — jamiyatni o‘z ichki hayoti va juda mo‘rt tuzilishga ega bo‘lgan ma’naviy reallik, borliq sifatida idrok etish; — jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunish va uni mashinaga o‘xshab qayta qurish mumkin emasligiga ishonish. Konservatizmning asosiy qoidasi shundan iboratki, go‘yo inson ongi, tafakkuri imkoniyatlari cheklanganligi bois, u ijtimoiy jarayonlarning mohiyat va maqsadini to‘liq anglashga ojizdir. Ijtimoiy jarayonlar, konservatizm tarafdarlarining fikricha, odamlar taqdirini belgilovchi oliy ilohiy kuch (Yaratuvchi) tomonidan boshqariladi. Biroq, inson onggi ham Yaratuvchi bilan birgalikda bu boshqaruvda ishtirok etadi. Real ijtimoiy jarayon esa ijtimoiy institutlar va qadriyatlarda ifodalangan tajriba va xatolar natijasidir. Bu real ijtimoiy jarayonlarni inson ongli ravishda o‘ylab topmagan va amalga oshirmagan, shu bois uni radikal tarzda o‘zgartirish huquqiga ham ega emas.

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-l/liberalizm-uz/>.

Neokonservatorlar iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlari tarafdori bo‘lib, shu ma’noda ular liberalistlar bilan hamfikrdirlar. Biroq siyosiy qarorlar u yoki bu individ, guruh manfaatini o‘ylab emas, balki millatning mushtarak, umumiyligining mafaatlarini ko‘zlab qabul qilinmog‘i kerak, deya hisoblaydilar konservatorlar.¹

Mamlakatimiz xududida XIX asr ikkinchi yarmida ijtimoiy siyosiy qarashlarning rivojlanishiga Axmad Donish ijodining katta ta’siri bo‘ldi. Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla deb nom qozongan Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy Buxoro amirligida XIX asrning o‘rtalarida yashab ijod etgan, ilg‘or fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafaxkir, ma’rifatparvardir. U 1827 yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Shu yerdagi maktab va madrasalarda bilim olib, o‘z davrining ilg‘or olimi va mutafakkiri darajasiga ko‘tarildi. “Navodir ul-vaqoe” kitobi Ahmad Donishning asosiy asari hisoblanib, unda olim o‘zining turli masalalarga munosabatini ifodalagandir. Asarda Ahmad Donish ijtimoiy taraqqiyotga g‘ov bo‘lib qolgan feodal ijtimoiy-siyosiy tuzum, tartib va munosabatlarni tanqid ostiga oladi. Buxoro amirligini Yevropa mamlakatlari, xususan Rossiya bilan taqqoslab, Donish o‘z vatanini iqtisodiy va madaniy jihatdan orqada qolganligini ko‘rsatib beradi va bu qoloqlikdan chiqish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlar qilish zarurligini uqtiradi.²

Tarixga XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rosiyasi qo‘l ostida bo‘lgan Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Bu islohotchilik harakati tarixga «jadidchilik», uning vakillari esa «jadidlar» nomi bilan kirdi.

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab ola bilgan ijtimoiy harakat edi. „Jadid“ so‘zining ma’nosi „yangi“ demakdir. U shunchaki „yangi“, „yangilik“ tarafdori“ degani emas, balki „yangi tafakkur“, „yangi inson“, „yangi avlod“ singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan.

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konservativizm-uz/>.

² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/ahmad-donish-uz/>

Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramaturgiyasini boshlab bergen birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist Mahmudxo‘ja Behbudiy tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o‘lkani zabit etgan Rusiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotta boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Behbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo‘ldi.

Lekin millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi.

Behbudiyning qarashlarida milliy qadriyatlargacha bo‘lgan ixlos va ayni paytda Yevropa dunyosining tarixi, madaniyati, ta’lim tizimi, davlat qurilishi sohasidagi tajribalarini o‘rganishga e’tibor katta o‘rin tutgan. Shuningdek, Bs’hbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalari bilan teng aralasha oladi, degan fikrni ilgari surib, tarixga alohida e’tibor berdi.¹

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ijtimoiy siyosiy qarashlarning uzoq tarixga egaligidan dalolat beradi. Bu bilimlarni chuqur o‘rganish aqidaparastlikning va siyosat dunyosida biryoqlamalikka berilishning oldini oladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Dastlabki ijtimoiy siyosiy fikr, Kanfutsiy, Platon, Aristotel, sitseron, Zardushtiylik, Islom, A.Avgustin, F.Akvinskiy, V.Okkam, Uyg‘onish, Reformatsiya, N.Makiavelli, Farobi, A.Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, A.Navoiy,

¹ <https://arboblar.uz/uzkr/people/bekhbudi-makhmudkhodzha>.

Monteske, J.Medison, J.J.Russo, E.Berk, Liberalizm, Konservativizm, Axmad Donish, M.Bexbudiy.

Nazorat uchun savollar:

1. Dastlabki ijtimoiy siyosiy fikr nimalarda ifodalangan?
2. Kanfutsiy ijtimoiy siyosiy qarashlarining moxiyati nimada?
3. Platon, Aristotel, sitseron ijtimoiy siyosiy qarashlarini taxlil qilib bering?
4. Uyg'onish, Reformatsiya tushunchalarining mazmun moxiyati nimada?
5. O'rta asr Sharq mutafakkirlari ijtimoiy siyosiy qarashlarining moxiyatini tushuntiring?
6. Yangi davr Yevropa allomalari ijtimoiy siyosiy qarashlarining moxiyati nimada?
7. Liberalizm, Konservativizm g'oyalarining moxiyati nimada?
8. Axmad Donish, M.Bexbudiy ijtimoiy siyosiy qarashlarining moxiyati nimada?

3-mavzu: AHOLI DAROMADLARINI OShIRISHDA OYLIK ISh HAQINING O'RNI.

Reja:

- 3.1. Mexnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy moxiyati va uning turlari.
- 3.2. Mexnat va oylik ish haqi borasida nazariy yondashuvlar.
- 3.3. Axoli daromadlari va uning xususiyatlari.
- 3.4. O'zbekistonda axoli daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosat.

3.1. Mehnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy moxiyati va uning turlari.

Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haq, qoida tariqasida, pul shaklida to'lanadi. Mehnat haqini natura shaklida to'lash

taqiqlanadi (istisno sifatida qishloq xo‘jaligi vakillari xodimlarga mehnat haqini o‘zлari yetishtirgan va qayta ishlangan mahsulotlar bilan (natura) to‘lashi mumkin).

Mehnatga ishbay haq to‘lashda sarf etilgan vaqtidan qat’iy nazar, har bir ishlab chiqarish birligi uchun belgilangan summada haq to‘lanadi. Mehnatga vaqtbay haq to‘lashda ishlab chiqarish hajmidan qat’iy nazar, soatbay, kunlik, haftalik yoki oylik vaqt me’yori uchun haq to‘lanadi. Mehnatga uyg‘unlashgan tartib bo‘yicha haq to‘lashda har bir ishlab chiqarish birligi uchun to‘lanadigan haq miqdori belgilanadi. Shu bilan birga, ma’lum vaqt uchun kafolatlangan ish haqi tayinlanadi

Ishbay haq to‘lash shakllari:

-Oddiy ishbay shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini ishbay narxiga ko‘paytirish yo‘li bilan ish haqi miqdori aniqlanadi.

- Ishbay-mukofot shaklida bevosita ishbay narxlar bo‘yicha ish haqidan tashqari ma’lum ishlab chiqarish yutuqlariga erishilganligi uchun haq oladi.

-Ishbay-progressiv shaklida ishchilar mehnatiga belgilangan boshlang‘ich me’yor doirasida bevosita ishbay narxlar bo‘yicha, bu me’yordan ortiqchasiga esa oshirilgan narx bo‘yicha haq to‘lanadi.

-Bilvosita ishbay shakli ishbay narxlari bo‘yicha belgilanib, xizmat ko‘rsatayotgan uchastkadagi o‘rtacha ish me’yorining bajarilish foiziga ko‘paytirilishi mumkin.

- Akkord shakli butun ish hajmi uchun ish haqi miqdorini belgilaydi hamda akkord topshiriqlarni bajarish muddatlarini qisqartirganlik uchun mukofotlashni o‘z ichiga oladi.

-Ishbay akkord shakli asosan mavsumiy ishlarni hamda ayrim buyurtmalarni bajarishda qo‘llaniladi.

Vaqtbay haq to‘lash shakllari:

-Oddiy vaqtbay shaklida xodimlar ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi.

-Vaqtbay-mukofot shaklida tarif stavkalari bo‘yicha ish haqidan tashqari muayyan miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga erishganlik uchun qo‘sishma ravishda mukofot to‘lanadi.

Tarif tizimi – me’yorlar yig‘indisi, ular yordamida mehnat sharoitlari va qiyinchiliklariga, tabiiy-iqlimiylarida ishlashga, mehnat maromi va tavsifiga qarab ish haqini tabaqlashtirish ta’minlanadi.

Tarif stavkasi – ish vaqtি birligi uchun ish haqining pul shaklida ifodalangan hajmi.

Tarif setkasi – mehnatga haq to‘lashni tabaqlashtirishda qo‘llaniladigan razryadlar va ularga muvofiq koeffitsientlarni o‘z ichiga oladi.

Tarif koeffitsienti – tarif razryadlariga muvofiq belgilangan, tarif stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan ish haqini hisoblashda foydalaniladigan koefficientlar.

Tarif-malaka (yoki lavozim) ma’lumotnomasi – razryad belgilash mezoni bo‘lib, xodim malakasiga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilgan asosiy ish turlarining to‘liq tavsifnomalarini o‘z ichiga oladi.

Ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlari – tarif stavkasi miqdorida hisobga olinmagan turli omillarni inobatga olib, xodimning ish haqini individuallashtirish uchun belgilangan foiz yoki ma’lum summa ko‘rinishidagi to‘lov.

Xodimlarga ish haqi ular ishlayotgan joyda to‘lanadi.

Ish haqini taqiqlangan shakllarda to‘laganlik uchun mansabdor shaxslarga ma’muriy jarima belgilangan.

Mehnatga haq to‘lash muddatlari har yarim oyda bir martadan kam bo‘lishi mumkin emas. Qoida tariqasida har oyning 15 sanasida avans to‘lovi, keyingi oyning 5 sanasigacha oylik maosh beriladi.

Mehnatga haq to‘lash shartlari xodimning roziligi bilan yoki rozilgisiz o‘zgartirilishi mumkin.

Mehnatga haq to‘lashning shartlarini xodim uchun noqulay tomonga o‘zgartirishga uning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda xodimning rozilgisiz mehnatga haq to‘lash shartlari o‘zgartirilishi mumkin: texnologiyada, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi natijasida avvalgi shartlarini saqlab qolish mumkin bo‘lmasa; qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Bo‘lajak o‘zgartirish haqida xodim kamida 2 oy oldin ogohlantiriladi.

Xodimning mehnat haqidan ushlab qolish uning yozma roziligi bilan yoki sudning qaroriga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

Xodimning roziligesiz mehnat haqidan quyidagi hollarda ushlab qolinishi mumkin: belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish uchun; sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun; oldindan berilgan maqsadli pullar bo‘yicha hisob-kitob qilish hamda ortiqcha to‘langan summani qaytarib olish uchun; mehnat ta’tili bo‘yicha hisob-kitob qilish uchun; xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun; intizomiy jazo tariqasida tayinlangan jarimani undirish uchun.

Tabiiy-iqlim va turmush sharoitlari noqulay bo‘lgan joylarda mehnat haqiga rayon koeffitsientlari va ustamalar belgilanadi.

3.2.Mexnat va oylik ish haqi borasida nazariy yondashuvlar.

Ish haqi – yollanma xodim daromadining asosiy manbai, unga tegishli ish krbiliyatiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shakli. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to‘lanadigan haq ishlab chiqarish xarajatlarining unsurlaridan biri. Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi.

Ish haqining asosiy vazifasi ish haqining bevosita qatnashchisi bo‘lgan xodim hamda uning oila a’zolarining hayot va mehnat faoliyati sharoitlarini ta’minlashidan iborat. Qiymatning mehnat nazariyasini ish kuchini alohida, o‘ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli, bu nazariya ish haqini tovar bo‘lgan ish kuchi qiymatining o‘zgargan shakli, ya’ni uning puldagi ifodasi deb hisoblaydi va uni ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalari qiymati tarzida ta’riflaydi. Ish haqiga ish kuchi qiymatining puldagi ifodasi sifatida qarash aniq mehnat bozorida ish haqi darajasiga talab va taklif omillarining ta’sirini hisobga olmaydi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorida real ish haqining o‘rtacha darjasini yashash uchun zarur tirikchilik vositalari minimumiga qaraganda ancha yuqori darajada turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi xajmiga bir qator bozor omillari (tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va b.) va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga xaq to‘lashning muayyan darjasini vujudga keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ish haqini tashkil etish (ish haqi miqdori, mehnat miqdori va sifati bilan unga to‘lanadigan haq mikdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minalash, mehnatni me’yorlash, tarif tizimi va b.) va tartibga solishda davlat muhim rol o‘ynaydi. Ularda tarixan ish haqini tashkil etish va tartibga solishning markazlashgan davlat tizimi va markazlashmagan tizimi qaror topgan. Ish haqini tartibga solishning markazlashmagan tizimi xususiy mulk egalari yoki jamoa mulkdorlar hamda kasaba uyushmalari, aksiyadorlik jamiyatlar, kooperativlar va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ish haqini tartibga solishning davlat tizimi mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxonalar va tashkilotlar uchun umumiy va majburiydir.

Ish haqini davlat tomonidan tartibga solish va tashkil etishning muhim unsuri tarif tizimi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mamlakat bo‘yicha hukumat belgilagan, asosan ishchi va xizmatchilar Ish haqini tashkil qilishda foydalanishi uchun tavsiya etiladigan yagona tarif tizimi (setkasi) amal qiladi, korxona (tashkilotlar)lar yagona tarif setkasi asosida o‘z tarif setkasini ishlab chiqish va razryadlar sonini belgilash huquqiga ega.

O‘zbekistonda dastlab 1993 y. 1 yanvardan 28 ish haqi razryadlariga bo‘lingan va 0—28 razryadlar o‘rtasida tarif koeffitsientlari farqi 14,28 bo‘lgan yagona tarif stavkalari joriy qilindi. 1996 y. 1 sentabrda esa ish haqi razryadlari 22 ta va 0—22 ish haqi razryadlari o‘rtasida tarif koeffitsientlari farqi 5,998 bo‘lgan yangi yagona tarif setkasi qabul qilindi. Yagona tarif stavkasi xodimlarning barcha kasb-malaka guruhlari bo‘yicha tarif stavkalari va maoshlari nisbatini belgilashda mehnat tafovutlariga baho berishga yagona yondoshuvni ta’minalaydi.

Ish haqini tartibga solishning davlat tizimi 3 asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: 1) davlat tomonidan ish haqi minimumi (eng kam ish haqi mikdori)

belgilanadi. Inflyatsiya jarayonida eng kam ish haqini indeksatsiyalash hukumatning maxsus qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi; 2) korxonalarda ishlovchi xodimlarning barcha toifalari uchun o‘rtacha Ish haqining ortib borishi ma’lum darajada cheklanadi. Davlat bu usuldan tanglik holatlarida inflyatsiya sur’atlarini pasaytirishda foydalanadi; 3) Ish haqining o‘rtacha ortib borishiga karab ortib boruvchi soliq stavkalari belgilanadi. Bu eng yuqori Ish haqi darajasining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatish va uni iqtisodiy usullar bilan cheklash imkonini beradi. Yollanma xodimlar ish haqini davlat yo‘li bilan tartibga solish aholining eng kam ta’milangan qatlamlari — yoshlar, malakasiz xodimlar, mehnat qobiliyati cheklanganlar va boshqalarni ijtimoiy himoya qilishda, inflyatsiya, real ish haqining pasayishini cheklashda muhim ahamiyatga ega.

3.3.Axoli daromadlari va uning xususiyatlari.

Axoli daromadlari — barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi. Aholining jami turdag'i daromadlari manbai — ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug‘i, bank to‘lagan foiz puli, ko‘chmas mulkdan kelgan renta to‘lovi va ijara puli, sug‘urta qoplamlari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o‘zining tomorqa xo‘jaligidan ham mahsulot olib daromad ko‘radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko‘rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, dori-darmon, transport va kommunal xizmati va h. k.); bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo‘linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo‘lib, inflyatsiya ta’sirida uning xarid qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste’mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to‘lovlар (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so‘ng uning qo‘liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo‘liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta’sir etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning 2/3 qismini tashkil etadi. Agar mamlakatda xususiy mulk ustivor, renta, aholi pul jamg‘armasi ko‘p bo‘lsa, bank to‘laydigan foiz puli salmoqli bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorliqdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (nochorlarga byudjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi. Transfertlar nobozor daromadi, qolganlari bozor daromadi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistondagi aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mulk daromadi kabilalar)ning ko‘payib borishi kuzatiladi.

4.O‘zbekistonda axoli daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosat.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan jadal ijimoiy iqtisodiy islohotlarning maqsadi aholining turmush darajasini oshirishga, uning daromadlarini oshirib, turmush kechirish sifatini takomillashtirishga qaratilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan daromadlar siyosati daromad turlarini diversifikatsiyalash, tadbirkorlik faoliyati va mulkiy egalik huquqlaridan foydalanish jarayonlarini yanada erkinlashtirish orqali aholi daromadlari tarkibiy tuzilmasini optimallashtirishni rag‘batlantirmoqda. Ayniqsa, aholining o‘z bo‘sh turgan mablag‘ va resurslarini investitsiya jarayonlariga yo‘naltirish orqali daromadlarini oshirish uchun real shart-sharoitlar yaratilmoqda. Islohotlarning yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlari uzoq yillar davomida, ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar hukm surgan ma’muriy buyruqbozlik tizimining salbiy ta’siri natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etish zarurati tufayli olib borilmoqda. Aholi daromadi tarkibining yetarli darajada samarali va optimal emasligi, olib borilayotgan daromad siyosati tarkibida moliyaviy bozorlarda ishtirok uchun daromadlarni rag‘batlantirish tadbirlarining sustligi, ichki

investitsiyalarda aholi ishtiroki faol emasligi kabi muammolar shular jumlasidandir. Masalan, keyingi yillarda aholi daromadlari hajmining oshishi yaqqol namoyon bo‘lsada, bu o‘sishda investitsiyalardan olingan daromadlarning ulushi juda past. Aholining umumiylar daromadlari hajmi sezilarli darajada oshishi asosan umumiylar daromadlar tarkibida 59,6 foiz ulushga ega bo‘lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) va 32,2 foizni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelgan¹.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda aholi bo‘sh mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmining yaratilmagani, ayniqsa, qimmatli qog‘ozlar bozori, investitsiya institutlarining yetarli darajada samarali tashkil etilmagani, bir tomonidan, aholi tomonidan mulkiy va tadbirkorlik daromadini kengaytirish imkoniga ega bo‘lmaslik holatini keltirib chiqarsa, boshqa tomondan iqtisodiyotimizdagagi investitsiyalarning qo‘sishimcha ichki manbalari cheklanishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Mazkur holatlarga tanqidiy yondashgan holda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘zining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Iqtisodiyotni rivojlantirishda aholi qo‘lida to‘plangan mablag‘larni investitsiya shaklida harakatga keltirish, odamlarda tadbirkorlik hissini kuchaytirish muhim vazifalarimizdan biridir” 2 deb alohida ta’kidlab o‘tdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan daromad siyosati orqali ichki investitsiyalarda aholi ishtirokini faollashtirish yo‘nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Aholi umumiylar daromadlari tarkibida bozor daromadlarining ulushi deyarli 40 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, bir tomonidan, mamlakatimizda tadbirkorlik va mehnat faoliyati erkinligining oshib borishi, boshqa tomondan esa, daromadlar diversifikasiyasini natijasida uning an‘anaviy turlari qatoriga yangi turlarining kirib kelishi orqali izohlanadi. Biroq o‘z o‘rnida ta’kidlash zarurki, ayrim daromad

¹ O‘zbekistonda aholi o‘rta hisobda qancha daromad oladi? - <http://uza.uz/uz/society/o-zbekistonda-o-rta-hisobda-aholi-qancha-daromad-oladi-16-04-2018>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Xalq so‘zi, 2018 yil 23 dekabr

turlarining salmog‘i hali jahon amaliyotida tarkib topgan o‘rtacha darajadan sezilaricha ortda qolmoqda. Masalan, mol-mulkdan olingan daromadlar jami daromadlarning atigi 4,2 foizini tashkil etishi hali oldimizda o‘rta mulkdorlar qatlamini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida muhim ishlarni amalga oshirish vazifasi turganligidan dalolat beradi.

Mamlakatdagi ichki investitsiyalarda aholi ishtirokini faollashtirish daromad siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanishi zarur. Fikrimizcha, aholi mablag‘larini iqtisodiyotdagi turli investitsiya ob’ektlariga yo‘naltirish va shu orqali uning daromadlarini oshirish bo‘yicha sezilarli natijaga erishish uchun tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, xususan, mazkur jarayonlarning maqsadga muvofiq tarzda borishini ta’minlovchi ta’sirchan mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir e’tiborli jihat – aholi o‘z daromadlaridan investitsiya tavsifidagi yo‘nalishlarda foydalanish hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu borada o‘ta yuqori notekislikni kuzatish mumkin. Bu holat chora-tadbirlarni kuchaytirish, mahalliy hokimiyat organlari va boshqa mutassadi idoralarning bu boradagi hududiy dasturlarini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olshanda, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta’minalash aholi real daromadlarini oshirishga yo‘naltirilgan daromadlar siyosati bilan uzviy bog‘liq. Keyingi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari ta’sirida aholi umumiylarini daromadlari tarkiban o‘zgarib, sifat jihatidan takomillashib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik va mol-mulkdan olingan daromadlar ulushini sezilarli ravishda oshirishga o‘rta mulkdorlar qatlamini tarkib toptirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalarni hal etish orqali erishish mumkin. Aholi daromadlari tarkibiy tuzilishining hozirgi holati mamlakatimizda aholi daromadlari siyosatida barqaror va muhim daromad manbai bilan birga uning mamlakat iqtisodiyotidagi ijobjiy o‘zgarishlardan manfaatdorligini ta’minalashga yo‘naltirilgan jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Aholi mablag‘larini iqtisodiyotdagi turli investitsiya ob’ektlariga yo‘naltirish va shu orqali uning daromadlarini oshirish

bo‘yicha sezilarli natijaga erishish uchun mazkur jarayonlarning maqsadga muvofiq tarzda borishini ta’minlovchi ta’sirchan mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Aholi o‘z daromadlaridan investitsiya tavsifidagi yo‘nalishlarda foydalanish hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu borada o‘ta yuqori notekislik mavjud. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun aholi mablag‘larining ichki investitsiya manbai sifatida yo‘naltirilishini ta’minlovchi hudud bilan bog‘liq chora-tadbirlarni kuchaytirish, mahalliy hokimiyat organlari va boshqa mutassadi idoralar tomonidan hududiy dasturlarni ishlab chiqish va izchil amalga oshirish zarur. Aholi daromadlari siyosatini mamlakat bo‘yicha yaxlit holda, shuningdek hududlar bo‘yicha alohida holda olib borishda ichki investitsiya resurslari sifatida qo‘srimcha daromad keltirish tavsifiga ega turlariga ustuvorlik berish hamda ularni rag‘batlantirishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish pirovardida aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga sezilarlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

axoli daromadlari, ish haqi, ish haqining asosiy vazifasi, ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlari, ishbay haq to‘lash, vaqtbay haq to‘lash, mehnatga haq to‘lash, ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlari, real daromad, yollanma xodimlar

Nazorat uchun savollar:

- 1. Mexnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy moxiyati taxlil qilib bering ?**
- 2.Ish haqining qanday ko‘rinishlari mavjud ?**
- 3.Ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlari nimalarda ifodalanadi ?**
- 4.Mexnat va oylik ish haqi borasida qanday nazariy yondashuvlar mavjud ?**
- 5.Axoli daromadlari nimalardan iborat ?**
- 6.O‘zbekistonda axoli daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosatning asosiy moxiyati nimalarda ifodalanadi ?**

4-mavzu: IJTIMOIY XIZMATLAR

Reja:

- 4.1. Axoliga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning moxiyati va tamoyillari.
- 4.2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi.
- 4.3. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari.
- 4.4. Axoliga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takominlashtirish yo'llari.
- .

4.1. Axoliga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning moxiyati va tamoyillari.

Ijtimoiy xizmatlar deganda fuqarolarning barcha ijtimoiy huquq, manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektorlari tomonidan pullik, qisman pullik yoki beg'araz ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasiga aytildi. Ijtimoiy xizmatlar aholi barcha qatlamlarining munosib turmush tarzini ta'minlash, inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmat, avvalo, talab va taklifdan kelib chiqadi. Ijtimoiy xizmatga talabning ko'pligi xizmatlar bozorida yangi sub'ektlarning vujudga kelishiga olib keladi. Ular bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib, o'zi ko'rsatadigan ijtimoiy xizmatlarini pullik yoki bepullik asosida tashkil etishi mumkin. Masalan, turli chiqindilarni olib ketish, kimyoviy tozalash ishlari, uylarda turli hashoratlarga qarshi dizenfeksiya qilish va boshqa yumushlar xususiy sektor vakillari tomonidan pullik xizmat asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy xizmatlar bozorida davlat organlariga raqobatchilarining vujudga kelishi, sifat va miqdor o'zarishiga olib keladi. Natijada, ijtimoiy sohadagi davlat organlarining ba'zi vakolatlari nodavlat sektoriga o'tishi kuzatiladi. Ammo, muhim ahamiyatiga molik bo'lgan fantaziyalar, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, san'at kabi ijtimoiy sohalarni davlatning o'zi boshqaradi. Xususiy va nodavlat sektori ushbu sohalarda davlatga ko'makdosh vazifasini bajaradi.

Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmat va ta'minot masalasi judayam muhim hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar tushunchasiga aniqlik kiritishda quyidagi omillarni inobatga olish kerak deb o'ylaymiz:

- ijtimoiy xizmatlarning jamiyat manfaatlariga qaratilganligi;
- ijtimoiy xizmatlar bozorining shakllanganligi;

- ijtimoiy xizmatlar turlarini erkin tanlash imkoniyatining mavjudligi;
- ijtimoiy xizmatlarni vujudga kelishi hududlarning xususiyatlariga bog'liqligi;
- ijtimoiy xizmatlar turlarining ko'payishi iste'molchilarning talablari asosida amalga oshishi;
- ijtimoiy xizmatlar jamiyatida inson kapitalining rivojlanishiga ko'maklashishi;
- ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirishda sub'ektlar orasida ijtimoiy kapitalning mustahkamlashi va hokazolar.

Ijtimoiy xizmat keng jamoatchilik orasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, u ochiqlik, shaffoflik, oshkorlik tamoyillariga tayanadi. Ijtimoiy xizmatni davlat boshqaruvi organlari, tadbirkorlar, yuridik, jismoniy shaxslar va nodavlat sektori amalga oshiradi.

Ijtimoiy xizmatlar atamasi XX asrning 70 yillarida Dj.Zingelmann tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, ushbu atama hanuzgacha turli iboralar yordamida talqin qilinmoqda. Masalan, ijtimoiy xizmatlar tushunchasi – ijtimoiy servis, ijtimoiy farovonlik, ommaviy farovonlik, meritor farovonlik, davlat, munitsipal va byudjet xizmatlari tushunchalari bilan parallel holda ishlatalmoqda .

Ijtimoiy xizmatlar sohasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat organlaridan ba'zi ijtimoiy xizmatlarni nodavlat sektoriga o'tkazilishiga doir ko'plab tajribalar to'plangan. Masalaning muhim jihatlaridan biri, ijtimoiy xizmat taklif etayotgan barcha sub'ektlar aholining yordamga muhtoj qatlamiciga yo'naltirilishi qonun hujjatlarida qat'iy belgilab qo'yilgan.

4. 2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadigan sub'ektlar haqida to'liq tassavvur qilish hamda ularning faoliyati, ma'suliyati chegarasiga ilmiy jihatdan aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Buning uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatini tahlil qilish darkor. Birinchi navbatda, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat va uning

vakolatli organlarining xizmati eng asosiy tamoyil hisoblanadi.

Davlat xizmati bu - davlat organlarining vakolatlari bajarilishini ta'minlash bo'yicha kasbiy faoliyat. Davlat xizmati tushunchasining mazmun- mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu bilan birga fuqarolar faolligi, ularning ijtimoiy foydali mehnat faoliyati turlari to'g'risidagi fikrlarini tizimlashtirish talab etiladi. Ijtimoiy, siyosiy, yuridik adabiyotlarda, davlat ijtimoiy xizmatlari aholining yordamga muhtoj qatlami, ijtimoiy guruhlarga qaratilgan xattiharakatlar majmui sifatida ta'rif berilgan va ular shartli ravishda bir necha guruhlarga ajiratilgan. Insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri – bu xizmatdir. Bu tushuncha turli ma'nolarda: insonning faoliyat turi, ijtimoiy-huquqiy institut, davlat organlarining maxsus tizimi ma'nosida ishlatalishi mumkin. Xizmat – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta'minlashdan, aholiga ijtimoiymadaniy xizmat ko'rsatishdan iborat. Shunday qilib, "davlat xizmatchilari" tushunchasi hokimiyatning markaziy va mahalliy organlarida xizmat qiluvchi barcha kishilarni birlashtiradi. Huddi boshqa mamlakatlarda (va binobarin boshqa tillarda) bo'lganidek,

davlat xizmati rasman "ijtimoiy xizmat" deb ataladi.¹

Iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy xizmatlar iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari va iste'molchilar o'rtasida amalga oshiriladi. Tadbirkorlar tomonidan bozor kon'yunkturasi, iste'molchilar talabi o'rganiladi va tahlil qilinadi. Ijtimoiy xizmatlarni taklif etmoqchi bo'lgan sub'ekt uchun xizmatlar bozorda talabning va yangi ishni yo'lga qo'yish uchun moliyaviy imkoniyatlarining mavjudligi mutanosib bo'lganda amalga oshirishi mumkin. Ular taklif etayotgan ijtimoiy xizmatlardan foydalanganliklari uchun pul to'lashga qodir bo'lgan aholining barcha qatlamlari foydalanishi mumkin. Asosiy maqsad daromad topish bo'lgani uchun muayyan qatlam asosiy xizmat ko'rsatish toyifasi sifatida qat'iy belgilanmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat bitta me'zon, ya'ni ijtimoiy xizmatlarga talabgorning pul to'lash imkoniyatining mavjudligi muhimdir.

¹ Davlat xizmati : O'quv qo'llanma / E. T. Xojiev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova. – Toshkent: Baktria press, 2015. –B. 103.

Asrimizning boshlarida ko‘pgina rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida xizmatlar turlari, ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyati tubdan o‘zgardi. Nazaryotchilar ijtimoiy xizmatlar rivojlanishini 3 davrga bo‘ladi:

1. Postindustrial jamiyat;
2. Industrial jamiyat;
3. Industrial jamiyatga o‘tish davri.

Ushbu jamiyatlarda moddiy ne’matlarni ishlab chiqishning 3 sektorli modeli asosiga tayaniladi. Birinchi sektor – moddiy ne’matlarni yaratishning barcha zaruriy chora-tadbirlarini ko‘radi. Ikkinchchi sektor – moddiy ne’matlarni yaratadi. Uchinchi sektor – faqat xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘illanadi.

Odatda ijtimoiy xizmatlar bozorini shakllantirishda davlat, xususiy va nodavlat sektori vakillari tomonidan potensial iste’molchilar guruhini aniqlaydi. Sub’ektlarning barcha sarmoyalari va faoliyati iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarga sarflanadi. Natijada, ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy yordam va o‘ziga-o‘zi yordam ko‘rsatish shakllari rivojlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda nodavlat tashkilotlar davlatga ko‘makdoshdir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, nodavlat tashkilotlar faoliyatining asosi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga qurilgan. Ular jamiyatda yuz beradigan turli krizis vaziyalarda (tabiiy ofatlar, suv toshqinlari, yer qimirlashi, epedemiya tarqalishi) birinchilardan bo‘lib aholiga xizmat ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mana shunday vaziyatlarda qanday qilib omon qolish, tabiiy ofatlardan saqlanish yo‘l-riqlari, sirlari va texnologiyalarini aholiga o‘rgatadi. Masalan, Yaponiyada ko‘plab NNTlar zilzila paytida qanday qilib omon qolish kerakligini oliy o‘quv yurtlarida, maktablarda aholiga, talabalar, yosh bolalarga o‘rgatadi. Singapur va Malayziyaning chekka qishloqlarida mahalliy va xorijiy NNTlar hamkorlikda aholiga qanday qilib tozalikka rioya qilish, sog‘lik va salomatlikni saqlash, tibbiy,

shaxsiy gigienaga rioya qilish, atrof-muhitni, uyini toza tutish zarurligini tushuntirish ishlari bilan shug‘illanadi.

Rivojlangan davlatlarda ular fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqalsh, kasbhunarga o‘rgatish, dam olish, hordiq chiqarish sohalarida servis xizmatlarini yaxshilash maqsadida aholining turli qatlamilarini o‘qitadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, NNTlar tomonidan aholining keng qatlamiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar bepul va beg‘arazliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli NNTlar aholi orasida ommalashib bormoqda.

4.3. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning maqomi, vazifalari, funksiyalari va ularga qo‘yiladigan malakaviy talablar mamlakatimiz qonun va qonun osti xujjalarda belgilab berilgan. Unga muvofiq ijtimoiy xodim — ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi zarur kasbiy malakaga ega bo‘lgan shaxs sifatida tariflanadi.¹

Ijtimoiy xizmat deganda esa — shaxsnинг turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo‘lgan imkoniyatlarini yaratishga va (yoki) o‘zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minalash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xizmatlarga muhtoj shaxsga yordam ko‘rsatish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta’limga oid, tibbiy, reabilitatsiya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar majmui tushiniladi.²

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari — qonun hujjalarda belgilangan tartibda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj deb topilgan shaxslar, shu jumladan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashovchi keksalar, I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar hisoblanadi va ularga ijtimoiy xodimlar xizmat ko‘rsatadi.

¹ <https://lex.uz/docs/4856349>

² O‘sha joyda

Ijtimoiy xodimlarning mehnatiga haq to‘lash, lavozim maoshlariga qo‘shimchalar va ustamalar, shuningdek, mukofotlar va boshqa barcha turdag'i to‘lovlari ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilgan lokal hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xodimning quyidagi lavozimlari mavjud:

- barcha sohalarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bo‘yicha mutaxassis;
- barcha sohalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodim;
- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashovchi keksalarga, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodim assistenti.

Barcha sohalarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bo‘yicha mutaxassis quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar jarayonini boshqarish hamda ijtimoiy vaziyatlar bo‘yicha ishlarni yuritish;
- turmush sharoitini kompleks baholash, ijtimoiy xizmatlar rejasini ishlab chiqish, ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtirish, monitoringini amalga oshirish va natijasini baholash;
- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish hamda ularga ijtimoiy yordam berishning optimal shakllarini aniqlash va qo‘llash;
- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini kompleks ijtimoiy himoya qilinishini tashkillashtirish;
- o‘z ish faoliyatida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning ilmiy asosli yondashuvlarini qo‘llash;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsiy, ijtimoiy, va ma’naviy xarakterga ega bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda ko‘maklashish;
- huquqiy, profilaktik, rehabilitatsion va terapeutik xususiyatga ega psixoiijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga og‘ir turmush sharoitidan chiqishga ko‘maklashish;

-aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga o‘zlarining hayotiy vaziyatini yaxshilashi uchun shaxsiy imkoniyatlaridan keng foydalanishiga yordam berish;

-aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilishda barcha mavjud vositalardan samarali foydalanish.

Barcha sohalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodim ish beruvchi tashkilotda tashkil etilgan shtat birligiga asosan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

-ijtimoiy xizmatlar sohasidagi organlar va tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish;

-ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqqan holda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini kompleks ijtimoiy himoyasini ta’minlash;

-yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lish xavfida bo‘lgan bolalar, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, psixojismoniy rivojlanishida nuqsoni va (yoki) nogironligi bo‘lgan va boshqa himoyaga muhtoj bolalarni himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning shaxsiy, mulkiy va nomulkiy huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-davlat ta’lim-tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, ijtimoiy himoya muassasalarini bitirayotgan bolalar, shuningdek uyushmagan yoshlarning mustaqil hayotga ijtimoiy moslashuvlari davomida yuzaga keluvchi muammolarini hal etish choralarini ko‘rish.

Asosiysi, ijtimoiy xizmatlar xodimlari o‘z mexnatlari bilan ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan shaxsning turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo‘lgan imkoniyatlarini yaratishga va (yoki) o‘zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga shart-sharoitlar yaratib beradilar.

4.4.Axoliga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni takominlashtirish yo‘llari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar mazmun-mohiyati bilan insonni ulug'lashga, uning sha'ni, qadr-qimmatini oshirishga va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan qimmatlidir.

Zero, Asosiy Qonunimizning 13-14-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ayniqsa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi bo'lmish nogironlarga hayotda teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Shu maqsadda 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"¹gi Qonuning qabul qilinishi nogironlarga ularning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lish, ularning turmush faoliyatidagi cheklashlarni bartaraf etish, nogironlarni to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlashda zamin yaratdi.

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldaggi O'RQ-162-sonli "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"²gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga² o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Qonunda nogironlarning ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga to'sqiniksiz kirishi, transportdan, aloqa va axborot vositalaridan to'sqiniksiz foydalanishi uchun sharoitlar yaratish, ularni reabilitatsiya qilish, kasbga tayyorlash,

¹<https://andijon.adliya.uz/main/uz/publikatsii/detail.php?ID=25476>

² <https://lex.uz/docs/1372495>

ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Jumladan, mazkur Qonunning 6-moddasida ko‘ra nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari biri etib belgilandi.

Shu munosabat bilan respublikamizda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida yagona institutsional va huquqiy baza yaratildi, nogironlarga turli sohalarda imtiyozlar belgilab berildi.

Jumladan, “ Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi¹ Qonunning 22-moddasiga asosan nogironlar, shu jumladan nogiron bolalar va bolalikdan nogironlar tibbiy-ijtimoiy yordam olish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, dori-darmonlar, protez-ortopediya moslamalari, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta’milanish, shuningdek kasb-kor egallash va qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqiga ega.

Nogironlar davlat sog‘liqni saqlash tizimi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish, o‘z uylarida parvarish qilinish, o‘zganing parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz nogironlar va surunkali ruhiy xastaliklarga chalingan nogironlar esa ijtimoiy ta’minot muassasalarida yashash huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 fevraldaggi 31-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish va uning uchun haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra I va II guruh nogironlari, bolalikdan nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar Tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to‘lovidan ozod qilinadi.

¹ <https://www.lex.uz/acts/26013>

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 26 fevraldagি PF-3214-son Farmoniga binoan bolalikdan nogironlar, va II guruh nogironlari, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar, Chernobil AESi falokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlar respublika ixtisoslashtirilgan markazlari tomonidan davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatishda imtiyozlarga ega.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida nogironlar tashkilotlari, ularga davlat tomonidan yaratib berilgan imtiyozlar va ularning huquq va majburiyatlari ham belgilab berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning¹ 32-moddasida nogironlar o‘zlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida tashkilotlar tuzishlari mumkin.

Ushbu tashkilotlar esa nodavlat notijorat tashkiloti sifatida adliya organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Hozirda Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan va nogironlar sohasida faoliyat olib boruvchi O‘zbekiston nogironlar jamiyati, O‘zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi, O‘zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati, O‘zbekiston karlar jamiyati, Kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda ta’lim olayotgan kam ta’minlangan oilalarining iqtidorli farzandlari va nogiron bolalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash “Mehr va muruvvat” jamoat fondi, O‘zbekistondagi falaj nogiron bolalar va o‘smlarga yordam berish “Umr” jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar va ularning hududlarda bo‘limlari faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda bunday tashkilotlarning emin erkin faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan va ushbu tashkilotlarning olib borayotgan faoliyatlari ham e’tibordan chetda qolmaydi.

¹ <https://lex.uz/docs/1372495>

O‘zbekiston Respublikasining aynan nogironlar masalalalari bo‘yicha ijtimoiy yo‘nalishdagi siyosatining ishlab chiqilishida va uning amalga oshishida ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi huzurida nogironlar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi va NNTlar harakatlarini birlashtiruvchi maslahat kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Qonun hujjatlarida nogironlarning mehnat qilish huquqini ta’minlashga ham alohida e’tibor beriladi. Xususan, yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 24-25-moddalariga ko‘ra nogironligi tufayli nogiron bilan mehnat shartnomasi tuzishni yoki ish yuzasidan uni yuqori lavozimga ko‘tarishni rad etishga, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, nogironni uning roziligesiz boshqa ishga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi, tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning xulosasiga ko‘ra nogironning sog‘lig‘i kasb vazifalarini bajarishga monelik qilgan yoki nogironning yoxud boshqa shaxslarning sog‘lig‘i va mehnat xavfsizligiga tahdid qilgan hollar bundan mustasno.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagи 237-sonli “Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ qaroriga asosan 2016 yilning 1 yanvaridan boshlab o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashayotgan hamda yolg‘iz keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam ko‘rsatish yakka tartibda shakllantiriladigan ijtimoiy xizmatlar dasturi asosida amalga oshirish tartibi o‘rnatildi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligining qarori (ro‘yxat raqami 2911, 2017 yil 11 avgust) bilan Soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo‘shaydigan mablag‘lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi².

¹ <https://www.lex.uz/docs/2718856>

²https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/aholining_ijtimoiy_himoyaga_muhtoj_qatlamlariga_qanday_tibbiy_hizmatlar_kursatiladi

Bunga asosan 2017 yil 1 apreldagi PQ-2863-son “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga muvofiq aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatadigan (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) xususiy tibbiyot muassasalari, shu jumladan xorijiy investorlar ishtirokidagi xususiy tibbiyot muassasalari 2022 yilning 1 yanvarigacha barcha turdagи soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etilgan. Bunda bo‘sagan mablag‘lar ushbu muassasalarni zamonaviy tibbiy, muhandislik-texnik uskunalar bilan jihozlash va ularga servis-texnik xizmat ko‘rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyoq qismlar, materiallar, inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish uchun yangi binolar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilishi lozim.

Belgilanishicha, xususiy tibbiyot muassasalari aholining quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatadi:

- o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashovchi keksalar;
- I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;
- muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar;
- ijtimoiy ahamiyatga molik kasallikkarga chalingan shaxslar;
- yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar;
- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- 1941-1945 yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari;
- qonun hujjalarda belgilangan tartibda ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan boshqa shaxslar.

Yuqoridagi holatlar O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi yaratilganligidan, jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari, ayniqsa, yolg‘iz keksa-qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlatning muhim maqsadlaridan bir ekanligi bilan izohlanadi. Mamlakatdagi ijtimoiy

islohotlar asosini tashkil qiluvchi aholining muayyan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimiga o‘tilishi esa iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar tamoyillari, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadigan sub’ektlar, davlat xizmati, ijtimoiy xizmatlar bozorini shakllantirish, davlat sektori, xususiy sektor, nodavlat sektori, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy xodim, nogironlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Axoliga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning moxiyati tushuntirib bering?
2. Axoliga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning tamoyillari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish turlarini tasniflab bering?
4. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar kimlar va ularning vazifalariga nimalar kiradi?
5. Axoliga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni takominlashtirish boorasida mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatni sharxlab bering?

5-mavzu: AXOLINI IJTIMOIY MUXOFAZA QILISH DAVLAT IJTIMOIY SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHI SIFATIDA.

Reja:

- 5.1. Axolini ijtimoiy muxofaza qilish tushunchasining moxiyati.
- 5.2. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari.
- 5.3. Axolini ijtimoiy muxofaza qilish mexanizmi va yo‘nalishlari.
- 5.4. Axolini ijtimoiy muxofaza qilishda davlatning o‘rni.

5.1. Axolini ijtimoiy muxofaza qilish tushunchasining moxiyati.

"Ijtimoiy muxofaza"- "ijtimoiy himoya" tushunchasi asosan XX asr boshlarida muomilaga kirib kelgan. «Aholini ijtimoiy himoyalash" tushunchasining mazmuni ikki xil, ya'ni keng va tor ma'noda keltiriladi.

Keng ma'noda, "ijtimoiy himoya" deganda mamlakat aholisining ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui tushunilsa, tor ma'noda, davlat va jamiyatning aholining yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolarga ko'rsatilayotgan g'amxurligi nazarda tutiladi.

"Ijtimoiy himoyalash" tor ma'noda davlat siyosatini bildirib, hayot darajasiga mos ravishda inson hak-huquqlarini himoya qiladi va ijtimoiy kafolatni ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida ijtimoiy himoyalash konsepsiysi keng ma'noga ega bulib, aholini ijtimoiy himoyalashga fakatgina davlat jalb qilinmaydi, balki jamiyatda mavjud bo'lgan barcha aholi qatlamlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar ham jalb etiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi amalga oshirildi. Bu bosqichda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy muhofaza kilish bo'yicha bir qator qonunlar ishlab chiqildi. Ularda aholini ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy sug'urtalash masalalari ko'rildi. XX asrning 30-yillarida Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Natijada aholi o'rtasida ishsizlar soni oshdi, aholi daromadlari pasayib, turmush sharoiti yomonlashdi. Bunday muammolarni hal etish maqsadida Yevropa mamlakatlari va AQShda aholi turmush sharoitini o'rganuvchi maktablar yaratildi. 1930-1940 yillarda AQShda "aholishunos olimlar maktabi"ning namoyondalari E.Meyo, F.Retlisberg, M.Follet va boshqalar tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha aholi o'rtasida tadkikot ishlari olib borildi. Ularning fikricha, sanoatda texnologiyalarni insonlar boshqaradi, shu sababli sanoatga yangi texnologiyalarni olib kirish ishchilar mehnatini yengillashtiradi. Ikkinchi jahon urushidan keyin kator mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning yagona tizimi shakllandı. Endilikda aholining faqat faol qismi emas, balki barcha aholi qatlami haqida qayg'urish, ularni ijtimoiy ta'minlash, hamda bemorlarga tekin tibbiy

yordam ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi. Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimida davlatning o'rni oshib bordi. Ishlab chikaruvchi va ishchilar o'rtasidagi munosabatlarni boshkarish va nazorat etish, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish borasida davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib bordi. Bu siyosatni yuritishda ijtimoiy tafovutlarni o'rganish va taxlil qilish muxim axamiyat kasb etadi.

Mustaxassislarning e'tiroficha, ijtimoiy tafovutlar quyidagi guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy farqlarda o'z ifodasini topadi:

- boylar va kambag'allar orasida;
- aholi etnik guruhlari orasida;
- aholi diniy guruhlari orasida;
- markaz va mintaqalar orasida;
- erkaklar va ayollar orasida ;

- turli avlodlarga mansub odamlar orasida. Bunday tafovutlar davlat tomonidan o'rganilib, ularning kelib chiqish sabablari bartaraf qilib borilsa yuritilayotgan ijtimoiy siyosat o'z samarasini beradi.

Hozirda dunyo mamlakatlarida quyidagi ijtimoiy himoya modellari shakllangan va rivojlanmoqda:

Skandinavcha model (Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya) . Asosiy qoidasi mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minot huquqiga ega. Bosh siyosiy maqsadi to'la – to'kis bandlikka erishish (ma'sul davlat).

Bismark modeli (Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya). Asosiy qoidasi jamiyat a'zolariga ijtimoiy ta'minot uchun zarur vositalarni ishlab topishga imkoniyat berish. Bosh siyosiy maqsadi daromadlarni himoyalash

Beverij modeli (Angliya, Irlandiya) . Asosiy qoidasi favqulotda holatlarda (kasallik, tug'ish, o'lim va h.k.) ijtimoiy sug'urtali nafaqa va pul yordami bilan qamrab olinishi zarur. Bosh siyosiy maqsadi minimal darajada daromadlarni himoyalash

Ko'plab olimlarning fikricha, keng umumsotsiologik ma'nodagi ijtimoiy himoya konsepsiysi birinchi bor 1935 yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik buyicha

qonun"ida ko'llanilgan. Ushbu qonunda qariyalar va mehnatga layoqatsiz aholi qatlamiga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalari buyicha dasturlarni ishlab chikish hakida takliflar keltirilgan. Ammo aholini ijtimoiy himoyalash tushunchasi unda to'laligicha yoritilmagan va ushbu muammoni hal etuvchi tavsiyalar hali ishlab chiqilmagan edi.

Keyinchalik "ijtimoiy himoya" tushunchasining mazmuni Xalkaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida mukammallashtirilgan, hamda ushbu muammoning mohiyati aniqroq qo'rsatilgan. Bundan tashqari, ushbu tushuncha mamlakatning ijtimoiy siyosatida keng kullanilib, u o'z ichiga mehnat sohasi, aholi bandligi, kasb tanlash, o'qitish, bilim olish, daromadlarning kafolatlanishi, har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi, iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatining tashkil eti-lishi, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish, aholiga tibbiy xizmat kursatish, ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlan-gan kismiga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berishni kamrab oladi.

5.2.Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari.

Davlat — mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi. Davlat to'g'risidagi nazariya huquqshunoslikning muhim sohasi hisoblanadi. Davlat va uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mohiyat va vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjud.

Davlat hokimiyati hamda huquqiy xayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelgan. Davlat to'g'risidagi ilk tushuncha va qarashlar mil. av. taxm. 4—3-mingyllikkarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda paydo bo'lgan. Ular asosan diniy-mifologik xarakterda edi. Avesto ta'limotiga ko'ra, hokimiyat, haqiqat,adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga: ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalga tayanadi. Davlatning vazifasi yovuzlikka qarshi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtli saodatli hayotini ta'minlashdir. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Allohnpng o'zi oliy qonun sohibi. Uning talablari, ko'rsatmalari payg'ambarlar

orqali insonlarga yetkaziladi. Davlat boshliqlari — podsholar, xonlar xudoning yerdagi soyasi, vakili hisoblanadi.

Diniy-mifologik ta’limotlar bilan birga, keyinchalik davlat to‘g‘risidagi dunyoviy qarashlar, g‘oyalar rivojlandi. Bunda Platon, Aristotel, Forobiy, Beruniy, J. J. Russo, G. Grotsiy, Spinoza, Lokk, Monteske, Kant, Jefferson va b. katta hissa qo‘shdilar. Bugungi dunyoviy davlatlarda ana shu mutafakkirlar ta’limotlari muayyan darajada o‘z aksini topgan. Aristotel ham, Forobiy ham insonlar hayotiy zarur masalalarni yechishda va o‘z ezgu orzulariga erishishlarida tabiat insonga ato etgan huquqlar (dunyoga kelish, yashash, oila qurish va h. k.) asosida davlatga birlashadilar, deb hisoblagan. Davlatga jamiyatda tinchlikni, tartibni ta’minlovchi, jamiyatni idora qiluvchi hokimiyat sifatida qaragan.

Turli xalqlar o‘z davlatchiligining shakllanish bosqichini ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog‘liq holda turli tarixiy davrlarda bosib o‘tdilar. Yer yuzida o‘z davlatchilagini hech qachon yarata olmagan elatlar va qabilalar saqlanib qolgan bo‘lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bir necha ming yillar ilgarigidek, urug‘ va qabilaning ma’naviy o‘lchamlari, urug‘ boshliqlarining obro‘-e’tibori bilan boshqarib turilmoqda. Sivilizatsiya insoniyat madaniyati rivojinigina anglatib qolmay, shuningdek, davlatchilik taraqqiyoti hamdir. Biroq yaqin-yaqingacha xukm surib kelgan markscha-leninchha ta’limotga ko‘ra, davlat sinfiy xarakterga ega, hukmron sinflarning qo‘lidagi ekspluatatsiya quroli, jamiyat rivojiana borib, pirovardida davlat o‘z qiyofasidan maxrum bo‘ladi va dastavval «yarim davlat»ga aylanib, keyinroq (zarurat bo‘lmaganligi bois) umuman barham topadi. Bu xildagi «nazariy qoida»larning tagi puch ekanli-gini jahon tarixidagi keyingi voqealar isbotlab berdi.

Tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatdiki, insoniyat hech qachon hokimiyatsiz, davlatsiz yashay olmagan, aksincha tom ma’nodagi davlatning rivojlanishi jamiyatning yuksalishiga olib kelgan. Zotan davlat jamiyatda barcha sinflar, tabakalar va millatlarni murosaga keltirib turuvchi kuchdir. U barcha boshqa nodavlat tashkilotlardan o‘zining asosiy belgilari bilan va qonunlarining bajarilishi hamma uchun majburiyligi bilan farklanadi.

Davlatning belgilari to‘g‘risidagi masalani siyosatshunoslar turlicha talqin qilib kelganlar. Bunda aholining hududiy bo‘linishi, odamlar ustidan rahbarlik qiluvchi hokimiyat, soliqlar tizimi alohida ajratib ko‘rsatilgan. Hozirgi vaqtida davlatning umumiy e’tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko‘rsatish mumkin: davlat o‘z chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo‘yicha birlashgan butun jamiyat, aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi; davlat— suveren hokimiyatning yagona egasidir; davlat — yuridik kuchga ega bo‘lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqarilgan hujjatlarni qabul kidali; davlat— o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat mexanizm (mahkama)ga, huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari — sud, prokuratura, militsiya, politsiya kabilarga, o‘z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo‘ladi .

Hozirgi zamonda fanda keng foydalanilayotgan davlat tasnifi quyidagicha: totalitar, avtoritar, liberal va demokratik davlatlar.

Liberal davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat hayotining barcha sohalarida rasman amal qiladi, Davlat ishlarida fukarolarning rasman ishtiroklariga yo‘l qo‘yiladi. Man etilmagan hamma narsaga ruxsat etiladi, biroq mavjud davlat va ijtimoiy tuzumni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Totalitar davlatda hamma narsa bir g‘oyaga — «Davlat — bu hamma narsa, inson esa — hech nima» degan g‘oyaga bo‘ysundirilgan. Butun qokimiyat hukmron elita qo‘lida bo‘lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatilgan.

Avtoritar davlatda ham hokimiyat tor guruh kishilar qo‘lida bo‘lib, shaxsiy manfaatlар davlat manfaatlari yo‘lida qurban qilinadi. Siyosiy jabhada ruxsat etilganidan tashqari hamma narsa man etilishi tamoyili amal qiladi.

Demokratik davlat fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagи xuquklarini amalda ta’minkaydi, shunday ishtirokka amalda yordam beradi. Shaxsning huquq va erkinliklari doirasi juda keng bo‘lib, ularni amalga oshirish ta’milangan bo‘ladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqilanmagan hamma narsaga yo‘l qo‘yiladi .

Davlat qurilishida davlat shakli katta rol o‘ynaydi. Yangi davlatlar tashkil topayotganda uning shakli to‘g‘ri tanlanishi, joriy etilishi muqimdir. Davlat shakli boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli (tartib, rejim) tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruv shakli — davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibidir. Boshqaruv shaklining eng qadimgi va hozirgi kunga qadar rivojlanib kelayotgan shakli monarxiya va respublika.

Monarxiyaning o‘zi ham mutlaq monarxiya va cheklangan monarxiya ko‘rinishlariga ega. Mutlaq monarxiya davlatlarida davlat boshlig‘ining hukuqi cheklanmagan, hokimiyat muddatsiz, taxt meros sifatida avloddan avlodga o‘tadi, Davlat boshlig‘ining ustidan nazorat yo‘q va u hech kimga hisobot bermaydi.

Respublika (lot. respublica, res — ish va publicus — ijtimoiy, umumxalq) — davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo‘yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Hozirgi vaqtida jahondagi 190 davlatdan 140 dan ortig‘i Respublika hisoblanadi. Boshqaruvning Respublika shakli quyidagi turlarga ajratiladi:

1) prezidentlik Respublikasi (AQSh, Meksika va b.), bunda prezident umumxalq saylovida saylanib, bir vaqtning o‘zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi;

2) parlamentar respublika (Italiya, GFR, Vengriya va b.), bunda parlament to‘liq hokimiyatga ega bo‘lib, uning oldida hukumat siyosiy javobgar hisoblanadi. Parlament prezidentni saylaydi. Bunda prezident faqat davlat boshlig‘i bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanmaydi;

3) aralash tipdagи respublika (yarim prezidentlik; Fransiya, Portugaliya, Finlyandiya, Yevropadagi totalitar tuzumdan xalos bo‘lgan yangi mamlakatlarning aksariyati), bunda prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo‘shilib ketadi. Ya’ni prezident umumxalq saylovlarida saylanib, yuridik va real keng vakolatlarga ega bo‘ladi. Biroq hukumat parlament tomonidan tashkil etiladi va u nafakat prezident oldida, balki parlament oldida ham siyosiy

javobgar bo‘ladi. Bunda prezident hukumatga umumiy rahbarlik qiladi, lekin uni bosh vazir boshqaradi. Prezident ma’lum holatlar yuz berganda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi — suveren demokratik respublika bo‘lib, mamlakatimizda prezidentlik Respublikasi boshqaruv shakli amal qiladi.

Shuni aloxida takidlash lozimki, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kiradigan kam ta’minlanganlar, ko‘p bolali onlalar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar va boshqalar har qanday tuzum va jamiyatda u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli davlat hamisha ularni himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi.

3.Axolini ijtimoiy muxofaza qilish mexanizmi va yo‘nalishlari.

Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi ijtimoiy qiyin ahvolda qolgan aholi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish yoki kutilayotgan moddiy qiyinchiliklar hakida ogohlantirishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotining xususiyati shundan iboratki, shaxsning iqtisodiy hayotda qay tarzda ishtirok etishi hakida o‘zi mustakil qaror qabul qiladi. Har bir shaxs, avvalombor, sug‘urtalash masalasi bo‘yicha o‘zi javob beradi. Agar bu shaxs ijtimoiy sug‘urtalanmagan bo‘lsa, daromadi vaqtinchalik kam bo‘lgan taqdirda davlat uni ijtimoiy yordam orqali himoya qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etish uchun kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi taqozo etiladi. Bunday siyosatning mohiyati shundaki, davlat aniq ishlab chiqilgan va bozor munosabatlariga o‘tishni yumshatadigan, aholining u yoki bu sabablarga ko‘ra daromad ishlab topish imkoniyatiga ega bo‘lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan qamrab olishga harakat qiladi. Ko‘rib turganimizdek bu yerda faqat aholining ishsiz yoki mehnatga layoqatsiz qismigina e’tiborga olinmokda.

Bundan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoyalash jarayonida asosiy e’tiborni uning kasb maxorati, mexnat qilish qobiliyatiga karatish kerak. Ayniksa, bozor iqtisodiga o‘tish sharoitida, bozor munosabatlari o‘rganilib, asosiy e’tiborni

mexnatga layokatli va mexnat qilish layokatini yuqotgan aholi qatlamlarini ish bilan ta'minlash, ularning moddiy extiyojlarini qondirish, kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, xamda ijtimoiy-iqtisodiy axvolni rivojlantirishga qaratish kerak. Mexnatga layokatsiz va kam ta'minlangan aholi qatlamlariga pensiya, nafakalar, stipendiyalar berish va soliqlarni qisqartirish yo'li bilan ularni ijtimoiy himoyalash maqsadga muvofiqdir.

"Ijtimoiy ximoya" deganda davlat tomonidan axolining yashashi va mehnat qilishi uchun qulay sharoit yaratish, kam ta'minlangan ijtimoiy qatlamlarga ko'maklashish maqsadida aniq maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy kafolatni amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi deganda mam-lakatda aholi turmush sharoiti darajasini oshirishga qaratilgan mexanizmni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Bunda axolini ijtimoiy ximoya kilish iktisodiy isloxaqtar dasturidagi uzluksiz ustuvor yunalishlardan biriga, ya'ni isloxaqlarning hamma boskichlaridagi muxim vazifaga aylandi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib boriladi. Kuchli ijtimoiy siyosat, o'z navbatida, istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu tushunchani ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaxlitlilik doirasida izoxlab, axolini ijtimoiy himoyalash tizimi ijtimoiy kafolatlar majmuasi bo'lib, u insonlarning qonunda o'rnatilgan haq-huquqlari, hamda ularning amalga oshishini ta'minlovchi elementlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoyaning asosiy ko'rinishlari : arzon turar joylar bilan ta'minlash ; bepul maktablarning mavjudligi; kam ta'minlangan oiladagi talabalarga stipendiya, shartnoma to'lovlarga chegirma nogironlarni reabilitatsiya qilish dasturlari ; harbiylarni adaptatsiya dasturlari (turar joy, ish bilan ta'minlash); onalar va bolalar uchun moddiy yordamlar ; bepul yoki imtiyozli tibbiy xizmat.

5.4.Axolini ijtimoiy muxofaza qilishda davlatning o'rni.

Axolini ijtimoiy ximoya kilish - davlatning axoliga normal hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maksadli kafolatlar

tizimidir. Boshkacha aytganda, ijtimoiy ximoyalash tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki hakikiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini xal kilish maksadidan kelib chikib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy ximoyalashning har safar, o'zi amal qilib turgan ishlab chikarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iktisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanishi va xozirgi zamon talablari asosida rivojlanib borishi zarur.¹

Axolini ijtimoiy ximoyalashni kuyidagi tizimlar orkali tu-shuntirishga mumkin:

1. Ijtimoiy ta'minot tizimi.
2. Ish bilan ta'minlash tizimi.
3. Ba'zi fukarolar uchun ijtimoiy imtiyozlar yaratish tizimi va boshkalar.

Bunday yondashuv mavjud muammolarni xal etishda davlatning rolini aks ettiradi. Davlat axolini ijtimoiy ximoya kilish darajasini qonunchilik va konun asosidagi hujjatlar orkali boshkaradi, tirikchilik kilish uchun minimum darajasini belgilaydi va uni nazarda tutib, mexnatga to'lanadigan xakning eng kam mikdorini, ijtimoiy to'lovlarni, sug'urta badallari va ijtimoiy yordamni, imtiyozlar turlarini belgilaydi, ijtimoiy ximoya soxasidagi xizmatlar faoliyatini muvofiklashtiradi. Ammo, davlatning axolini ijtimoiy ximoya kilish darajasini boshkarishdagi eng ta'sirli roli - kushimcha ish joylarini, shu jumladan, nogironlar uchun xam ish joylarini tashkil etish, axoliga kasbiy tayyorgar-lik, kayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishdagi yordamni ko'rsatishdan iboratdir.

Ijtimoiy siyosat bu davlatning axoli turmush darajasini oshirish uchun uning barcha guruxlariga bergan kafolatlari va ayrim muxtoj tabakalarga beriladigan imtiyoz va moddiy yordamlari majmuidan iborat bulib, axoli farovonligini oshirish davlatning zimmasidan asta-sekin tadbirkorlar guruxlariga, nodavlat-notijorat tashkilotlari va ayrim ko'ngilli fukarolarga o'tishi maksadga muvofikdir.

¹ Abduraxmonov KX, Toxirova X.T., Sharipov B.M. «Axolini ijtimoiy muxofaza kilish» - (ma'ruzalar matnlari) - T.: TDIU, 2005. -B. 9.

Davlatning ijtimoiy siyosati davlat tomonidan amalgaga oshirilayotgan isloxoatlarning pirovard natijasi, ijtimoiy barkarorlikni saklash, axoli turmush darajasini oshirish, xamda makroiktisodiy siyosatning solik va davlat xarajatlari yordamida ijtimoiy barkarorlikni ta'minlashga karatiladi.

Jamiyat taraqqiyoti paydo bo'ladigan ayrim ijtimoiy muommolar davlat tomonidan quyidagicha bartaraf etiladi:

1. Ijtimoiy tabaqalashuv va qutblanish. Fuqarolar tomonidan o'zлari va oila a'zolarini sotsial xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish.

2. Kambag'alchilik. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish.

3. Ishsizlik. Ishlab chiqarishda sotsial ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan xizmat va mahsulotlar ulushining ortishi .

4. Xududlarning tabaqalashuvi. Daromadlar tengsizligi va shaxsiy manfaatdorlikning ortishi .

5. Ta'lim tizimidagi muammolar. Ta'limning boshqa shakllarini joriy etish, ta'lim tizimini izchil isloh qilish

Bunday yondashuv mavjud muammolarni hal etishda davlatning rolini aks ettiradi. Davlat axolini ijtimoiy himoya qilish darajasini qonunchilik va qonun asosidagi hujjatlar orqali boshqaradi, tirikchilik qilish uchun minimum darajasini belgilaydi va uni nazarda tutib, mexnatga to'lanadigan hakning eng kam miqdorini, ijtimoiy to'lovlarini, sug'urta badallari va ijtimoiy yordamni, imtiyozlar turlarini belgilaydi, ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ammo, davlatning axolini ijtimoiy himoya qilish darajasini boshqarishdagi eng ta'sirli roli - qo'shimcha ish joylarini, shu jumladan, nogironlar uchun ham ish joylarini tashkil etish, aholiga kasbiy tayyorgar-lik, qayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishdagi yordamni ko'rsatishdan iboratdir

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy himoya - davlat tomonidan xayot kechirish va mehnat qilish, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash

uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsadli kafolatlarni amalga oshirish jarayonidir.

Tayanch so‘z va iboralar:

ijtimoiy muxofaza, Skandinavcha model , Bismark modeli, Beverij modeli, davlat, totalitar davlat, avtoritar davlat, liberal davlat, demokratik davlat, monarxiya, respublika, ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi, ijtimoiy muommolar.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Axolini ijtimoiy muxofaza qilish tushunchasining moxiyati nimada?
- 2.Davlat va uning xususiyatlarini izoxlb bering?
- 3.Axolini ijtimoiy muxofaza qilishning qanday mexanizm va yo‘nalishlarini bilasiz?
- 4.Axolini ijtimoiy muxofaza qilishda davlatning o‘rni nimalarda ko‘rinadi?
- 5.Ijtimoiy muammolar nimalarda namoyon bo‘ladi va ularni qanday hal qilish mumkin?

6-mavzu: IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OShIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Reja:

- 6.1.Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarining metodologik masalalari.
- 6.2.AQSh liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘llari.
- 6.3.Yevropa davlatlarida ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.
- 6.4.Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.

6.1.Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarining metodologik masalalari.

Davlatning ijtimoiy siyosati amalda asosan ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’milot. Ijtimoiy himoya mustaqillikning moddiy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash va bozor islohotlarini amalga oshirish davrida

aholini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilish va milliy xo‘jalikda amal qiladigan iqtisodiy, hukuqiy, ijtimoiy va xatto, siyosiy chora-tadbirlar majmui bo‘lib, xususan, aholining yoshi, salomatligi, ijtimoiy holati hamda hayot kechirishning zarur vositalariga ega bo‘lmaqanligi sababli yordamga muhtoj qatlamiga davlat va jamoat tashkilotlari va jamg‘armalarining yordami hisoblanadi¹.

Ijtimoiy siyosat bu davlatning axoli turmush darajasini oshirish uchun uning barcha guruxlariga bergen kafolatlari va ayrim muxtoj tabakalarga beriladigan imtiyoz va moddiy yordamlari majmuidan iborat bo‘lib, axoli farovonligini oshirish davlatning zimmasidan asta-sekin tadbirkorlar guruxlariga, nodavlat-notijorat tashkilotlari va ayrim kungilli fuqarolarga o‘tishi maqsadga muvofiqdir.

Jaxon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, u har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlarida kelib chiqqan holda rivojlanadi. Eng mashhurlari qatoriga Avstriya, Germaniya, Shvesariya, Shvesiya, AQSh va Yapon modellari kiritilgan. Mazkur modellar ijtimoiy xizmatlarning samaradorligi, amalgalash oshirilish innovatsion mexanizmlari, me’zonlari bilan ajralib turadi.

Ushbu modellarning o‘zaro bir-biridan farqi va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun chuqur, tizimli tahlil talab etiladi.

Joriy demografik vaziyat, aniqrog‘i, odamlar soni ko‘payishi, aholi yosh va ijtimoiy tuzilmasi o‘zgarishi sharoitida mavjud ijtimoiy himoya tizimini saqlab qolish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Chunki byudjetga, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga, sog‘liqni saqlash tizimiga, farmasevtika tarmog‘iga yuk izchil ko‘payib borayapti. Shu sababli mutlaqo yangi ijtimoiy siyosat modellarini ishlab chiqish hayotiy zaruratdir.

Bugungi kunda dunyo amaliyotida, jumladan, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida bir qator ijtimoiy himoya modellarini amal qiladi. Deylik, Niderlandiya, Germaniya, Belgiya va Fransiyada kontinental model joriy qilingan. Buning zamirida sug‘urtalashning turli shakllari, shu jumladan, tibbiy sug‘urta, pensiya sug‘urtasi, shuningdek, vaqtinchalik ishsizlik sug‘urtalarini joriy qilish g‘oyasi mujassam.

¹ Ernazarov Dilmurod Zuxriddinov. Nodavlat sektorida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish borasida jahon.

Ijtimoiy himoya darajasi hamda mehnat faoliyati staji o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mazkur modelning asosini tashkil etadi.

Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSh va Yaponiyada ijtimoiy himoyaning liberal modeli qo‘llaniladi. Ushbu tizimga binoan, jamiyatning barcha a’zosi, ayniqsa, ehtiyojmandlar moddiy ko‘mak bilan qamrab olinadi. Lekin nafaqalar kambag‘allikni butunlay yo‘q qilish uchun emas, balki uni ushlab turish uchun tayinlanadi. Chunki bunday siyosat tarafdarlarining fikricha, odamning kambag‘alligi har bir shaxsning o‘z ixtiyori natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’midotning Janubiy Yevropa modeli Italiya, Ispaniya, Gresiya hamda Portugaliya singari davlatlarda amal qiladi. Bunda ijtimoiy himoya u darajada yaxshi bo‘lmaydi. Ijtimoiy ta’midotda oila a’zolari va qarindoshlar zimmasiga katta mas’uliyat yukланади.

Daniya, Shvesiya, Finlyandiya hamda Norvegiyada qo‘llaniladigan sotsial-demokratik model mamlakatning barcha aholisi uchun ijtimoiy himoyani kafolatlaydi. Bunda fuqaroning ishlagani yoki sug‘urta to‘lovlar hech qanaqa ahamiyatga ega emas. Mazkur amaliyot kambag‘allikning oldini olishda ayni muddao bo‘lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan barcha davlatlar o‘z vaqtida turli demografik muammolarni, iqtisodiyotni liberallashtirish bilan bog‘liq islohotlarni boshidan o‘tkazishgan. Bunday islohotlar, aslida, O‘zbekistonda kechayotgan o‘zgarishlardan keskinroq bo‘lgani bor gap. Pirovardida mazkur mamlakatlar samarali va barqaror ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish zarur, degan xulosaga kelishgan.

Yurtimizning ijtimoiy himoya siyosati liberal modelga yaqinroq, deyish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, ilgari shakllangan ijtimoiy himoya tizimi hamda sotsial dasturlar bugungi o‘zgarishlarga qadar mavjud bo‘lgan iqtisodiy modelga asoslangan. Oqibatda ushbu omil qaysidir ma’noda iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlar uchun bugungi imkoniyatlarni cheklamoqda. Jamiyatda keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalgaga oshirish, ayniqsa, aholining ehtiyojmand qatlami uchun uzoq istiqbolda barqaror ijtimoiy himoya tizimini ta’minlash zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun muayyan asos shakllangan. Misol uchun, aholining daromadlari o'sgan, bandlik hamda daromad manbalarining yangi shakllari paydo bo'ldi va keng qo'llanilmoqda. Kasanachilik, tadbirkorlik, shaxsiy bandlik singari imkoniyatlar ijtimoiy yordamga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda har doim ham inobatga olinmaydi.

Shu sababli xorij tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy ijtimoiy himoya konsepsiyasini ishlab chiqish hamda amaliyatga joriy qilishning vaqtি keldi, deyishga asoslarimiz yetarli. Jumladan, ushbu yo'nalishda liberal modelga tayangan holda, mavjud tartib-taomillarni takomillashtirish, bu boradagi yondashuvlarni jadal o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga, mamlakatimizdagi demografik tendensiyalarga moslashtirish lozim. Bunday konsepsiya ijtimoiy himoya bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish bilan bir qatorda, undagi mavjud qaramaqarshiliklarni bartaraf etish singari masalalarni qamrab olishi ayni zaruratdir.

O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlat siyosati Asosiy Qonunimizda belgilab qo'yilgan. Uning 39-moddasiga asosan, pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas. Shuni qayd etish kerakki, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor o'tgan davr mobaynida aniq belgilanmagan.

Gap tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor yoki "iste'mol savatchasi" haqida borar ekan, ular har bir hudud uchun alohida, ya'ni poytaxt hamda viloyatlar aholisi daromadlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Yangi ijtimoiy himoya konsepsiyasida aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va respublikaning har bir hududi uchun standartlar, qoida hamda normativlar tizimi shakllantiriladi. Bu choralar ijtimoiy sohaga ajratilgan byudjet mablag'lari maqsadsiz sarflanishining oldini olish uchun juda zarurdir. Masalan, bugungi kunga qadar davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul tibbiy xizmatlar samaradorligi tahlil qilinmagan. Vaholonki, ushbu yo'nalishdagi samaradorlik monitoringi har bir soha uchun zarur va maqbul investitsiya hajmlarini belgilab bergen bo'lardi.

Umuman, sug‘urtalashning yangi usullari, tibbiy, ijtimoiy va pensiya sug‘urtalari joriy qilinishi, mohiyatiga ko‘ra, boqimandalik kayfiyatiga barham berib, ijtimoiyadolatni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi, jamiyatning har bir a’zosida o‘z kelajagi, oilasi taqdiri uchun shaxsiy mas’uliyatini oshiradi.

6.2. AQSh liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘llari.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda AQSh modelining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda davlat organlarining ishtiroki minimal darajaga tushirilgan bo‘lib, nodavlat sektori faoliyati bиринчи darajaga ko‘tarilgan. Davlat nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyatini faqat moliyalashtirishda ko‘mak beradi. Xususiy tadbirkorlar, kompaniyalar, biznes tuzilmalari tomonidan nodavlat sektorini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mablag‘lari moliyalashtirishning salmoqli qismini tashkil etadi.

Amerika tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ijtimoiy siyosatining yangi bosqichga ko‘tarilishi 1935 yilda “Ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonuning qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur qonun AQSh prezidenti F.Ruzveltning (Welfare State) 1929-1932 yillardagi “Buyuk dipressiya”ga qarshi “yangi siyosati” edi. Bu esa davlatning ijtimoiy sohasini to‘liq o‘z qo‘liga olish siyosatiga aylandi. Davlatning ushbu konsepsiysi mohiyatiga ko‘ra, davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy notenglikka barham bera olmaydi. Davlatning oldida turgan asosiy vazifalardan biri aholini minimal darajadagi ijtimoiy ko‘mak bilan ta’minlashga erishish edi. Aytib o‘tish joizki, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish professional kasb sifatida XIX asr oxirlarida vujudga keldi.

1927 yilga kelib AQShda ijtimoiy xizmatlar assotsiatsiyasi vujudga keldi. 1930 yilga kelib ijtimoiy (ish) xizmat fani universitetlar ta’lim tizimiga kiritildi. Ikkinci jahon urishidan so‘ng amerika modelining ta’siri ijtimoiy sohani yanada rivojlanishiga olib keldi. Jamiyatda ijtimoiy sohaga daxildor bo‘lgan turli o‘quv muassasalari, bilim yurtlari ko‘paya boshladi. Nihoyat, 1965 yilda Ijtimoiy ishlar vazirligi ijtimoiy soha xodimlarini professional kasb egalari sifatida tan oldi.

Natijada, o‘rta va oliv ta’lim muassalarida ta’lim olgan mutaxassasalar barcha sektorlarda faoliyat olib borish imkoniga ega bo‘ldi. Ayniqsa, nodavlat sektori uchun yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash masalasi uzil kesil hal qilindi.

Hozirgi vaqtda AQShda ijtimoiy soha xizmatchilarini tayyorlashning to‘rt bosqichdan iborat uzluksiz ta’limi mavjud. Xususan, 2 yillik o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy ish texnik xodimi mutaxassisligini oladi. Kollej va universitetlardagi 2 yillik ta’lim (400 soat dars mashg‘ulotlari) so‘ngida ijtimoiy ishlar bo‘yicha bakalavr (BSW) diplomini oladi. Universitetlarda 2 yillik o‘qish (nazariy va amaliy mashg‘ulotlar) so‘ngida ijtimoiy ishlar bo‘yicha magistr (MSW) diplomi beriladi. Ijtimoiy ishlar yo‘nalishida doktorlik dissertatsiyasini yoqlash (DSW) ijtimoiy ishlar bo‘yicha doktor unvonini beradi. Shu tariqa ijtimoiy ishlar milliy assotsiatsiyasi (NASR)ga ijtimoiy ishlar bo‘yicha bakalavr darajasiga ega bo‘lganlar ham qabul qilinadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki Amerika modelida:

- ijtimoiy siyosatga liberalizmning kuchli ta’siri;
- davlat moliyaviy mablag‘larining hisobidan nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlar sohasiga ko‘plab jalb qilinishi;
- aholini ijtimoiy sug‘urta qilinishining muhimligi;
- ijtimoiy xizmatlar sohasini nomarkazlashtirilganligi ma’lum bo‘ldi. Bunda kichik mahalliy va xalqaro yirik nodavlat tashkilotlarining roli kattadir.

6.3.Yevropa davlatlarida ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.

Daniyaning ijtimoiy ta’minot tizimi ham aholini ijtimoiy himoya qilishda yuqori darajada tashkillashtirilganligi bilan alohida ajralib turadi. Davlatga to‘lanadigan soliqlarning asosiy qismi xususiy sektor va boshqa manbaalardan kelib tushadi. Davlat byudjetining 58% ni ijtimoiy sohaga sarflaydi. Nodavlat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy xmzmatlar aholining quyidagi qatlamiga yetkazib beriladi:

- boquvchisini yo‘qotgan keksalar;
- nogironlar, nafaqaxo‘rlarga;

- aqliy, jismoniy nogiron bo‘lgan fuqarolarga;
- nosog‘lom oilalarning farzandlariga;
- ruhiy kasallarga va boshqalar.

Umuman olganda nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sohadagi faoliyat spektori juda kengdir. Nodavlat sektori tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi 1976 yilda “Ijtimoiy yordam akti” asosida amalga oshirila boshlangan va ushbu qonun asosida Daniyaning milliy qonunchiligi rivojlanib kelmoqda. 1992 yilda Daniyada yoshlар o‘rtasida ishsizlik darajasining ortib ketishi natijasida “O‘nlik komiteti” (Zehten Committee) tuzildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy sohaga nodavlat tashkilotlarini jalb qilish, ko‘ngillilar harakatini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolar faolligini oshirishdan iborat edi.

Zamonaviy bosqichga kelib nodavlat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishining moliyaviy ta’minoti davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi. Daniyada ijtimoiy xizmatlarning ko‘rsatilishi hukumat organlari hududiy birliklarga bo‘lingan holda amalga oshiradi. Mahalliy davlat organlari ijtimoiy xizmatlar yetkazib berilishi, sifati, qabul qilingan standartlarga mos kelishini nazorat qiladi. Bundan tashqari haq to‘lanadigan ijtimoiy xizmatlar bozorini ham muvofiqlashtiradi. Hukumat organlari maxsus xizmat ko‘rsatiladigan sohalarni ko‘proq nazorat qiladi. Bularga nogironlar, ruhiy kasallar, tarbiyasi og‘ir bolalar bilan shug‘illanadigan muassasalar, rehabilitatsiya, konsultativ markazlari kiradi.

Daniya ijtimoiy xizmatlar tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, yildan-yilga davlatning ijtimoiy sohadagi vazifalari qisqarib bormoqda. Endilikda, davlat muhim masalalar bo‘lgan moliyalashtirish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish vazifalari bilan cheklanmoqda. O‘tgan asrning 80-yillarda nodavlat sektori faoliyatini nomarkazlashtirish, mustaqilligi va erkin foliyatini ta’minlashga qaratilgan qator loyihalar ishlab chiqilgan edi. Bunda ijtimoiy sheriklik masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada, aholiga ijtimoiy xizmatlar yetkazib berilishida ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida amalga

oshiriladigan bo‘ldi. Germaniya va Danyada aholiga ijtimoiy xizmatlar yetkzib berishda davlat bosh rolni o‘ynashi ma’lum. Lekin, muhim jihatlardan yana biri shundaki, nodavlat sektori shaharlar, polyolkalar, qishloqlar mahalliy boshqaruvida yetakchilik qiladi. XX asrning 60-yillarida Germaniyada ijtimoiy sheriklik faqat mehnat sohasida emas, balki, ijtimoiy sohada ham keng qo‘llanila boshlandi. Endilikda, ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilishi va bunga nodavlat sektorining jalb qilinishi, ular faoliyatining huquqiy vakolati, faoliyat doirasini kengaytirish, xususiy sektorning ham ijtimoiy ma’suliyati va ishtirokini ta’minalash masalasi birinchi darajaga ko‘tarildi. Demak, davlat organlari va nodavlat sektorini aholiga ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishdagi faoliyat chegarasi aniq belgilangan va ijrochilar bir-birining faoliyatini qaytarmaydi hamda halaqit bermaydi. Germaniya modelida demokratik tamoyillar, qadriyatlarga rioya qilinadigan bo‘lsa, Shved, AQSh va Yapon modelida ijtimoiy xizmatlar iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan chambarchas bog‘liqligi tan olinadi.¹

Germaniya modelining o‘ziga xosligi shundaki, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy pedagogika bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Ular orasidagi chegarani aniqlash juda mushkuldir. Chunki, ularning vujudga kelish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi va bunda nodavlat toshkilotlarining roli katta bo‘lgan. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Germaniyada XVIII asrda ilk ko‘ngillilar faoliyati boshlangan. 1788 yilda Gamburg shahrida ko‘ngillilar tomonidan “fuqaroviylar” faoliyat yurita boshladi. O‘z navbatida, bu xol Germaniyada ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimiga asos soladi. Ularning samarali faoliyati ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal qilinishiga olib keldi.

Vengriyada NNTlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar bozorida yangi ish o‘rinlarining yaratilishi 37% dan oshgan. Natijada, mamlakat darajasida ishsizlikni 1% ga kamaytirdi. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda davlat va munitsipal siyosati nodavlat sektorning salohiyatini inobatga olgan holda

¹Kimarovskiy V.V. Formы sotsialnogo partnerstva. - M.: Flinta: MPSI, 2003.-130 s.

qurilmoqda. Buning uchun ijtimoiy xizmatlar tamoyillarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Vengriyada ijtimoiy ta'minot modelining vujudga kelishi va rivojlanishiga mamlakatda ro'y bergan ko'plab ijtimoiy-siyosiy inqirozlar sabab bo'lgan. Masalan, 1989 yilda davlat tuzumi o'zgarganda minglab kishilar birdaniga turar joyidan mahrum bo'ldilar, chunki kompaniyalar ishchilar yotoqxonalarini yopib qo'ydilar. Davlat shu miqdordagi boshpanasiz qolganlar muammolarini hal etishga tayyor bo'lmasligi uchun, qishda yuzlab kishilar sovuqdan halok bo'ldi. O'sha vaqtida ko'chada qolgan odamlarga boshpana berish va yordam ko'rsatish maqsadida bir nechta nodavlat tashkilotlar tashkil etildi. Ushbu muammo hammaning e'tiborida bo'lmasligi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgani sababli Parlament mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga boshpanasizlar uchun yotoqxonalar ochish majburiyatini yukladi.

Lekin, ko'pgina nodavlat tashkilotlar ana shunday yotoqxonalarni tashkil qilganliklari sababli mahalliy ma'muriyat ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida byudjet hisobidan moliyaviy mablag'lar ajratdi.

Hozirga qadar Vengriyada boshpanasizlar uchun barcha yotoqxonalarga amalda nohukumat tashkilotlari xizmat ko'rsatadi, ushbu nodavlat tashkilotlarlarini esa mahalliy boshqaruв organlari moliyalashtiradi. Ko'p hollarda nodavlat tashkilotlari tomonidan qaysidir ijtimoiy xizmat turini qonunchilikka kiritishga muvaffaq bo'linganida, ushbu turdagи ijtimoiy xizmat ko'rsatish davlat majburiyatiga aylanadi. Masalan, nodavlat tashkilotlar birinchi bo'lib «sayyor oshxonalar» tashkil qildilar – Budapeshtning bir nechta tumanlaridagi keksa kishilar uchun tushlikni turar joylariga yetkazib bera boshladilar. Natijada, mahalliy qonunchilikda “sayyor oshxonalar” davlat tomonidan moliyalashtirilishi shart bo'lgan xizmatlar ro'yxatiga kiritildi.¹

1997 yilda Buyuk Britaniyada davlat va NNTlarning o'zaro ijtimoiy sherikligi tamoyillari to'g'risida rasmiy hujjat qabul qilingan. Eng muhim jihatlardan biri

4. Saidov A.X. Ijtimoiy sheriklik va davlat qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki masalalari bo'yicha xalqaro tajriba. Toshkent – 2012. 68 B.

NNTlari fuqarolarni jamiyat muammolarini hal qilishda jonbozlik va faollik ko‘rsatishga o‘rgatadi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun ham Angliya hukumati uchinchi sektorni ijtimoiy xizmatlarni amalga oshiruvchi sifatida asosiy qismini davlat byudjetida moliyalashtira boshladи. XX asrning 90 yillarida Angliyada aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi maxsus kasalxonalar, statsionar muassasalarining ommaviy yopilishi natijasida ushbu masalalar bilan xususiy va nodavlat sektori shug‘illana boshladи. Ko‘p davlatlarda bo‘lgani kabi aholiga pullik va bepul xizmatlar ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi.

Britaniya modelining boshqalardan farqli jihatlari shundaki, aholini ijtimoiy himoya qilishda davlatning ustuvor vazifasini saqlab qolishda munitsipalitetlarning konservativ pozitsiyada bo‘lishidir. Ijtimoiy sohada xususiy agentliklar ko‘proq o‘ringa egalik qilishga intilsalar-da, biroq, munitsipalitetlar o‘zining yetakchi sub’ekt sifatida namoyon qiladi. Ushbu masalada nodavlat sektori munitsipalitetlarning eng yaqin va ishonchli hamkorи sifatidan namoyon bo‘ladi.

Angliyada oxirgi 40 yil ichida barcha hududlarda davlat, xususiy va nodavlat tashkilotlar tomonidan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda. Xizmatchilarning aksariyat ko‘pchilik qismi hududlarda ish olib boradi. Shularda eng mashhurlari “ko‘chib yuruvchi oshxonalar” bo‘lib, u aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning innovatsion mexanizmlaridan biridir. Davlat nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlarni taklif qiluvchi tashkilot sifatida tan oladi. Shuning uchun ham nodavlat sektori ijtimoiy xizmatlar bozorida boshqa davlat organlari bilan bemalol raqobat qila oladi. Davlat tomonidan ijtimoiy buyurtmalarning berilishi NNTlarning barqaror faoliyat olib borishiga katta moliyaviy yordam beradi.

Norvegiyada aholiga ijtimoiy xizmatlar yetkazishda har bir munitsipalitet o‘zining ofislariiga ega. Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, maxsus dasturlar qabul qiladi va bunga xususiy hamda nodavlat sektori vakillarini ham jalb qiladi. Ular 1964 yilda qabul qilingan “Ijtimoiy himoya to‘g‘risidagi” qonunga asosan faoliyat olib boradi. Munitsipalitetlar va boshqa

davlat organlari tomonidan ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xattiharakatlar (alkogol, tamaki, narkotik moddalar iste'moli) ustidan nazorat olib boradi.

Norvegiyada nodavlat sektori sub'ektlari jamiyatda ijtimoiy, ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda yoshlar o'rtaida tushuntirish va profilaktika ishlarini olib boradi.

Niderlandiyada ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan birinchi qonun 1848 yilda qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra o'ta kambag'al, nochorlarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam berish qat'iy belgilangan.

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Niderlandiyada birinchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha "Gaaga ta'lim ustaxonasi" 1989 yilda tashkil topgan bo'lib, u boshlang'ich davrda shahar munitsipaliteti tashabbusi asosida tashkil topgan. O'z mohiyatiga ko'ra, u o'quv ishlab chiqarish markazi bo'lib, ishsiz qolgan yoshlarni jalb qilish, o'qitish, malakasini oshirish bilan shug'illangan.

Finlyandiyada ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonun 1936 yilda qabul qilingan bo'lib, qonunda ijtimoiy xizmatlarni davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatilishi belgilab qo'yilgan. 1942 yildan boshlab, Xelsinki shahrida ijtimoiy fanlar maktabida soha xodimlarini kasbiy tayyorlash tizimi yo'lgan qo'yilgan. Yuqori malakali ijtimoiy xizmat soha mutaxassislari tomonidan bolalar bog'chalari, internat, kasalxonalar va boshqa ijtimoiy muassasalarda faoliyat olib borishi katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar turlarining yangi shakllarini ishlab chiqishda nodavlat sektorining hissasi katta bo'ldi va ular davlat ijtimoiy sohasining milliy modelini yaratuvchilari hisoblanadi.

Fransiyada 1980 yillarda nodavlat sektorining ijtimoiy xizmatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish siyosati prezident Fransa Mitteran davrida boshlangan edi. Natijada, 2012 yilga kelib nodavlat tashkilotlarining umumiyligi soni 1,3 mln. ga yetdi. Shulardan 2000 tasi mustaqil jamg'armalar hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda fuqarolar faolligi muhim jihatlardan hisoblanadi.

Nodavlat sektori vakillari mamlakat aholisiga eng ko‘p fan-ta’lim, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlikni rivojlantiirish sohalarida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyada ijtimoiy xizmatlar sohasi alohida nodavlat tashkilotlarining individual, mustaqil faoliyati orqali, ya’ni bunda nomarkazlashtirilgan holda amalga oshirilishi ma’lum bo‘ldi. Biroq, Skandinaviya va ba’zi Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish o‘ziga xos tamoyillarga tayanadi. Jahan tajribasida davlat, nodavlat, xususiy sektorlarning huquqiy, iqtisodiy funksional-tashkiliy jihatlarini amalga oshirishda ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanmoqdalar.

6.4.Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.

Iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni innovatsion yo‘lga qo‘yish ma’lum bir tajriba va modellardan foydalanishni taqozo etadi. Albatta, ushbu modellardan ko‘r-ko‘rona foydalanish maqsadga muvofiq emas. Rivojlanish modellarini tahlil qilganda ularda qo‘llanilgan usullarni o‘rganish va qo‘llash yo‘llarini izlash zarur.Bu borada janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarining tajribasi katta axamiyatga ega.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari - Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Tayvan, Janubiy Koreya, jami 11 davlat. Ularning ajralib turadigan asosiy jihat shundaki, bozor mexanizmi ruli “qattiq siyosiy qo‘llar”da, ya’ni davlatning qo‘lida. Shu jihatdan olganda, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan jadal iqtisodiy islohotlar negizida ham davlatning bosh islohotchilik siyosati yotibdi. Tahlilimizni Malayziya davlatidan boshlaymiz. 1981-2003 yillarda Malayziyaning bosh vaziri lavozimida ishlagan Maxatxir Muhammad qoloq agrar iqtisodiyotli mamlakatni “Osiyo yo‘lbarslari” darajasiga yetkazgan kuchli arbob edi. U g‘arbiy qadriyatlarga zid o‘laroq, “osiyocha qadriyatlar”ning tashviqotchisi, xalqaro qo‘shilmaslik harakatini rahbari bo‘ldi.

Lider bu ishga jon-jahdi bilan berilishi, milliy taraqqiyot yo‘lini hayotga tatbiq etishga shaxsan rahbarlik qilishi, boshqaruvda, siyosatda, moliya va savdo sohalarida yuqori malakaga ega bo‘lishi kerak. Sobiq bosh vazir Xitoy tajribasini yaxshi tahlil qiladi. “Mao ajoyib harbiy qo‘mondon edi, biroq mamlakatni boshqarish urush olib borishdan farq qiladi. U olg‘a surgan kommunistik mafkura taraqqiyotga yo‘naltirilgan emas edi. Natija shu bo‘ldiki, Xitoy rivojlanishda ortda qola boshladi. Maoning vorisi Den Syaopin butunlay boshqa odam edi. U Xitoyni rivojlantirishga intilar, “hamonki mushuk sichqonlarni ovlar ekan, uning qora yoki oqligi muhim emas” deb hisoblar edi.

Bizga ma’lumki, “Osiyo fenomeni”, jumladan, O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ham diniy e’tiqod, milliy urf-odatlar va an’analalar yetakchilik qiladi. Xorijlik ekspertlarning ta’kidicha, “davlat – jamiyat – inson” konstruksiyasida “osiyocha konsepsiya” G‘arb mamlakatlari tushunchasiga unchalik mos tushmaydi. Masalan, osiyoliklar “inson huquqlari, bu – jamoaviylik” deb biladi va jamiyat manfaatlari himoyasini ustun qo‘yadi. Jamoaviylik jadal iqtisodiy rivojlanishga erishish, jinoyatchilik va ishsizlikni past darajada ushlab turish imkonini beradi. Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining muvaffaqiyati tarixiy-madaniy, tarixiy-etnologik tajribasi, bilim, yozuv va an’analarni to‘liq saqlab qolganligi bilan belgilanadi. Qizig‘i shundaki, Osiyo davlatlari islohotlari ilk bosqichlarida iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda avtoritar boshqaruv kuchlilik qiladi.

Xo‘sh, “Osiyo qadriyatlari” nimalardan iborat? Uning G‘arb qadriyatlaridan farqi nimada? Uzoq yillik tahlilimizga ko‘ra, quyidagi omillar ustunlik qiladi: jamiyat va davlat huquqlari inson huquqidan ustuvorlik qiladi, oila mustahkam bo‘lishini xohlashadi, hukumat jamiyatga axloqiy qoidalarni joriy etishga imkon beradi, barcha sohada erkinlik tantana qilishi “g‘oya”si yoqmaydi, ota-onalar farzandlariga qattiqko‘l bo‘lishadi, kapitalizmning talabi, shart-sharoitiga tez moslashadi, hukumatdan ijtimoiy yordamni kutmaydi, ta’limni yuksak qadrlaydi. Jumladan, O‘zbekistonda ham oila, jamiyat manfaatlari birinchi o‘rinda turadi..

Umuman olganda, 1990 yillardan boshlab jahon miqyosida iqtisodiy sakrashni amalga oshirib, G‘arb mamlakatlarini lol qoldirgan rivojlanish ildizida, albatta,

davlatning bosh islohotchilik g‘oyasi yotadi, deyish mumkin. Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur taraqqiyot modeli samaradorligi sabablari: birinchidan, davlat iqtisodiyot sohalariga doimo rahnamolik qilishi; ikkinchidan, ustuvor tarmoqlarga yuksak texnika, texnologiyalarni qo‘llash uchun imtiyozli kredit, soliq preferensiyalari berilishi; uchinchidan, mintaqadagi hukumatlar importga to‘sinq qo‘yilib, proteksionizmni qo‘llashida namoyon bo‘ladi.¹ Ha, ochig‘i Yevropa va Osiyo davlatlar ining rivojlanish yo‘llarida ozgina farq mavjud: G‘arbda makro-daraja (moliya, pul tizimi, tashqi savdo), Sharq davlatlarida mikro-daraja (narxlar va korxonalarini isloh qilish, nodavlat sektorini qo‘llash, kichik biznesni rivojlantirish) mexanizmiga ko‘proq tayanishadi.

Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiy yutuqlari tag-zaminida milliy ruhiyat va ilg‘or texnologiyalar qo‘llanilishi yotadi. Masalan, Malayziya hukumati qoshidagi Milliy komitetga yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning halokatli ta’siridan himoya etish chora-tadbirlarni amalga oshirish yuklatilgan. “Yapon ruhiyati va g‘arb texnologiyasi” shiori tarixda o‘zini oqlab, yaponlarni peshqadam davlatlar qatoriga qo‘shdi. Singapurda pora olishdan bosh tortgan chinovniklarga mukofotlar tarqatiladi. Yaponiyada davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab borilishi mexanizmi ham o‘rganishga loyiq hodisa.

Singapurning iqtisodiy mo‘jizasi – bu, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni muvaffa qiyatli uyg‘unlashtirishning natijasidir. Har qanday mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar vaqtি-vaqtি bilan sifat va miqyos jihatdan o‘zgarib turadi. Buning sababi islohotlar har bir bosqichining o‘ziga yarasha maqsad va vazifalari mavjuddir.

Singapur mustaqillikka erishgan davrdanoq Uy-joy communal xo‘jaligi boshqarmasi (UKXB) tashkil etildi. UKXB o‘z faoliyati davomida millionga yaqin kvartiralarni qurib bitkazdi. Bu jarayonda juda sodda va samarali moliyaviy sxemadan foydalanildi. Shuningdek, Singapurda Jamg‘armalarning markaziy

¹ Omonov B. Davlat-jamiyat-inson: Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining ajralib turadigan jihatlari nimada?//<https://uz.aуз.uz/posts/davlat-zhamiyat-inson-zhanubi-shar-iy-osiye-mamlakatlarining-03-05-2020>

fondi (JMF) tashkil etilib, unga har bir singapurlik har oyda o‘z maoshining 20 foizini o‘tkazishga majbur, uning ish beruvchisi ham shunday miqdorda mablag‘ o‘tkazadi. JMFdagi mablag‘lar soliqqa tortilmaydi. Investitsi-on banklarda esa ularga foizlar qo‘sib boriladi. Pensiya yoshiga yetgandan so‘ng singapurlik ushbu mablag‘ni to‘liq qo‘lga kiritadi. Undan avval esa, fuqaro JMFdagi mablag‘ning $\frac{3}{4}$ qismini kvartira sotib olish uchun, chorak qismini esa zarurat tug‘ilganda kasalxonadagi davolanish haqini to‘lashga ishlatishi mumkin. Kvartira olish uchun JMFda kvartiraning 20 foizini to‘plasa kifoya qiladi, qolgan summani bo‘lib-bo‘lib to‘lasa bo‘ladi. Bunda «oilaviy moliyaviy alyanslar» taqiqlanmaydi: ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar va opa-singillar JMFdagi to‘plagan o‘z mablag‘larini birlashtirish imkoniga ega bo‘ldilar. Davlat tomonidan qurilgan kvartiraga ko‘chib o‘tilgandan so‘ng, besh yil ichida to‘liq haqqi to‘lansa, uni hech qanday cheklovlarsiz bozor narxida sotib yuborish mumkin bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu imtiyozli uy-joy qurilishi dasturidan faqatgina Singapur fuqarolari foydalanish huquqiga egadirlar. Uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi o‘z shtatida bor-yo‘g‘i 12 ming kishiga ega bo‘la turib, qurilish va ekspluatatsiya bilan bog‘liq katta hajmdagi ishlarni amalga oshira oladi.

Bu hol faqatgina uy-joy qurilishini emas, balki sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, ijtimoiy ta’minot va pensiya dasturlarini mablag‘ bilan ta’minalash imkonini beradi. Ushbu usul byudjet hisobidan xarajatlarni amalga oshirishdan ko‘ra samaraliroqdir. Davlatning uy-joy qurilishi dasturi qurilish industriyasini Singapurning iqtisodiy rivojlanishi generatoriga aylantirdi.

Janubi-sharqiy Osiyoning yetakchi mamlakatlari erishayotgan katta yutuqlari bilan birga, ularning innovatsion taraqqiyotidagi istiqbollari borasida ma’lum bir ishonchsizliklar mavjud. Bu mamlakatlar hozirgi davrda o‘z taraqqiyoti cho‘qqisiga yaqin turibdilar. Singapur va Janubiy Koreyaning keskin ravishda o‘sishi jadallahgan industrlashtirish va ishchi kuchini qishloq joylardan sanoat ishlab chiqarish joylariga jalb qilishi hamda xorijning yetakchi texnologiyalaridan andoza olishi bilan bog‘liq. Yetakchi texnologiyalardan

andoza olish texnologik uzilishlarni qisqartiradi. Shu bilan birga, ushbu choralar uzoq muddat davomida innovatsion dinamikani ta'minlash uchun yetarli emasdir. Chunki ushbu davlatlar doimiy ravishda inson kapitaliga va institutlarni rivojlantirishga investitsiyalarni amalga oshira olmaydilar. Natijada, industrilashtirish evaziga erishilgan o'sish yaqin kelajakda sekinlashishi (yoki to'xtashi) muqarrardir.

Masalan: Hindistonni misol tariqasida keltirish mumkin.. O'z vaqtida bu mamlakat ishlab chiqarishni emas, balki xizmatlarni rivojlantirishga urg'u bergen. Natijada hozirgi vaqtda Hindistonning kol-markazlari (call centre) va dasturlovchilari butun jahonga mashhurdir. Ammo iqtisodiyotni bunday lokal sektorlar yordamida rivojlantirish Hindistonning ijtimoiy siyosatida muammolarni keltirib chiqaradi. Mamlakat barcha aholisini ish o'rinnari bilan ta'minlay olmaydi, bunga yana bir sabab – barcha fuqarolarning ko'nikmalari va ma'lumotlari yetarli emasligidir.¹

O'zbekiston milliy taraqqiyot yo'lining samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda yuqorida tilga olingan davlatlarning boy tajribasi juda asqatadi, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda innovatsion taraqqiyotni amalga oshirish uchun turli mamlakatlarning ijobiy tajribalari singdirilgan milliy ijtimoiy siyosat tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tizimni shakllantirishda boshqa modellardan ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki mentalitet, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi, geo-grafik joylashuv, asrlar davomida o'rnatilgan hamkorliklar, mamlakatning salohiyati e'tiborga olinishi zarurdir

Tayanch so'z va iboralar:

ijtimoiy siyosat, ijtimoiy siyosatning xususiyatlari, liberal ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya modellari, ijtimoiy

¹.https://www.researchgate.net/publication/337672723_Singapur_innovacion_rivozlanisining_uga_hos_hususiatlari

himoya konsepsiyasi, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy xizmatlar, “Osiyo fenomeni”, “Osiyo qadriyatları”.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarini taxlil qilib bering?
- 2.AQSh liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘llari nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 3.Yevropa davlatlarida ijtimoiy siyosatining xususiyatlari nimalardan iborat?
- 4.Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
- 5.Davlatning ijtimoiy siyosati qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

7-mavzu: IJTIMOIY ShERIKLIK TIZIMI: HOKIMIYAT TUZILMALARI BILAN ALOQALARNI O'RNATISH

Reja:

- 7.1."Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi va uning tamoyillari
- 7.2. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g'oyalar evolyusiyasi.
- 7.3.O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari.

7.1."Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi va uning tamoyillari.

Ijtimoiy sheriklik – o'zaro hamkorlikning yangi va zamonaviy shakli bo'lib, bunda o'zaro munosabatga kirishayotgan sub'ektlarning huquq va erkinliklari tenglik asosida vujudga kelib, ular bir xil huquqiy maqomga ega bo'ladilar.

Ayrim ilmiy manbalarda «hamkorlik» va «ijtimoiy sheriklik» tushunchalari bir xil ko'rsatiladi. Fikrimizcha, ular o'rtasida muayyan farq mavjud. Agar ijtimoiy hamkorlikda o'zaro munosabatga kirishayotgan tomonlardan biri yuqori yoki quyi maqomga, yoxud bir tomon buyuruvchi, ikkinchi tomon bo'ysunuvchi shaklida munosabatga kirishsalar, ijtimoiy sheriklikda har ikki tomon ham bir xil maqomga ega bo'ladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki ijtimoiy hamkorlik keng ma'noga ega bo'lib, u sub'ektlar o'rtasidagi har qanday munosabatlarni ifoda etsa, ijtimoiy sheriklik esa, mohiyatan sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro tenglikka asoslangan munosabatni aks ettiradi.

Ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning Mehnat kodekslarida, mamlakatlarni strategik rivojlantirishga aloqador hujjatlarda, turli sohalarga oid uslubiy tavsiyalar va me'yoriy hujjatlarda mustahkam o'rin egallamoqda.

Ijtimoiy sheriklik XX asr oxiri va XXI asr boshlarida siyosiy barqarorlikni ta'minlashda, jamiyatda yangicha insoniy munosabatlarni shakllantirishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda. Ijtimoiy sheriklik dastavval mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida vujudga kelgan bo'lsa ham, hozigi kunda uning faoliyat yuritish sohalari mehnat munosabatlari doirasidan ancha chetga chiqadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida — sektorlararo ijtimoiy sheriklik konsepsiysi ko‘p mamlakatlarda, shu jumladan MDHga a’zo mamlakatlarda keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiya ko‘ra, ijtimoiy sheriklik sub’ektlari hokimiyat, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat. Sektorlararo ijtimoiy sheriklik ikki yoki uch sektor: davlat, biznes, notijorat sektor ijtimoiy muammolarini hal qilishda o‘zaro kelishilgan konstruktiv harakatlarni amalga oshirishni ifodalaydi. Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida” Qonunida ijtimoiy sheriklik sub’ektlari haqidagi 3-bobida shunday deyiladi: “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.”¹

Yevropa tajribasi kursatishicha, ijtimoiy sheriklik ish beruvchilar va ishlovchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muammolarini xal kilishda samarali vositalardan biri xisoblanadi. Hozirgi zamon jamiyatida ishlov-chilar asosan, kasaba uyushmalari tashkilotida birlashgan bo‘lib, fukarolik jamiyatining asosiy tashkil qilingan qismi hisoblanadi. Ijtimoiy sheriklik xaqida gapirganda, ko‘p xollarda mehnat munosabatlari soxasidagi shartnomalar ko‘zda tutiladi. Bundan tashkari, ish beruvchilar va ishlovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil qilish buyicha katta tajriba to‘plangan bo‘lib, uning tuzilishi Yevropa tarixi bilan uzviy bog‘lik bo‘lgan BMTning ixtisoslashgan tashkiloti - Xalkaro mexnat tashkiloti (XMT) da namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat qilib belgilangan: qonunga bo‘ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik;

¹ <https://www.lex.uz/docs/2468214>

hammaboplilik; mustaqillik; xolislik; o‘zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas’uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.¹

Ijtimoiy sheriklik g‘oyasi ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtirolardan biridir. Insoniyat ijtimoiy sheriklikning zururligini anglab yetishi uchun ko‘p asrlar kerak bo‘ldi. Bu jarayonda uzoq davom etgan konfrontatsiyani, murosasiz kurashlarni, keskin ijtimoiy nizolarni boshdan kechirishga to‘g‘ri keldi.

7.2. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g‘oyalar evolyusiyasi.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy fanlarga kirib kelganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Bu tushuncha dastavval mehnat munosabatlari doirasida va ularni tartibga solish maqsadida yaratildi. Kapital bilan mehnat, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o‘rtasidagi munosabatlar asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bo‘lsa ham, ularni tartibga soladigan ijtimoiy sheriklikning zarurligi va mumkinligini XIX asrning oxirlari - XX asr boshlariga kelibgina

anglay boshlandi. Bu davrgacha ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar goh pasayib, goh kuchayib davom etaverdi.

Bu ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi munosabatlar, ya’ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan edi. Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtiro sifatida XX asrda maydonga keldi. Ungacha ham odamlar orasida sheriklik munosabatlari mavjud bo‘lgan. Bunday munosabatlar minglab yillardan buyon davom etib keladi. Sheriklikning kurtaklari hatto yuqori darajada rivojlangan hayvonlar, masalan bo‘rilar, arslonlar, sirtlonlar va Afrikadagi sirtlonsimon itlar galalarida ham ko‘zga tashlanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun bu hayvonlarning har biri ov jarayonida o‘zlarining hatti –harakatini sheriklarining hatti-harakatlari bilan moslashtirib amalga oshiradi. Bu sheriklikning kurtaklari

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni.
<https://www.lex.uz/docs/2468214>

va ibtidoiy ko‘rinishlari edi.

Ijtimoiy sheriklikning XX asrgacha jamiyatda mavjud bo‘lgan sheriklikdan asosiy farqi shundaki, avvallari sheriklik alohida shaxslar, nari borsa, kichik guruuhlar o‘rtasidagi sheriklikdan iborat edi. Masalan, bir jamoada mehnat qilayotganlar, bir kasb egalari, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar biror yumushni bajarishda bir-birlari bilan sheriklik qilar edi. Sheriklikning bu ko‘rinishi hozir ham davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy sheriklik sheriklikning rivojlanishidagi yangi yuksak bosqichni ifodalaydi. Ijtimoiy sheriklik alohida shaxslar yoki kichik guruuhlar emas, katta ijtimoiy guruuhlar o‘rtasidagi sheriklikni bildiradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hali katta ijtimoiy guruuhlar vujudga kelmagan edi. Jamiyat kichik guruuhlar (oila va ibtidoiy gala)dan tashkil topgan bo‘lib ularning orasida tez-tez ziddiyatlar paydo bo‘lar edi. Bu ziddiyatlar asosan hudud va tirikchilik manbalarini talashish oqibatida yuz berar edi.

Jamiyatning manfaatlari bir-biriga zid bo‘lgan katta ijtimoiy guruuhlar: qullar va quldorlar sinfiga bo‘linishi manfaatlar zidlagini keskinlashtirib yubordi. Manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi manfaatlari poymol etilayotgan sinf-qullarning stixiyali chiqishlari isyon va qo‘zolonlarga olib keldi. Bunday isyonlarni bostirish uchun quldorlar mirshablar va armiya singari tuzilmalarni tashkil qildi. Quldarlar mafkurasi quldorlarning oliy tabaqa ekanini asoslashga, odamlar o‘rtasidagi mulkiy va huquqiy tengsizlikni ilohiy kuchlar irodasi bilan ifodalashga harakat qilar edi.

Feodalizmga o‘tish bilan bog‘liq yangi ijtimoiy guruuhlar: feodallar va dehqonlar sinfining vujudga kelishi ular o‘rtasidagi ziddiyatni shaklan biroz yumshatdi. Zamindorlar dehqonlarga anchagina yon bosishdi: ularga oila qurish, hosilning muayyan ulushini olish huquqi berildi. Biroq zamindorlar mafkurasi feodallar, ular ichidagi tabaqalar: dvoryanlar, graf, markiz, gersog va hokazolarning asilzodaligi, ular oliy irq vakillari ekani ma’budlar irodasi bilan belgilanganini asoslashga xizmat qilar edi. Dehqonlarning to‘la tizim shakliga kelmagan mafkurasida esa adolatli podsho, mehribon zamindor to‘g‘risidagi orzu-umidlar

ifodalanar edi. Ayni paytda bu mafkura beshafqat xo‘jayinlarni qoralar edi. Ko‘rinib turganidek, quldorlar mafkurasi faqat quldorlar manfaatini, zamindorlar mafkurasi feodallar manfaatini ifoda va himoya qilar edi. Bu mafkuralar ezilayotgan muqobil sinflar: qullar va dehqonlar manfaatini mutlaqo o‘ylamas edi.

Kapitalizm davrida ishchilar kapitalistlar bilan shaklan teng huquqlarga ega bo‘lishdi. Ularning huquqiy holati va maishiy turmushi dehqonlarnikiga qaraganda shaklan ancha yuqori edi. Lekin ular ham tirikchilik qilish uchun o‘zlarining kuch va qobiliyatlarini sarmoyadorlarga sotishga majbur edilar. Kapitalistik tuzumning dastlabki bosqichlarida ishchilar juda cheklangan miqdordagi shaxsiy mulkka ega edilar, ularning asosiy ko‘pchiligi qashshoq turmush kechirar edi. Bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy larzalarga barham bera olmasdi.

Ishchilar va dehqonlarning isyonlari yangi davrda ham davom etaverdi. Kapitalistlar mafkurasi sarmoyadorlarning manfaatini quldorlar va feodallar mafkurasi singari niqobsiz ifodalamas edi. Bu mafkura endi hukmron sinf manfaatini pardali tarzda himoya qila boshladi. Ya’ni endi kapitalistlarning boyligi ularning aqli zakovati, harakatchanligi, ishchanligi, topqirligi kabi sifatlari bilan izohlana boshlandi. Ishchilar ham aql-zakovatini ishga solsa, ishchan va topqir bo‘lsa bemalol boyib ketishi mumkinligi targ‘ib qilindi.

Kapitalizmning dastlabki bosqichlarida shakllanib ulgurmagan ishchilar mafkurasi keyinchalik tizim holiga kela boshladi. Ana shunday tizimlardan biri sotsialistik revolyusiya nazariyasi edi. Bu mafkura go‘yo ishchilar manfaatini aks ettirsa ham, muqobil sinf –kapitalistlarni faqatgina qoralab qolmay, ularni butunlay, tag-tomiri bilan yo‘q qilishga chaqirar edi.

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida mehnat unumdligining o‘sishi va isyonlar kapitalistlarni biroz yon bosishga undadi. Ular ishchi aristokratiyasi, deb atalgan qatlamga biroz imtiyozlar berdilar. Lekin bu holat ham isyonlarga barham bera olmadı. Isyon va qo‘zg‘olonlar davom etaverdi. Ana shunday isyonlarning yuqori cho‘qqilaridan biri Oktyabr to‘ntarishi bo‘ldi. Bu to‘ntarish dohiylari ekspluatatsiya yo‘q qilingan yangi sotsialistik tuzum qurilgani to‘g‘risida bong urishsa ham aslida ekspluatatsiya tugatilmadi. Kapitalizm davrida

ishchilarni ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga kelgan qo'shimcha qiymatni kapitalistlar o'zlashtirgan bo'lsa, endi ishchilar mehnati tufayli yaratilgan qo'shimcha qiymatni markaz, davlat va uning amaldorlari o'zlashtira boshladи.

Sotsialistik tuzum, deb atalgan tuzum aslida kapitalistik munosabatlarning yangi shakli-davlat kapitalizmi bo'lib chiqdi. Bu tuzum davrida ishchilarni ekspluatatsiya qilishdan tashqari, chekka o'lkalarni xomashyo bazasiga aylantirildi va shu shaklda milliy ekspluatatsiya ham davom etaverdi. Ekspluatatsiyaga qarshi noroziliklarni bostirish uchun kuchli repressiya apparati tashkil etildi. Buning oqibatida nafaqat alohida shaxslar, balki butun xalqlar qatag'onga uchradi. Ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilar o'rtasida XX asr boshlarigacha tom ma'nodagi sheriklik mavjud bo'lmasidagi. Ularning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar ko'pincha zabastovkalar, stachkalarga va isyonlarga aylanib ketgan.

XX asrgacha mavjud bo'lgan sheriklik alohida shaxslar va kichik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib kelgan bo'lsa, ijtimoiy sheriklik katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga sola boshladи. Masalan, ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilarning manfaatlari o'rtasidagi asosiy ziddiyat shundan iborat ediki, sarmoyadorlar yollanma ishchilarni ko'proq ishlatib kamroq haq to'lashdan, yollanma ishchilar esa kamroq ishlab ko'proq haq olishdan manfaatdor edilar. Bu ziddiyatni tahlil qilgan Marks uni hal qilishning yo'li faqat bitta-sotsialistik revolyusiyani amalga oshirish, degan xulosaga kelgan edi.

Ana shu nazariya asosida Rossiya 1917 yil oktyabr oyida davlat to'ntarishi amalga oshirildi va proletar diktaturasi o'rnatildi. Bu hodisa go'yo Marksning sotsialistik revolyusiya nazariyasi to'g'riliqini tasdiqlayotganday tuyular edi. Aslida bu hol Marks nazariyasining to'g'riliqi tufayli emas, insoniyat hali taraqqiyotning boshqa yo'li- ijtimoiy sheriklik yo'li ham mavjudligini kashf etib ulgurmagan tufayli vujudga kelgan edi.

Ijtimoiy nizolarni tizimli tahlil qilish bo'yicha dastlabki urinislarni italiyalik davlat arbobi va nazariètchi Nikkolo Makiavelli amalga oshirgan edi. U birinchilardan bo'lib nizolarning faqat vayronkor emas, balki yaratuvchilik funksiyalari ham mavjudligiga e'tibor qaratdi. Bunda u nizolarga to'g'ri ta'sir

o‘tkazish zarurligini ta’kidladi. Uning fikriga ko‘ra bunday vazifani davlat bajarishi lozim edi. Ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimini birinchilardan bo‘lib angliyalik Frensis Bekon nazariy tahlil qildi. U ijtimoiy tabaqalarning fikrlarini mensimaslik, boshqaruv jaraenidagi xatoliklar, mish-mishlar va g‘iybatlarning tarqalishi jamiyatdagi nizolarning paydo bo‘lishiga olib kelishini dalillar bilan ko‘rsatib berdi. Odamlar o‘rtasida ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligi g‘oyasi Tomas Gobbsning asarlarida baen qilindi. Mazkur shartnoma jamiyatning o‘zini o‘zi himoya qilishi hamda xususiy mulkning abadiy bo‘lishiga xizmat qiladi. Uning “Leviafan”, “Fuqarolar haqidagi ta’limotning falsafiy elementlari” asarlarida ijtimoiy shartnomaga erishish zarurligi asoslab berilgan. Bunday shartnoma umumiyligi kelishuv hamda xususiy mulkning xavfsizligini ta’minalashga xizmat qiladi.¹

Ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimini birinchilardan bo‘lib angliyalik Frensis Bekon nazariy tahlil qildi. U ijtimoiy tabaqalarning fikrlarini mensimaslik, boshqaruv jarayonidagi xatoliklar, mish-mishlar va g‘iybatlarning tarqalishi jamiyatdagi nizolarning paydo bo‘lishiga olib kelishini dalillar bilan ko‘rsatib berdi.

Odamlar o‘rtasida ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligi g‘oyasi Tomas Gobbsning asarlarida bayon qilindi. Mazkur shartnoma jamiyatning o‘zini o‘zi himoya qilishi hamda xususiy mulkning abadiy bo‘lishiga xizmat qiladi. Uning—Leviafan,—Fuqarolar haqidagi ta’limotning falsafiy elementlari asarlarida ijtimoiy shartnomaga erishish zarurligi asoslab berilgan. Bunday shartnoma umumiyligi kelishuv hamda xususiy mulkning xavfsizligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Yangi davrga kelib ma’rifatparvar faylasuf Jan-Jak Russoning ijtimoiy shartnoma to‘g‘risidagi g‘oyalari keng tarqaldi. Uning asarlarida ijtimoiy shartnoma odamlar o‘rtasida yo‘qotilgan ijtimoiy munosabatlarning uyg‘unligini, o‘zaro kelishuv va tinchlikka intilishni qayta tiklaydi.

Yollanma ishchi va ish beruvchi kapitalist o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar Adam Smit asarlarida ilk bor tahlil qilindi. Xo‘jalik yuritishning asosiy maqsadi

¹.<http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/3531/html/85096/%E2%80%9D%D0%B3j%C2%A0%D0%B0%C2%AE%C2%AB%D0%81%D0%84%2012%20%C2%AC%C2%A0%D1%9E%C2%A7%D0%B3.htm>

foyda olish ekanini e'tirof etar ekan, u erkin raqobat, xususiy mulk humronligi, savdo-sotiq erkinligi, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi iqtisodiy hayotning —tabiiy tartibi bilan degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, yollanma ishchilar va kpitalistlar o'rtasidagi o'zaro kurash jamiyatning rivojlanib borishi manbai, raqobat esa insoniyat uchun farovonlik keltiruvchi hodisadir.

Nemis faylasuflari Leybnis va Immanuil Kant fikriga ko'ra odamlar o'rtasidagi murosa va tinchlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotda shartnomaga kompromissiga erishish asosida ta'minlanishi lozim. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro mahsulot almashish g'oyasi hamda turli ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi kurash muammolarini Per Jozef Prudon tomonidan tadqiq qilindi.

Fransiyalik olim Lui Ogyust Blanki kapitalistik jamiyatni tanqid qilar ekan tarixiy taraqqiyotni ma'rifatning tarqalishi va shu asosda madaniy-ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi sifatida talqin qildi. Ijtimoiy sheriklikning nazariy konseptual asoslari ijtimoiy harakat nazariyasi, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy kelishuv, ijtimoiy jipslik to'g'risidagi g'oyalar asosida shakllandi.

M.Veber fikriga ko'ra an'anaviy harakat tahlil qilish hamda oqilona tanqid qilish mumkin bo'lмаган madaniy an'analarda mustahkamlangan xulq-atvor namunasidir. Harakatning mazkur tipi ahamiyati odamlarning kundalik xulq-atvori ko'pincha ana shu tarzda yuz berishi bilan belgilanadi. Bunday harakatlarda hal qiluvchi rolni urf-odatlar, turli darajada anglangan odatlarga sadoqat o'ynaydi.

Ijtimoiy harakat nazariyasi amerikalik sotsiolog Parsons tomonidan tadqiq etildi. U sub'ektlarning o'zaro ta'siri mexanizmlarini tadqiq qildi. Bunda u ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan me'yorlar, xulq-atvor andozalari faoliyatning ichki motivlariga aylanishi jarayoniga alohida ahamiyat berdi. Muvozanat, konsensus, ijtimoiy tizimning me'yoriy holatidagi eng muhim belgilar ekaniga e'tibor qaratar ekan T.Parsons ana shu holatni nazorat qilish va tartibga solish jarayonlariga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, aynan ana shu jaryonlar jamiyatni ko'ngilsiz nizolardan himoya qiladi. Uning tadqiqotlarida konsensus muammozi o'zaro kelishilgan harakat yo'llarini izlash bilan bevosita bog'liq tarzda tadqiq

etiladi. Bunday o‘zaro ta’sir sheriklarning o‘zaro ekspektatsiyalariga, ya’ni birlaridan kutayotgan harakatlar va natijalarga asoslanadi.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy va tashkiliy asoslaridan biri bo‘lgan konsensusni nemis sotsiolog Yu.Xabermas demokratianing muqobili sifatida talqin qiladi. Uning talqinida demokratik usul jamoa va jamiyatni ikkiga: ko‘pchilik va ozchilikka bo‘lib qo‘yadi. Konsensus esa bo‘lingan jamoa va jamiyatni birlashtiradi. Bunga u hal qilinayogan muammoga nisbatan ko‘pchilikning fikrini aniqlash yo‘li bilan emas, barcha tomonlar qarshi bo‘lmagan yechimni topish yo‘li bilan erishadi. Konsensusga erishish uchun manfaatlari va yondashuvlari bir-biriga unchalik mos kelmayotgan tomonlar hech bir tomon qarshi bo‘lmagan yechimni topishga harakat qilishlari va topishlari kerak.¹

Konsensus mohiyatan kelishuvni bildiradi. Lekin uning XX asrgacha mavjud bo‘lgan kelishuvlardan farqi shundaki, u kelishuvga erishishning yangi samarali amaliyotini yaratdi. Unga ko‘ra manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan tomonlar o‘zaro munosabat va muzokaraga kirishar ekan, ular avvalo bir-birlariga yon bosishlari kerak. Qolaversa, ular barchani qoniqtiradigan, hech bo‘lmaganda hech qaysi tomonda qarshilik uyg‘otmaydigan yechimni topishga harakat qilishlari va topishlari lozim. Bunday yechimning topilishi konsensusga erishganlikni bildiradi.

Ijtimoiy sheriklik tarixi va tadrijini qisqacha ko‘rib o‘tish shundan guvohlik beradiki, ungacha mavjud bo‘lgan barcha nazariya va mafkuralar faqat u yoki bu sinf, ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalagan. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi munosabatga kirishuvchi barcha ijtimoiy guruhlar manfaatini uyg‘unlashtirilgandagina jamiyatda totuvlik va ijtimoiy barqarorlik vujudga kelishi mumkinligini asoslaydi. Shuning uchun bu nazariya u yoki bu sinf nazariyasi emas, o‘zaro munosabatlarga kirishayotgan barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish orqali ifodalaydigan nazariya hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim sharti va asosi hisoblanadi.

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konsensus-uz/>

7.3.O‘zbekistondat ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inqilobiy yo‘l emas, ijtimoiy sheriklik mamlakatlarni farovon hayotga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Biz ana shu sheriklik yo‘lini tanladik. Lekin bu G‘arb mamlakatlari tajribasini mexanik tarzda O‘zbekistonga ko‘chirishni anglatmaydi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” shiori o‘rtaga tashlandi. Birinchi Prezident Islom Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi”da ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish zarurati to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, jumladan shunday deyilgan edi: “Fuqarolik jamiyatni institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraliqi va samaradorligini ta’minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim”.¹

Fuqarolik jamiyatni institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraliqi va samaradorligini ta’minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning² qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini

¹ <https://lex.uz/acts/1725514>

² <https://www.lex.uz/docs/2468214>

himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2014 yil 18 iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2014 yil 28 avgustda ma’qullangan va prezident tomonidan 2014 yil 25 sentyabrda imzolangan. Ushbu qonun 30 moddadan iborat bo‘lib, maqsadi ijtimoiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Qonunga muvofiq, ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik sub’ektlaridir.

Qonunda Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari belgilab berildi.

Ijtimoiy sheriklik quyidagi sohalarda amalga oshirilishi mumkin:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;
- aholining bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish;
- atrof muhitni, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish;
- har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish;
- onalik va bolalikni, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, sog‘lom oilani shakllantirish;
- fan, ta’lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;

- aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;
- millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an'anaviy ma’naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;
- iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish.

Qonunning 6-moddasida Ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari quyidagicha belgilangan:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruqlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;
- ijtimoiy sheriklik sub’ektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o’tkazish;
- ijtimoiy sheriklik sub’ektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitimlar va shartnomalar (bundan buyon matnda bitimlar va shartnomalar deb yuritiladi) tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ijtimoiy sheriklik sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro qo’llab-quvvatlash, axborot almashish¹.

Qonunning 9-moddasiga asosan ijtimoiy sheriklik sub’ektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o’tkazish tartibi belgilab qo‘ylgan. Ijtimoiy sheriklik sub’ektlari birgalikda:

¹ <https://www.lex.uz/docs/2468214>

- konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar, jamoatchi muhokamalari, hasharlar, festivallar, sotsiologik so‘rovlар shaklida va boshqa shakllarda birgalikda tadbirlar;

- bitimlar va shartnomalar tuzishga, birgalikdagi loyihalar hamda rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishga, birgalikda tadbirlar tashkil etishga qaratilgan maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazishi mumkin.

Maslahatlashuvlar va muzokaralar birgalikdagi uchrashuvlar va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarining fikrlarini so‘rash, ular ishtirokida davlat organlari huzurida ishchi guruqlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari tuzish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash turlari quyidagilardan iborat:

- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o‘quv-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

- nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga moddiy yordam ko‘rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qonun hujjalariiga muvofiq imtiyozlar berish;

- nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari berish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish.

Ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga qonun hujjalarda belgilangan tartibda shartnoma asosida davlat mulki tekin yoki imtiyozli shartlarda vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini axborot, maslahat, tashkiliy va o‘quv-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

- ijtimoiy sheriklik sohasidagi axborotdan erkin foydalanish uchun shartsharoitlar yaratish;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishdagi ishtiroki masalalariga doir uslubiy materialarni ishlab chiqish hamda nashr etish;

- ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda bilim beruvchi tadbirlar, uslubiy maslahatlar, ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar o'tkazish;

3-bob ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasiga bag'ishlangan. Unda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turlari ko'rsatilib, ular orasida nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari aks ettirilgan. Masalan, 13-moddada ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomaga asosida davlat mulki tekin yoki imtiyozli shartlarda vaqtincha foydalanishga berilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa davlat tomonidan nodavlat sektorga beriladigan salmoqli va muhim mulkiy ko'makdir. Ayniqsa, doimiy ish joyiga (bino, ofis) ega bo'lmay, sarson bo'lib yurgan nodavlat notijorat tashkilotlar uchun bu ko'makning ahamiyati beqiyos.

Bundan tashqari, qonunning ushbu bobida Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasiga o'xshash tuzilmalarni joylarda ham tuzish nazarda tutilmoqda.

Xususan, qonunning 17 va 18-moddalariga muvofiq Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarini tuzish, shuningdek, ularning vazifalari belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, qonunning mazkur bobida davlat subsidiyasi, davlat granti, davlat ijtimoiy buyurtmasi va ularni berish tartibi mustahkamlandi.

Ushbu masalada yana bir yangilik shuki, endilikda davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasi nafaqat Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan, balki joylarda tashkil etiladigan jamoat fondlari orqali ham berilishi belgilandi. Bu esa uzoq tumanlarda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat iqtisodiy ko'magini olish uchun markazga kelib-ketish bilan bog'liq sarf-xarajatlari va vaqtlarini tejash imkonini beradi.

Qolaversa, grant tanlovlaringin joylarda tashkil qilinishi mahalliy davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga qiziqishini orttiradi. Ularning fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ko'tarilayotgan turli xil muammolardan xabardor bo'lib borishiga va muammolarni birgalikda hal etish choralarini ko'rishiga yordam beradi.

Qonunning 4-bobida ijtimoiy sheriklik sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini sanab o'tilgan. E'tiborlisi shundaki, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining huquqlari davlat organlarinikiga nisbatan qariyb ikki baravar ko'p, majburiyatlar esa ikki baravar kam qilib belgilangan.

Masalan, 23-moddada nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqish, davlat organlariga takliflar kiritish huquqi berilgan bo'lsa, 26-moddada bunday tashabbus va takliflarni ko'rib chiqish davlat organlarining majburiyati sifatida belgilangan.

Qonunning oxirgi 5-bobida yakunlovchi qoidalar berilgan. Ushbu bob asosan qonunchilik texnikasi va amaliyotidan kelib chiqib kiritilgan bo'lib, nizolarni hal etish, ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish hamda qonunning kuchga kirishi masalalarini tartibga soladi.

Albatta, ushbu qonun mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish bo'yicha o'tkazilayotgan keng ko'lamli ishlar samaradorligini

oshirishga, katta ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar va qonun hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida aholining keng qatlamlari manfaatlarining har tomonlama hisobga olinishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Shuni unutmaslik kerakki, Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi Qonunin”da ijtimoiy sheriklik sub’ektlari davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari deb ko‘rsatilishi mamlakatimizda mehnat munosabatlarda ham ijtimoiy sheriklik mavjudligini inkor qilmaydi. Mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy sheriklik masalalarini O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi” va o‘ttizdan ortiq qonunlari va boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlari tartibga soladi. Bu haqda “Mehnat Kodeksi”ning 1-moddasida shunday deyiladi:“O‘zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek, jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.”¹

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari mamlakatimizda dunyonig ko‘p mamlakatlarida bo‘lgani singari bipartizm (ikki tomonlama) shaklida, masalan, jamoa shartnomalari hamda tripartizm (uch tomonlama) masalan, ish beruvchilar, yollanma ishchi va xizmatchilar hamda davlat hokimiyati organlari yoki ularning vakillari ishtirokida olib borilmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar:

ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy hamkorlik, sektorlararo ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari, ijtimoiy guruxlar, ibridoijamoa, feodal munosabatlar, kapitalizm, sotsializm, ijtimoiy nizolar, ijtimoiy shartnoma, konsensus.

Nazorat uchun savollar:

- 1.”Ijtimoiy sheriklik” tushunchasining moxiyati nimada?
2. Ijtimoiy sheriklik tamoyillari nimalarda ifodalanadi?
3. Ijtimoiy sheriklikning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini izoxlab bering?

¹ https://nrm.uz/contentf?doc=316361_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

4. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g‘oyalar evolyusiyasini taxlil qilib bering?
- 5.O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

8-mavzu:O‘ZBEKISTON IJTIMOIY SIYOSATINING STRATEGIYaSI VA USTIVOR YO‘NALISHLARI

Reja:

- 8.1.Strategiya tushunchasi va uning nazariy asoslari.
- 8.2.Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari.
- 8.3.O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichi.

8.1.Strategiya tushunchasi va uning nazariy asoslari.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Bugun O‘zbekiston ham o‘z tarixining ana shunday mas’uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g‘oyaga aylanmoqda.

Strategiya — bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika — strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilinganbo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'ektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo'limganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo'ladi. Aynan shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Strategiyani amalga oshirish eng mas'uliyatli jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvaffaqiyati ta'minlanadi. Mabodo teskari bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir. Strategiyani baholash va nazorat qilish strategik rejelashtirishni mantiqiy yakunlovchi omili bo'lib hisoblanadi. Uhodisalarning qayta aloqalanishini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'inlardagi bog'lanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zaruratda strategik rejalarни o'zgartiradi.

Davlat strategik rejalarini aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog'i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ

yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog‘liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo‘g‘inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo‘lim rejalarining kelishuvi bilan ta’milnadi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug‘diradi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur’atlariga, shaxsiy mas’uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan o‘zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, strategik yo‘nalishlarni belgilashning mavhum va noma’lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Istiqlol maqsadlarni qo‘ygan davlatlarning aksariyati milliy strategik muvaffaqiyatlarni YaIMning o‘sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o‘tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko‘paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu omillarni inkor etmagan holda bugun O‘zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g‘oyaviy e’tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta’minalash asnosida amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bejizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa, xalqning davlatga

bo‘lgan munosabatini o‘zgarayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yo‘nalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarda o‘z ifodasini topmoqda.¹

8.2.Davlat strotegiyasining tizimli boshqaruv omillari.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob’ektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishslash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi.

Davlatning harakatlar strategiyasi yetaklovchi lokomotiv kuchi — bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bog‘liq hodisa. U boshqaruv mahorati bilan uzoqqa mo‘ljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimiz parlamentning

¹ Alimardonov T. Harakatlar strategiyasi — O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi / <https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>

muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijo hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi.

Boshqaruvida adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud — oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko'ra bunyodkorlik qilish afzal bo'ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat

ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘sish sur’atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o‘zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongingin in’ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma’rifati bilan qurollangan bo‘lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to‘lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo‘ladi. U, o‘z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o‘rinlarning paydo bo‘lishiga, aholining real daromadi va shunga muvofiq turmush darajasining o‘sib borishiga xizmat qiladi.¹

8.3.O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichi.

O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari etib kuyidagilar belgilangan:

- axolining iktisodiy faolligini kullab-kuvvatlash;
- maxsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste’mol bozorini shakllantirish;
- axolining tulov talablarini keng mik,yosda kondirish va uning usishini ta’minlash;

Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy yunalishlari kuyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy suturta fondini tashkil etish;
- ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mexnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish xaki va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;

¹ Alimardonov T. Harakatlar strategiyasi — O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi / <https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>

- ko‘p bolali oilalarga tulanadigan nafaqalarni muntazam muvofiklashtirib borish;
- kam ta’minlangan axoli tabaqalariga moddiy yordam kursatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mexnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalar minimum mikdorini muvofiklashtirish;
- ishsizlik nafakasini ist’emol savati va ish staji bilan muvofiklashtirib borish;
- eng muxim ozik-ovkat maxsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;
- ijtimoiy axamiyatga ega blgan xizmatlar baxolaridagi farklarni byudjet xisobidan koplash;
- ijtimoiy soxaning eng muxim tarmoklari (sog‘likni saklash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini rivojlan-tirishni qo‘llab-quvvatlash va mustaxkamlash.¹

Mamlakatimizda axoli daromadlari va turmush darajasini oshirishga karatilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, axoli jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri kelgan pul daromadlari, ish xaki va pensiyalar usishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi.²

Axolining tadbirkorlik faoliyatidan, mulki va mustakil ravishda bandlikdan olinadigan daromadlari tez sur’atlar bilan o‘smokda. Buning okibatida o‘rta sinf ko‘lami tobora kengayib bormokda.

Bozorning shunday oqibatlari borki, bunda ma’lum toifa himoyaga muxtoj bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham sivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi. Ijtimoiy himoyalashdagi muxim masala axolini bozor baxosining tez o‘sishi, inflyatsiya ta’siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bog‘likdir. Kuchli

¹ Abulkosimov X.P. Ik,tisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. - T.: «Noshirlik yogdusi», 2018. -217-218-b.

² Analiz razvitiya urovnya jizni i blagosostoyaniya naseleniya v Respublike Uzbekistan. // stat.uz, nashr etilgan: 21/07/2017; Sotsialno-ekonomiceskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2017 god.

ijtimoiy siyosat axolining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ishonchli, aniq manzilli, ya’ni shunga muxtoj axoli guruxlarini ijtimoiy himoya kilishga qaratiladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

strotegiya, harakatlar strotegiyasi, taktika, davlat strotegiyasining nazariy asoslari, davlat strotegiyasi, strotegik maqsadlar, tizimli boshqaruv, milliy taraqqiyotning yangi bosqichi, modernizatsiyalash, ijtimoiy himoya.

Nazorat uchun savollar:

1. Strotegiya tushunchasini sharxlab bering?
2. Davlat strotegiyasining tizimli boshqaruv omillariga nimalar kiradi?
3. O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Strotegiya tushunchasining nazariy asoslarini izohlab bering?

9-mavzu: IJTIMOIY SUG‘URTA: HUQUQ, MOLIYa, VA IQTISODIYoT.

Reja:

- 9.1. Ijtimoiy sug‘urta tushunchasi, moxiyati va shakllari.
- 9.2. Ijtimoiy sug‘urtaning modellari va turlari.
- 9.3. Ijtimoiy sug‘urta tizimini isloq qilishning asosiy yo‘nalishlari.

9.1.Ijtimoiy sug‘urta tushunchasi, moxiyati va shakllari.

Sug‘urta tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog‘in va b.), har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamlari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug‘urta ko‘p asrlik tarixga ega. Xavf-xatarni odamlar o‘rtasida taqsimlash g‘oyasi insoniyat paydo bo‘lganidan beri bor. Bu xoh bug‘ularni guruh bo‘lib ovlash bo‘lsin, xoh yuklarni bir necha karvonga taqsimlab yuborish bo‘lsin, buning hammasi sug‘urtaning ilk ko‘rinishlari hisoblanadi.

Ilk yozma sug‘urta polisi qadimgi Bobilda podshoh Xamurappi tomonidan biltilgan bo‘lib, "Xammurappi kodeksi" nomi bilan atalgan. Bu qonunlar o‘sha davr uchun juda muhim hisoblanib, hozirgi davr sug‘urtasining asosini tashkil etadi. Uning qonunlariga ko‘ra, sug‘urtalangan shaxs favqulotda holatlardan, o‘lim, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlardan zarar ko‘rsa, u o‘z yonidan zararni qoplamagan.¹

O‘rta asrlarda hunarmandlar gildiyaga birlashib ishlaganlar. Katta ustalarning qo‘lida yosh tajribasiz bolalar tekinga yoki arzimagan chaqaga mehnat qilishgan. Vaqt kelib ular ham katta bo‘lishganida gildiyaga qarzlarini to‘lab usta darajasini olishgan. Gildiyalar keladigan mablag‘larni hozirgi sug‘urtalarning ishini bajarishga sarflaganlar. O‘rta asr Yevropasida ko‘p narsa yog‘ochdan yasalganini hisobga olsak, ustaning mehnati yong‘inga uchrasa gildiya o‘z mablag‘idan ustaning ko‘rgan zararini qoplab bergen. Agarda ustani o‘g‘ri ursa u yana qayta foydaga chiqib olguncha gildiya ustani mablag‘ bilan ta’minlab turgan. Usta o‘lsa yoki nogiron bo‘lib qolsa gildiya uning oilasiga ham moliyaviy ko‘mak berib turgan.

Sug‘urta muassasalari dastlab o‘rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavfxatarlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Keyinchalik boshqa sohalarga ham yoyildi. Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug‘urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita bo‘lgan.

1666 yilda Londonda katta yong‘in bo‘lib, 14 ming atrofida binoni vayron qildi. Buning natijasida London vayronaga aylandi, omon qolganlarning uylari yonib kul bo‘ldi. Londonni yonib ketishidan keyin boshlangan xaos va g‘azabga javoban, dengiz sug‘urtasi bilan shug‘ullanadigan sug‘urta kompaniyalari yong‘indan sug‘urta qilishni taklif etgan sug‘urta kompaniyalarini tashkil qildi. Paskalning uchburchagi bilan qurollangan ushbu kompaniyalar tez orada o‘z biznesini kengaytirdi. 1693 yilga kelib, birinchi o‘lim jadvali Paskalning uchburchagi yordamida yaratilgan va tez orada hayotni sug‘urtalash boshlangan rejani amalga oshirdi.

¹ <https://tiyin.uz/news/sugurta-tarihi.html>

Sug‘urta kompaniyalari Yevropada, ayniqsa sanoat inqilobidan so‘ng rivojlandi. Amerikada hikoya juda boshqacha edi. Kolonistlarning hayoti hech qanday sug‘urta kompaniyalari tomonidan kafillikka olinmagan edi. Oziq-ovqat yetishmasligi, mahalliy aholi va kasalliklar bilan bog‘liq urushlar natijasida har to‘rt kolonistning deyarli uchtasi 40 yoshiga yetmasdan halok bo‘ldi. Amerikaga sug‘urtaning kirib kelishi uchun 100 yildan ko‘p vaqt kerak bo‘ldi. Nihoyat, u o‘sha davrda Yevropada ishlab chiqilgan amaliyot va tajriba asosida tadbiq etildi.¹

Ijtimoiy sug‘urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqasizlarni ta’minlash, yordam ko‘rsatish tizimi. Ijtimoiy sug‘urta kutilmagan ijtimoiy hodisalar turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, nogronlik, keksalik, homiladorlik, o‘lim hollari), hududiy doirasi (davlat sug‘urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) bo‘yicha turkumlanadi, ko‘ngilli va majburiy turlarga bo‘linadi. Davlat sug‘urta jamg‘armasi, shuningdek, jamoa va xususiy jamg‘armalari hisobidan amalga oshiriladi

Sug‘urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarga, ularning roziligi bilan ko‘rsatiladi. Ixtiyoriy sug‘urta turlariga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki sug‘urtasi, transport vositalari . sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi, moliyaviy va tadbirkorlik risklari sug‘urtasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ixtiyoriy sug‘urta turlari sug‘urta munosabatlarda qatnashuvchi tomonlarning o‘zaro roziligi va yozma shartnomalar asosida amalga oshiriladi, Sug‘urta javobgarligi hajmi (sug‘urta narxi), sug‘urta badali (mukofoti) mikdori, sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘lanadigan sug‘urta puli (sug‘urta qoplamasи, tovoni) summasi — shartnomalar shartlari sug‘urta qiluvchi bilan sug‘urta qilinuvchi tomonlar o‘rtasida kelishiladi.

Ixtiyoriy sug‘urtadan farqli ravishda majburiy sug‘urta qonunchilik hujjalari asosan o‘tkaziladi va bunda ko‘rsatilgan yuridik hamda jismoniy shaxslarning manfaati ularning irodasidan qat’i nazar, majburiy sug‘urta qilinadi. Masalan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug‘urtasi majburiy shaklda

1 <https://tiyin.uz/news/sugurta-tarihi.html>

amalga oshiriladi. Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, avtomobil transportidagi yo'lovchilar ham majburiy sug'urta qilinadi.

Shu yerda alohida ta'kidlash zarurki, majburiy sug'urta turlari bilan bir qatorda majburiy davlat sug'urta turlari ham mavjud. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi harbiy xizmatchilari baxtsiz hodisalardan sug'urta qilinadilar. Shuningdek, Davlat soliq organlari xodimlari ham majburiy davlat sug'urtasiga olinadi. Majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmat haqlari – sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bunday himoyaning asosiy maqsadi sug'urta hodisalarini sifatida talqin qilinadigan ba'zi salbiy hodisalar oqibatlarini minimallashtirishdir.

Shuni ta'kidlash joizki, mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqeа (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnomada qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta tovoni to'lash) majburiyatini oladi.

9. 2. Ijtimoiy sug'urtaning modellari va turlari.

Rivojlangan mamlakatlarda Sug'urta ishi nihoyatda taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sug'urta badal (mukofot)lari hajmi o'rtacha 8—12% ni tashkil etadi.

Sug'urta qilinadigan ob'ektga qarab sug'urta quyidagi turlarga bo'linadi:

- mulkiy sug'urta (mas, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlari, binolar, ekinlar, uy hayvonlari, molmulk, transport vositalarini sug'urtalash);
- shaxsiy sug'urta (inson, sog'lig'i, hayoti, mehnat qobiliyatini sug'urtalash);
- uchinchchi shaxslar oldidagi javobgarlik sug'urtasi (transport egalarining fuqarolik javobgarligini, kredit oluvchilarning bank oldidagi kreditni o'z vaqtida qaytarish javobgarligini sug'urtalash va b.).

Sug‘urta turlari, tartibi va shartlari, ob’ektlari mamlakatdagi qonunchilik bilan belgilanadi.

Avvalo shuni ta’kidlash o‘rinliki, shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi bu — hayotni sug‘urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Jabrlanuvchi esa — o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, sug‘urta tovonini olish huquqiga ega bo‘lgan xodim.

Yana bir tushunchaga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, bu ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning u mehnat shartnomasi bo‘yicha o‘z vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o‘tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa. Mehnatda mayib bo‘lish — xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi.

Sug‘urta hodisasi deganda, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt.

Xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganda

uning mulkiy manfaatlari ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish ob’ekti hisoblanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish qoidalarida ish beruvchi u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan yoki ish beruvchilar - jismoniy shaxslar uchun mehnat shart-nomasi tuzilgan sanadan boshlab 15 ish kunidan kechikmay mehnatda shikastlanish, kasb kasalligi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq holda sog‘ligining boshqacha shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog‘ligiga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilishi shartligi belgilangan.

9.3.Ijtimoiy sug‘urta tizimini isloq qilishning asosiyo yo‘nalishlari

Mustaqillikka erishguniga qadar 1918—91 y. larda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini sobiq Ittifoq miqyosida yagona bo‘lgan davlat sug‘urta idorasi («Gosstrax») va uning ittifoqdosh respublikalardagi boshqarmalari amalga oshirgan. 1991 y. dan O‘zRda o‘tkazilgan chuqur iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichlarida davlat sug‘urta organlari qayta tashkil etildi, ularga raqobatda bo‘la oladigan turli mulkchilik shaklida sug‘urta kompaniyalari va agentliklari vujudga keldi. Sug‘urta xizmati bozori, sug‘urta faoliyatining asosiyo yo‘nalishlari, huquqiy qonunchilik asoslari yaratildi. 1993 y. 6 mayda O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida» qonuni qabul qilindi.¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 y. 25 fevraldagagi farmoniga² ko‘ra Moliya vazirligi huzurida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi «O‘zagrosug‘urta» sug‘urta kompaniyasi shaklida qayta tashkil etildi, «Kafolat» sug‘urta kompaniyasi, «Madad» sug‘urta agentligi, «O‘zbekinvest» eksportimport milliy sug‘urta kompaniyasi va boshqalar o‘z faoliyatini boshladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida» qonuni // <https://lex.uz/docs/1247836?twolang=true>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 y. 25 fevraldagagi farmoni// Xalq so‘zi gazetasi, 1997y. 26 fevral.

O‘zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi¹ qonuni ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, bir qator asosiy tushunchalar keltirib o‘tilgan.

Ish beruvchining o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish bo‘yicha majburiyati qonunning 4-moddasida aniq va qat’iy tarzda ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchi o‘z fuqarolik javobgarligini ushbu qonunda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug‘urtalashi shartligi belgilab quyilgan.

Umuman, sug‘urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotni uzliksiz rivojlanishini ta’minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e’tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo‘g‘inini rivojlantirishga katta e’tibor berilyapti. 2002 yilda sug‘urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat darajasida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, 2002 yilning 31 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi-da»gi² Farmonining e’lon qilinishi sug‘urta tizimini taraqqiy ettirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat’i nazar barcha sug‘urta tashkilotlari 2002 yilning 1 fevralidan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig‘i to‘lashdan ozod etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish cho-ra-tadbirlari tug‘risida» 2002 yil 27 noyabrda qabul qilgan Qarori sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. 2002 yilning 5 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida» yangi qonun qabul qildi. Bu qonunning qabul qilinishi sug‘urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini qonuniy jihatdan himoyalashga muhim hissa

¹ «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni:// <https://lex.uz/docs/1471197>

² <https://lex.uz/docs/342368>

bo‘lib qo‘shildi. Sug‘urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati normalari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Jumladan, rivojlangan chet el mamlakatlaridagidek, bizda ham sug‘urta xizmatlari bozori ikkiga ajratildi: hayotni sug‘urta qilish bilan bog‘liq xizmatlar bozori va umumiyligida sug‘urta xizmatlari bozori. Hayotni sug‘urta qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar umumiyligida sug‘urta turlarini o‘tkazish, aksincha, umumiyligida sug‘urta turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar hayotni sug‘urtalash huquqiga ega bo‘lmaydi. To‘g‘ri, bizda hayotni sug‘urta qilish, ayniqsa uzoq muddatli sug‘urta turlarini rivojlantirishda ba’zi muammolar mavjud. Bu sug‘urta turini amalga oshirish uchun fuqarolarda sug‘urta tashkilotlariga ishonch bo‘lishi bilan bir qatorda yetarli miqdorda mablag‘ ham bo‘lishi zarur. Faqat hayot sug‘urtasi bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda emas, balki korxona va tashkilotlarning mol-mulki hamda boshqa ixtiyo-riy sug‘urta turlarini o‘tkazishda ham muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish sug‘urta tashkilotlari va ularning salohiyatli mijozlari bo‘lmish ko‘p ming sonli aholi, yuridik shaxslar rahbarlarining o‘zaro hamkorligiga bog‘liq. Jamiyatda aholi va korxona hamda tashkilot rahbarlarining sug‘urtaga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish lozim. Bu, o‘z navbatida, sug‘urta tashkilotlari tomonidan faol tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 17 avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2019 yil 24 avgustda ma’qullangan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida»¹ qonuniga asosan, MJtKning 492-moddasiga ko‘ra ish beruvchilar tomonidan belgilangan majburiyatni bajarmasligi - mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam oylik ish haqining o‘n barobaridan o‘n besh barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi, xuddi shunday huquqbazarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida

¹ Senat tomonidan 2019 yil 24 avgustda ma’qullangan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida»gi qonuni //<https://www.lex.uz/docs/4492008>

takroran sodir etilgan bo‘lsa o‘n besh barobaridan o‘ttiz barobarigacha jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Mamlakatimiz sug‘urta bozorida ro‘y berayotgan o‘zgarish va yangilanishlar xususida so‘z yuritsak, istiqlolning ilk davrida yurtimizda atigi bitta davlat sug‘urta tashkiloti mavjud edi. U ham davlat muassasasi sifatida faoliyat yuritardi. Bugungi kunga kelib esa, turli mulkchilik shaklidagi 29 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan 1170 ta bo‘linmasi jismoniy hamda yuridik shaxslarga 130 dan ziyod sug‘urta xizmatlarini taklif etmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston sug‘urta bozori kun sayin o‘sib kelmoqda. Shunday bo‘lsada, mamlakatimiz aholisining hammasida ham sug‘urtaga bo‘lgan ishonch va tushuncha to‘liq shakllanmagan. Bunga sabab sug‘urta faoliyati haqidagi ma’lumotlar Respublikamizning aksariyat joylariga bormayotganligi va rivojlanmaganidir. Bu esa sug‘urta faoliyatining rivojlanishi YaIM dagi ulushining o‘sishiga hamda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi oshishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘urta faoliyatidan asosan Respublikamizda Toshkent shahrida istiqomat qiladigan aholi keng foydalanmoqda. Boshqa viloyatlarda bu ko‘rsatkich bir muncha pastroq. Buning sababi sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, uning afzalliklari haqida tushuncha boshqa Respublikamizning aksariyat viloyatlarida shakllanmagan.

Tayanch so‘z va iboralar:

sug‘urta, sug‘urta munosabatlari, sug‘urtaning xususiyatlari, sug‘urtaning funksiyalari, sug‘urta bozori, sug‘urta munosabatlari, majburiy sug‘urta, ixtiyoriy sug‘urta, sug‘urta hodisasi, sug‘urta turlari, sug‘urta tartibi, sug‘urta shartlari, sug‘urta ob’ektlari.

Nazorat uchun savollar :

1. Sug‘urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qanday munosabatlar sug‘urta munosabatlari deyiladi?
3. Sug‘urtaning xususiyatlarini qanday belgilar ochib beradi?

4. Sug‘urta qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Sug‘urta bozori haqida tushuncha bering.
6. Yurtimizda sug‘urta munosabatlarini paydo bo‘lishining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
7. Fuqarolarning uy-joylari majburiy sug‘urtasi qachondan amalga kiritilgan?
8. So‘nggi yillarda mamlakatimiz sug‘urta tizimida qanday islohotlar olib borilmoqda
9. O‘zbekiston Respublikasining sug‘urtaga doir qonunchiligiga binoan sug‘urta qanday sohalarga bo‘linadi?

10-mavzu: DEMOGRAFIK SIYoSAT.

Reja:

- 10.1. Demografiya fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
- 10.2. Demografik siyosatning xususiyatlari.
- 10.3. Axoli migratsiyasi.

10.1. Demografiya fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

Demografiya (yun. *demos* — xalq va... *grafiya*) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga boglik holda o‘rganadigan fan. Demografiyaning paydo bo‘lishi asosan XVII-asrning 2-yarmidan angliyalik olim J. Graunt (1620 — 1674) tadqiqotlari bilan bog‘likdir. Demografiya terminini 1855 y. da fransuz olimi A. Giyar qo‘llagan. 1882 y. Xalqaro gigiena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida keng tarqaldi. O‘zbekistonda, asosan 1960 y. lardan qo‘llanila boshladi.

Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lishi jarayoni va omillarini o‘rganish, muammolarni

belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Demografiyaning vazifalari:

- demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o'rganish;

- demografik bashorat (ma'lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish;

-demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining mikdoriy o'sishini boshqarishdan iborat) choratadbirlarini ishlab chiqish. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog'i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Demografik tadqiqot usuli — statistik, tarixiy taqqoslash, xaritagrafik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash. Demografiyaning taxliliy metodi statistikadan farq qiladi: unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'r ganiladi. Shu jihatdan demografik statistika Demografiyaning bir qismidir.

Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan Demografiya iqtisod, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix fanlari tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma'lumotlar beradi.

Demografik jarayonlarni o'r ganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda demografik ma'lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to'plab boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib o'z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma'lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida demografik ma'lumotlarni to'plash BMT boshchiligidagi tuzilgan dastur asosida o'tkaziladi.

Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko‘payishi va rivojlanishi qonuniyatlarini alohida-alohida o‘rganadi, chunki har bir ijtimoiy iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o‘sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. XX-asrning 2-yarmiga qadar O‘zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi nisbatan pastligi tufayli aholi o‘rtasida o‘lim yuqori bo‘lgan. Garchi tug‘ilish yuqori bo‘lsa ham aholi juda sekin ko‘paygan. XX-asrning 2-yarmidan O‘zbekistonda aholi o‘rtasida o‘lim bir oz kamayib, aholining o‘rtacha umr ko‘rishi uzaydi. Natijada aholining miqdor va sifat o‘sishi ro‘y berdi. Shu davrda O‘zbekistonda Demografiyaning rivojlanishiga e’tibor berildi. Demografik tadqiqotlar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Aholishunoslik ilmiy tadqiqot laboratoriyasi, demografiya, ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisod, sotsiologiya kafedralari, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi, Mehnat, aholi bandligi va ijtimoiy muhofazani o‘rganish Respublika ilmiy markazi, O‘zR Fanlar akademiyasining iqtisodiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazida olib boriladi.

1993 y. dan O‘zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) o‘z faoliyatini boshlagan. Uning faoliyati mintaqa davlatlarini, Qozog‘iston va Ozarbayjoni qamrab oladi. Jamg‘arma aholi salomatligi, ayniqsa, ayollar salomatligini yaxshilash borasida tadbirlarni amalga oshiradi, mamlakatda milliy tashkilotlar, tibbiyot muassasalariga sog‘lom oilani shakllantirish maqsadida keng qamrovli sotsiologik-demografik tadqiqotlar o‘tkazadi.

10.2.Demografik siyosatning xususiyatlari.

Demografik siyosat davlat organlari va ijtimoiy institutlarning axolini takror hosil jarayonlarini tartibga solish soxasidagi aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyatidir. Uning tarkibi siyosiy faoliyat boshqa soxalarida bo‘lgani kabi ikki muxim va o‘zarobog‘lik tarkibiy qismlardan: demografik maksadlarni belgilash xamda ularni amalga oshirishdan iborat. Demografik siyosatning maqsadi va vazifalari, koida buyicha, qonunlar, hukumat karorlari, siyosiy va strategik dasturlar, joriy rejallarda o‘z

ifodasini topadi. Demografik siyosatning ob'ekti - umuman mamlakat yoki uning mintaqalari axolisi, oilalar, uy xo'jaliklaridir.

Demografik siyosatning asosiy yo'naliishlari, odatda, quyidagilarni qamrab oladi:

- oila, ona va bolalarga davlat tomonidan yordam kursatish;
- ayollarning oilaviy vazifalarni bajarishlarini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- axolining kasallanishi va o'lim darajasini kamaytirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish uchun zarur choralarini ko'rish;
- axolining turmush darajasi va turmush sifatini oshirish;
- axolining joylashishi, urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish;
- migratsiya jarayonlarini tartibga solish.

Ushbu yo'naliishlar ijtimoiy siyosatning ish bilan bandlikni ta'minlash, sog'likni saqlash, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, turarjoy qurilishi, xizmat ko'rsatish soxalarini rivojlantirish, nogironlar va mexnatga layokatsizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Demografik siyosatni o'tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

- demografik siyosat strategiyasi, maqsadlari va vazifalari, belgilangan rejalarini amalga oshirish muddatlari belgilangan yaxlit konsepsianing mavjudligi;
- qabul kilingan konsepsiya barcha tadbirlarini moliyalashtirish manbalarining mavjudligi;
- demografik siyosatni amalga oshirish uchun mas'ul davlat organlari va ijtimoiy instittlarning mavjudligi.

Davlatning demografik siyosatini o'tkazishda ma'muriy-huquqiy iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foydalanildi.

Ma'muriy-huquqiy uslubda axolining takror hosil bo'lishini tartibga solishga qonunlar va me'yoriy-huquqiy xujjatlar, davlat organlari va ijtimoiy institutlar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Oila-nikox munosabatlari, oila, onalik va bolalikni muxofaza qilish, gender siyosatiga doyr qonun xujjatlari, xukumat dasturlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Iqtisodiy uslub tug‘ilish darajasini oshirishni rag‘batlantirish, umr ko‘rish davomiyligini uzaytirishga qarartilgan shart sharoitlarni yaxshilashni moliyaviy resurslar bilan ta’minalash, axolining ijtimoiy himoyaga muxtoj katlamini moddiy jixatdan qo‘llab-quvvatlash kabi tadbirlarni qamrab oladi.

Davlatning demografik siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik uslubi axolini “demografik tarbiyalash”, deb xam ataladi. U fuqarolarning oilaga, oila tarkibiga, sog‘lom turmush tarziga munosabatini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ayniksa, ota-onalarning “demografik savodxonligi”ga katta e’tibor beriladi.

Demografik tarbiyaning yana bir muhim yo‘nalishi aholining demografik mayliga ta’sir ko‘rsatishdir. Demografik tarbiyalash, asosan, ijtimoiy institutlar, ta’lim va targ‘ibot muassasalari, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

XVII asrdayok Fransiya Yevropada birinchilardan bo‘lib o‘z axolisi soni ko‘payishini rag‘batlantirish siyosatini amalga oshira boshlagan. Bunga ko‘p jixatdan Fransyaning Germaniya bilan 30 yillik (1618-1648 yillar) urushda katta talafot ko‘rgani sabab bo‘lgan. XVIII asrda esa manufaktura ishlab chiqarishining kengayishi bilan ishchi kuchiga talab kuchaygan va sanoati rivojlanayotgan davlatlarda tug‘ilishni ko‘paytirish qo‘llab-kuvvatlangan.

XIX asrning oxirgi choragida urushlar natijasida Germaniya va Belgiyada xam katta yo‘qotishlar oqibatida aholining jiddiy ravishda kamayishi boshlandi. Bu ushbu mamlakatlar hukumatlarini tug‘ilishni rag‘batlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga undadi. Ayni paytda sog‘likni saklash va axoliga ommaviy tibbiy yordam ko‘rsatish davlat dasturlari qabul qilindi.

XX asr davomida turli davlatlarda demografik siyosatdagi ustuvorliklar maxalliy sharoit va vaziyatlardan kelib chiqqan holda o‘zgarib turdi. Lekin jaxondagi barcha mamlakatlarga xos bo‘lgan demografiya siyosatining ikki eng muxim yo‘nalishi: sog‘liqni muxofaza qilish va o‘lim darajasini kamaytirishga investitsiyalarni ko‘paytirish xamda tug‘ilishni davlat tomonidan rag‘batlantirishdan bosqichma-bosqich bolali oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va farzandlar soniga

bog‘liq ravishda aholining iqtisodiy tengsizligi darajasini pasaytirishga o‘tishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Umuman, Ikkinchı jaxon urushidan keyin demografik siyosatga aloxida e’tibor qaratila boshladi. Bunda demografik jarayonlarga ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin. Masalan, Fransiya urush oqibatidagi demografik inqiroz tufayli 1946 yilning o‘zida oilada farzand tug‘ilishini, ayniqsa uchinchi bola ko‘rishni rag‘batlantirish maqsadida oilalarga mablag‘ ajratish tizimini joriy etdi. 1960-1970-yillarda tug‘ilishni rag‘batlantirish choralari ko‘pgina boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham joriy qilindi. Shu bilan birga “uchinchi dunyo”da 1950-1960-yillarda “oilani rejalashtirish” siyosati amalga oshirila boshladi. Bunga ikkinchi jahon urushidan keyin davlat mustakilligiga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi oila darajasida amalda tartibga solinmaydigan tug‘ilishning nihoyatda yuqori darajasi bilan bog‘lik “demografik portlash” sabab bo‘ldi. Ushbu davlatlarda aholi sonining jadal sur’atlarda ortishi rivojlanayotgan milliy iqtisodiyotlari uchun jiddiy muammoga aylandi. Iqtisodiy rivojlanishni murakkablashtirayotgan axoli soni ortishining jadal sur’atlaridan tashvishga tushgan mamlakatlarda tug‘ilishni nazorat qilish siyosati qo‘llab-quvvatlana boshladi. Hindiston rivojlanayotgan davlatlar orasida birinchi bulib 1951 yilda oilani rejalashtirish milliy dasturini rasmiy davlat siyosati sifatida tasdiqladi. Bu yerda nikoh tuzish yoshi jiddiy ravishda uzaytirildi, oilada to‘rt a’zo bo‘lishi - “Biz ikki kishimiz - bizga ikki bola” shiori ostida keng targ‘ib qilindi. 1975 yilga kelib, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining 34 mamlakatida tug‘ilish va aholi soni ortishi sur’atlarini kamaytirishga qaratilgan oilani rejalashtirish davlat dasturlari amal qila boshladi. Xitoy Konstitutsiyasida esa oilada rejali farzand ko‘rish zarurligi belgilab qo‘yildi. Bu mamlakatda tug‘ilishni rejalashtirish bo‘yicha qo‘mita tashkil qilindi, oilada farzand ko‘rish uchun ruxsat olish tartibi joriy etildi. Shu bilan birga, nikox tuzish yoshi uzaytirildi, davlat demografiya siyosatining asosiy shiori sifatida “Bir oilada - bir farzand” qabul qilindi. Xitoyda 2002 yil sentyabrida bu demografiya siyosatiga ayrim o‘zgarishlar kiritilib, fukarolarning 13 toifasiga ikkinchi farzand ko‘rishlariga ruxsat berildi.

Demografiya siyosatiga xalqaro hamjamiyatning ham e'tibori kuchaydi. 1969 yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining Axolishunoslik soxasidagi jamg'armasi - YuNFPA tashkil etildi. Mazkur jamg'arma jahonning 140 tadan ko'proq mamlakatida faoliyat yuritmokda. YuNFPA o'z asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilab olgan:

- reproduktiv sog'liqni muxofaza qilish soxasidagi xizmatlardan hammaning foydalana olishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish;
- xamma uchun majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etilishi va ta'lim soxasida jinsiy tengsizlikka barxam berilishini ta'minlash;
- onalar o'limini kamaytirish;
- bolalar o'limini kamaytirish;
- umr ko'rish o'rtacha davomiyligini uzaytirish;
- VICH bilan zararlanish xolatlarini kamaytirish,

Umuman, demografiya muammolari Birlashgan Millatlar tashkilotining doimiy diqqat markazidadir.

O'zbekistonning demografik siyosati oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni muxofaza qilish, aholining umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga qaratilgan. Mamlakatda buning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, "Bola xukulkari kafolatlari tugrisida"gi konun, umuman 80 dan ortik normativ-huquqiy hujjatlar davlat demografiya siyosati maqsadlarini xayotga joriy etishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib demografiya masalalariga doir xalqaro hujjatlar - BMTning Onalikni muxofaza qilish tug'risidagi, Bolalar mexnatining eng yomon shakllari tug'risidagi, Ayollar huquqlari kansitilishining barcha shakllariga barxam berish to'g'risidagi, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi, Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi va boshqa xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan. Davlatning demografik siyosatini amalga oshirishda O'zbekistonda ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarining qabul qilinishi ham muxim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Jumladan, "Inson manfaatlari yili", "Oila yili", "Ayollar

yili”, “Sogлом avlod yili”, “Ona va bola yili”, “Sixat-salomatlik yili”, “Xomiyalar va shifokorlar yili”, “Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Sogлом bola yili”, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” va boshqa maqsadli davlat dasturlari tub moxiyati jihatidan xuddi shu maqsadlarga yo‘naltirilgan.

10.3.Axoli migratsiyasi.

Axoli migratsiyasi— aholining yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi. Axoli migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo‘lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko‘chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy xayotning ko‘p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholini joylashishi, yerni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irqlar, tillar va xalqparning paydo bo‘lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o‘zgarishlar bevosita mehnat resurslarini hududiy qayta taqsimlash extiyojini keltirib chiqaradi, bunga esa migratsiya yordamida erishiladi.

Yo‘nalishiga ko‘ra tashqi aholi migratsiyasi va ichki aholi migratsiyasi farqlanadi. Tashqi aholi migratsiyasi mamlakatdan chiqib ketish (muhojirlik), ichki aholi migratsiyasi esa mamlakat doirasida, viloyat va tumanlararo yashash joyining o‘zgarishi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchilar — migrant (muhojir) lar, migratsiya oqimi shakllanuvchi hudud — migrantlar chiquvchi, ular borgan hudud — migrantlar o‘rnashuvchi region deyiladi. Muayyan mamlakatdan boshqa biron-bir mamlakatga aholining ko‘chib ketish jarayoni emigratsiya, unda ishtirok etganlar esa emigrantlar deyiladi. Va, aksincha biron bir boshqa mamlakatdan ma’lum mamlakatga aholining ko‘chib kelishi immigratsiya, unda ishtirok etganlar immigrantlar (kelgindilar) deyiladi.¹

Aholi migratsiyasi **doimiy** (turar joyni uzil-kesil o‘zgartirish), **vaqtinchcha** (shartnomaga asosida ma’lum muddatga ishga, o‘qishga va boshqa sabablar bilan mamlakatdagi bir ma’muriy-hududiy birlikdan boshqasiga borish, yoxud xorijga

1 <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aholi-migratsiyasi-uz/>

ketish), **mavsumiy** (iqtisodiyot tarmoqlari — qishloq xo‘jaligi, undiruvchi sanoat sohasi yumushlari, davolanish, dam olish va boshqa sabablarga ko‘ra ko‘chish), **mayatniksimon** (mokisimon) (ertalab ishga, o‘qishga ketib, kechqurun uyiga qaytib kelish) migratsiya turlari bo‘ladi. Ma’lum vaqt davomida hududga ko‘chib kelgan va ko‘chib ketgan kishilar soni o‘rtasidagi farq migratsiya saldosi deyiladi. Ba’zan migratsiyaga turizm, kurortga borish, ziyorat, shuningdek mokisimon qatnovchilarni ham kiritadilar, lekin turar joyni o‘zgartirmagani uchun ularni aholi migratsiyasiga kiritish mumkin emas.

Qishloq aholisi hisobiga shaharlarda yashovchi aholining to‘xtovsiz o‘sib borish tendensiyasi ham mavjud. Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan ma’lum darajada noqulayligi, uning ayniqsa yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardan to‘la qondira olmasligi bu tendensiyaga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda aholi migratsiyasi jarayoni yangi zavod va fabrikalarning qurilishi, 50—60-y. larda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Bekobod, Angren, Olmaliq, Yangier va boshqa sanoat shaharlarining barpo etilishi hamda ularni ishchi kadrlar bilan ta’minalash maqsadida sho‘rolar davrida SSSRning markaziy sanoat rayonlaridan aholini ommaviy ko‘chirib keltirish hisobiga bo‘ldi. Natijada bu shaharlarda tub joy aholisi ozchilikni tashkil etib, ko‘pchiligi Respublika tashqarisidan yo‘llanma bilan kelgan kishilar bo‘ldi. 1966 y. gi Toshkent zilzilasidan so‘ng Toshkent shaxri aholisi ham ikki baravardan ziyod ortdi. Urush yillarida o‘z yurtlaridan qochoq bo‘lganlar va badarg‘a qilinganlar ham O‘zbekistonda qo‘nim topdilar.

Aholi migratsiyasi jarayoniga tarixiy va milliy an'analar ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo xalqlarida, jumladan o‘zbeklarda tug‘ilib o‘sgan joyga mehri balandligidan migratsiyaga moyillik ancha sust. Shuning uchun davlat migratsiyaga oid siyosat yuritish jarayonida axolining tarixiy va milliy xususiyat va ananalarini inobatga olsa bu siyosatning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

O‘zbekistonda mustaqillik sharofati bilan bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq tub o‘zgarishlar birinchi navbatda mehnat munosabatlariga benihoya kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor munosabatlariga

asoslangan iqtisodiy tizimga xos, uning ajralmas qismi va doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan ishsizlik fenomeni yuzaga keldi. Iqtisodiyotda kechgan ob’ektiv jarayonlar oqibatida minglab, millionlab kishilar ishsiz qoldi, o‘zlarining daromad manbaidan ajraldi. Endigina mustaqillikka erishgan yosh Respublikada kasbiy ta’lim tizimi mamlakatda shiddat bilan shakllananib borayotgan bozorning real talablaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta atyyorlash tizimiga hali moslashib ulgurmagan edi. Natijada mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga talab o‘rtasida keskin tarkibiy disbalans yuzaga keldi va bozor munosabatlari o‘rnashib borgan sayin tobora chuqurlashib bordi. Bularning hammasi ish haqi oila daromadining yakkayu-yagona manbai bo‘lgan yollanma ishchilar uchun haqiqiy fojiaga aylandi, ularni yuzaga kelgan tang vaziyatdan chiqish, oilani ta’minalash choralarini izlashga majbur qildi.

O‘zbekistonda ishsizlikning yuzaga kelishi va keskin tus olishining hamda sobiq ittifoqdosh respublikalariga nisbatan yanada asoratliroq kechishining inkor etib bo‘lmaydigan o‘ziga xos jihatlari va chuqur sabablari bor edi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sobiq sovet tizimidan meros bo‘lib qolgan ijtimoiy sohaning beo‘xshovligi;
- sovetslar hukumatining sun’iy yaratilgan, lekin ish haqi o‘ta past, turmush darajasini ta’minalashning xalqaro standartlariga batamom mos kelmaydigan ish o‘rinlari tashkil etish vositasida aholining to‘la bandligini ta’minalash siyosati;
- sovetslar imperiyasining yemirilishi oqibatida respublikalararo lateral (gorizontal) iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi;
- murakkab demografik vaziyat;
- oila tarkibida boqimandalar ulushining kattaligi;
- bozor munosabatlariga o‘tish davri qiyinchiliklari ta’siri ostida ishlab chiqarish mutlaq hajmining qisqarishi;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi;
- eksport tarkibida xomashyo resurslari ulushining yuqoriligi;

-bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ekstensiv omillarning intensiv omillarga almashuvi natijasida ishchi kuchi nisbiy ortiqchaligining yuzaga kelishi va hokazolar.¹

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatda erkin bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish hamda o‘tish davrining tabiiy qiyinchiliklari oqibatida yuzaga kelgan va tobora avj olib borayotgan ishsizlikning oldini olish, imkon qadar uning ko‘lamini jilovlashning, ya’ni ishsizlik muammosini oqilona hal qilishning ikki yo‘li bor edi.

Birinchi yo‘l – bu mamlakatda ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish va o‘tish davri qiyinchiliklari hamda tizimli o‘zgarishlar oqibatida barcha ishdan bo‘shaganlarni yangidan yaratilgan ish o‘rinlariga joylashtirish. Muammoning yechimi sifatida davlat iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridayoq kichik va xususiy tadirkorlikka keng yo‘l ochib berish, unga imtiyozlar berish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning tezkor choralarini ko‘rish siyosatini tutdi. Lekin, endigina mustaqillikka erishgan va o‘tish davri inqirozini boshidan kechirayotgan mamlakatda ishsizlik muammosini uzil-kesil hal etishda davlatning moliyaviy imkoniyatlari benihoya cheklangan edi. Boz ustiga xalqimizda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va uning hisobidan daromad topish tajribasi hali shakllanmagan edi.

Ikkinci yo‘l – aholiga boshqa mamlakatlarga chiqib, tirikchilik qilishlari, oilasini boqish uchun imkoniyat yaratib berish, aniqrog‘i mehnat migratsiyasiga yo‘l ochib berishdan iborat edi. Respublikamiz uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ana shunday mashaqqatli va beqaror vaziyatda ishsiz qolganlarning bir qismi, aniqrog‘i nomigagina bandlikda bo‘lib, maosh olib yurganlar yoki ishdan bo‘shab, ishsizlar toifasiga mansub bo‘lganlar mana shu ikkinchi yo‘lni tanlashga majbur bo‘lishdi.

Mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari qanchalik murakkab, uning ildizlari qanchalik chuqur bo‘lmisin, davlatimizning, xalqimizning, qolaversa har

¹ Gulyamov S.S., Muhammedov M.M. Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini qanday bartaraf etish yo‘llari bor?// <https://yuz.uz/news/mehnat-migratsiyasi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-qanday-bartaraf-etish-yollari-bor>

birimizning unga nisbatan munosabatimiz, uning kelajagiga nisbatan aniq strategiyamiz shakllanmog‘i lozim. Mehnat migrantlari yana qancha vaqt begona yurtlarda muhojirlikda yashab, oila tebratishi kerak degan hayotiy savolga aniq javob mana shu strategiyada o‘z aksini topmog‘i lozim.

Mamlakatda mehnat migratsiyasidan batamom voz kechish va asta-sekin uni xalqimiz uchun yurt xazinasini to‘ldirish turi sifatidagi ahamiyatini tugatish siyosati tanlangan va u muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, ushbu siyosat yangi O‘zbekistonga to‘rt tomonlama manfaat keltiradi. Bu:

Birinchidan, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadalashtirish va milliy boylikni ko‘paytirishga ko‘mak beradi. **Ikkinchidan**, O‘zbekistonning xalqaro nufuzini, imijini oshirishga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. **Uchinchidan**, o‘z xalqi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilgan, uni musofirchilik qynoqlaridan xolos etgan davlatga nisbatan xalqning hurmati, undan roziligi ortadi. **To‘rtinchidan**, juda katta ma’naviy samaraga erishiladi. Begona yurtlarda musofirchilikda turli xil nohaqliklarga, kamsitishlarga duchor bo‘layotgan yurtdoshlarimiz migratsiya azob-uqubatlaridan xolos bo‘ladilar, o‘z ona yurtlarida erkin-emin hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.¹

Tayanch so‘z va iboralar:

demografiya, demografik jarayonlar, demografik savodxonlik, demografik bashorat, demografik siyosat, axoli bandligi, demografik tarbiya,migratsiya, migratsiya turlari, mexnat migratsiyasi,

Nazorat uchun savollar :

- 1.Demografiya fanining paydo bo‘lishi va rivojlanish muammolarini tax’lil qilib bering?
- 2.Demografiya tushunchasining mazmuni va moxiyatini izoxlab bering?
- 3.Demografik siyosatning xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

¹ Gulyamov S.S., Muhammedov M.M. Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini qanday bartaraf etish yo‘llari bor?// <https://yuz.uz/news/mehnat-migratsiyasi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-qanday-bartaraf-etish-yollari-bor>

4.O‘zbekistonda demografik siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini taxlil qilib bering?

5.Axoli migratsiyasi tushunchasining mazmun va moxiyati nimalarda ifodalanadi?

6.O‘zbekistonda migratsiya bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari nimalardan iborat?

11-mavzu: PENSIYa TIZIMINING MOHIYaTI VA UNI ISLOH QILISH.

Reja:

1.Pensiya ta’minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy moxiyati va axolini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o‘rni.

2.Jaxon mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimlarini turlari va ularning o‘zgarish tendensiyalari.

3.O‘zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari.

11.1.Pensiya ta’minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy moxiyati va axolini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o‘rni.

Pensiya fuqarolarga davlat yoki boshqa sub’ektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va odatda, umrbod to‘lanadigan to‘lovlar bo‘lib, ijtimoiy ta’minotning muhim shakli hisoblanadi.

Pensiya tizimi ijtimoiy himoyaning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatda mazkur tizim muhim funksiyalarini bajaradi, ular quyidagilar. Birinchidan, qarilik chog‘ida kambag‘allikdan himoya qiladi. Ikkinchidan, mehnat faoliyati tugashi bilan kafolatlangan daromadni taqdim etib, ish haqiga bog‘liq ravishda ma’lum qiymatga ega bo‘ladi. Uchinchidan, mazkur daromad kelajakda inflyatsiya natijasida turmush farovonligini pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Pensiya ta'minoti tuzilmaviy jihatlariga va uning xususiyatlariga xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy qarashlar mavjud. Ularda mazmunan ba'zi farqlar kuzatilsada, mohiyatan uyg'unlikni ko'rish mumkin. T.Yemelyanova pensiya ta'minotining shakllanishini quyidagi turlarga ajratadi:

Birinchidan, mehnatga layoqatsiz axoli qatlamini yashash minimumi va moddiy jihatdan ta'minlash. Kambag'allik oqibatlarini barataraf etish, mehnat qilish imkoniyatidan qat'i nazar ijtimoiy tenglikni saqlab turish.

Ikkinchidan, aholining daromadlariga muvofiq pensiya ta'minotini amalga oshirilishida pensionerning shaxsiy mehnat ulushini hisobga olish.

Uchinchidan, shaxsiy tashabbusga asoslangan pensiya ta'minoti.¹

A.Ijaeva pensiya ta'minoti tizimini klassifikatsiyalarga ajratishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim, deya ta'kidlaydi:

- pensiya to'lovlarini va badallarini hisoblash metodi asosida;
- pensiya fondining funksional (taqsimlash va jamg'armaviy) jihatni asosida;
- son va shakl jihatidan, birinchidan – ijtimoiy pensiya, ikkinchidan, taqsimlash tizimi, uchinchidan, jamg'armaviy tizimi, to'rtinchidan, ixtiyoriy jamg'arma tizimi.²

Umuman olganda pensiya tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini tadqiq etish, ularning o'ziga xos tajribalarini hisobga olgan holda sohani rivojlantirishning yangicha metodologik asoslarini yaratish zaruriyat tug'iladi. Qayd etish lozim, pensiya ta'minotining muhim xususiyatlaridan biri – majburiy va ixtiyoriy shakllarga ajratilishida. Pensiya ta'minotining majburiy shakllari taqsimot va jamg'armaviy uslubiyatlar orqali namoyon bo'lsa, ixtiyoriy pensiya ta'minoti shaxsiy yoki ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tizimni o'zida ifoda etadi. Pensiya ta'minoti tizimining bunday guruhlarga ajratishning asosiy sabablaridan biri – bu ijtimoiy himoyaning tashkil etish va uning funksiyalari bajarilishi yuzasidan vujudga kelgan.

¹ Yemelyanova T.V. Finanovoe obespechenie pensionnyx sistem v stranax YeS i Rossii//Finansy. – Moskva, 2008. – №10. – S. 64.

² Ijaeva A.R. Konsepsiya razvitiya pensionnoy sistemy Rossiyskoy Federatsiya v postkrizisnyy period: avtoref. ... k.e.n. – Moskva: FGBOU VPO Gos. Univ. Uprav..2013. – 31 s.

Bugun Ona sayyoramizda har soniyada ikki kishi o‘zining oltmish yoshga to‘lganini nishonlamoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma’lumotlariga ko‘ra, asrimiz o‘rtalariga borib Yerda 100 yoshdan oshganlar soni 3,2 million kishiga yetar ekan. Vaholanki, ular 2014 yilda 300 ming kishidan oshmayotgan edi. Agar 1950 yillarda insonning o‘rtacha umr ko‘rishi 47 yil atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yilda bu raqam 69 yoshga yetdi. 2050 yilda bu ko‘rsatkich 76 yoshni, 2100 yilda 85 yoshni tashkil etishi kutilmoqda.

Dunyoda sog‘lijni saqlash sifati yaxshilangani, tibbiyotning jadal taraqqiy etayotgani, sanitar nazoratning takomillashayotgani, ta’limdan foydalanishning kengayayotgani, iqtisodiy farovonlik bois keksalar ulushi borgan sari ko‘paymoqda. Uzoq umr ko‘rish – insoniyat taraqqiyotining eng katta muvaffaqiyatlaridan biridir. Bu jarayon o‘z navbatida pensiya ta’minotini yanada takominlashtirishni taqozo etadi.

Fuqarolarga umrining oxiriga qadar pensiya to‘lash, munosib yashash sharoitlarini yaratib berishni davom ettirish davlat zimmasidagi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

11.2.Jaxon mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimlarini turlari va ularning o‘zgarish tendensiyalari.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta’minoti, majburiy ijtimoiy sug‘urta, shaxsiy ijtimoiy sug‘urta va boshqalar – qo‘llaniladi. Bunda “jamg‘ariladigan” va “taqsimlovchi” modellar ham bo‘lib, asosan, “kombinatsiyalashgan” model amal qiladi.

Ijtimoiy ta’minot tizimi birinchi marta 1889 yilda Germaniyada Bismark tomonidan yaratilgan. Ushbu tizim to‘liqligicha sug‘urtaga asoslangan bo‘lib, to‘lovlardan miqdori ish haqiga bog‘liq bo‘lgan. Germaniyaning pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslanadi, ya’ni hozirda ishlovchilar pensionerlarning pensiyalarini to‘lash uchun davlat pensiya fondiga ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘laydilar va bu pensionerlarga pensiya to‘lanadi.

Ilk pensiya ta'minoti Fransiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673 yilda joriy etilgan. 1790 yildagi “Buyuk fransuz inqilobi” davrida Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va ellik yoshga to‘lganlar uchun mo‘ljallangan edi.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida shakllantirilgan pensiya ta'minoti tizimini ikki yirik modelga ajratish mumkin:

- pensiya ta'minotining (milliy) universal tizimi;
- sug‘urta munosabatlari asosida shakllantirilgan sug‘urtaviy pensiya tizimi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy soha byudjetining 60 foiz mablag‘lari sug‘urta ajratmalari hisobidan shakllanadi. Bu esa o‘z o‘rnida, pensiya ta'minotini amalga oshirishda ijtimoiy sug‘urta munosabatlarining shakllanganlik darajasini anglatadi. Sababi, xorijiy tajribada ijtimoiy soha faoliyatini tashkil etishda sug‘urta munosabatlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Qolaversa, pensiya ta'minotini ijtimoiy sohaning yirik bo‘g‘inlaridan biri ekanligi hamda uning rivojlanish bosqichlari borasida turli fikrlar mavjud. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug‘urtaviy pensiya ta'minoti tizimi quyidagi tamoyillar asosida shakllandi:

- iqtisodiy faol aholini sug‘urtalash;
- pensiya to‘lovlarini ishchilar va sug‘urtalanganlarning sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtirish;
- amalga oshirilayotgan pensiya to‘lovlarining sug‘urtalanuvchining avvalgi daromadlari va sug‘urta stajiga bog‘liqligi. Ushbu mexanizmdan Yevropaning Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Gresiya kabi mamlakatlarida keng foydalanildi. Mazkur mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi yagona konsepsiya asosida faoliyat yuritsada, ularning ba’zi farqli jihatlari mavjud. Xususan, molishlashtirish, tashkiliy tuzilma va funksional vazifalari shular jumlasidandir. Shu boisdan, sug‘urtaviy pensiya modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aralash shakllarda namoyon bo‘ladi. Mohiyatan bir-biridan farqli tarzda yuzaga kelgan bo‘lsada, lekin amaliyotda ular o‘zaro aralash holda ham amalga oshadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu ikki modelning integratsiyasini kuzatish mumkin. Jumladan, bir qator

mamlakatlarda universal pensiya ta'minoti tizimlari vujudga kelib, amalga oshayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar sug'urtaviy pensiya ta'minotini yuzaga kelishiga imkon bermoqda. Yoki qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimining majburiy (Buyuk Britaniya) shakli joriy etilishi kabilar bunga misol bo'ladi. Jahan tajribasida hech bir davlatda to'liq jamg'ariladigan yoki taqsimlanadigan pensiya ta'minoti mavjud emas. Qayd etish lozim, barcha pensionerlarning yashash minimumini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni takomillashtirish natijasida pensiya ta'minotining umumiyligka ega bo'layotganligini ko'ramiz. Umuman olganda, jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimini nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. O'rnatilgan to'lov tizimi.
2. O'rnatilgan badal tizimi.¹

O'rnatilgan to'lov tizimida pensiya ta'minoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda to'lov miqdori aktuar hisoblar yordamida oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish haqlari va oldingi stoji asosida hisoblanadi. Pensiya to'lovi pensionerning umri davomida annuitet shaklda amalga oshirilib boriladi.

O'rnatilgan badal tizimida pensiya to'lovining miqdori oldingi to'langan badallarning hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu borada, ushbu turdag'i pensiya fondining mablag'laridan investitsion faoliyat yordamida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida hisobraqamga ega bo'ladi va unda badallar jamg'arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to'lovlarini olishda riskning mavjudligidir.

Pensiya ta'minotini quyidagi klassifikatsiya yordamida yanada oydinlashtirish mumkin:

- davlat majburiy pensiya ta'minoti;

¹ Ijaeva A.R. Konsepsiya razvitiya pensionnoy sistemy Rossiyskoy Federatsiya v postkrizisnyy period: avtoref. ... k.e.n. – Moskva: FGBOU VPO

- qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi, xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishchi-xodimlari uchun pensiya sug'urtasini to'lash orqali yuzaga keladi;
- shaxsiy sug'urtaviy pensiya dasturlari.¹

Qayd etib o'tilgan uch tabaqali pensiya ta'minoti tizimi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun xarakterli bo'lib, ularni tashkil etuvchi quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin:

- pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish miqyosi;
- pensiya to'lovlarini olishda mavjud bo'lgan shartlar;
- moliyalashtirish manbalari va tamoyillari. Masalan, hozirgi kunda Buyuk Britaniyada pensiya ta'minoti xizmatining aholini qamrab olish darajasi quyidagicha:

 - davlat majburiy pensiya ta'minoti – 65 foiz;
 - qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi (xo'jalik sub'ektlari tomonidan ta'minlanadigan pensiya sug'urtasi) – 25 foiz;
 - shaxsiy sug'urtaviy pensiya ta'minoti – 10 foiz.²

Pensiya ta'minotining muhim jihatlaridan biri – bu aholini qamrab olish miqyosi. Shu boisdan, universal pensiya ta'minoti tizimi mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi aholini ta'minlanishini nazarda tutsa, bundan tashqari, Daniya va Niderlandiya kabi davlatlarda nafaqat doimiy yashovchi o'z fuqarolarini, balki doimiy yashovchi boshqa davlat fuqarolarini ham yashash davrida qamrab olishni ko'zda tutadi. Pensiya ta'minoti aholi qamrab olishi nuqtai nazaridan uch qismga bo'linadi: birinchidan, pensiya sug'urtasi faqat shartnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi kishilarni nazarda tutadi (Daniya va Shvesiya). Ikkinchidan, shartnoma asosida ishlovchilardan tashqari o'z xususiy faoliyatiga ega bo'lganlarni qamrab oladi (Avstriya, Italiya va Niderlandiya). Uchinchidan, barcha band bo'lgan aholini pensiya ta'minotini o'zida ifoda etuvchi tizim (Fransiya, Buyuk Britaniya va

¹ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015 yil 5
www.iqtisodiyot.uz

² www.interfinance.uz

Shvesiya). Pensiya ta'minoti tizimini mamlakatdagi pensionerlarni qamrab olishida ba'zi murakkabliklar yuzaga keladi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnatga layoqatli aholining o'lim ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi;
- aholining mehnatga layoqatsiz qismining katta ulushni tashkil etishi;
- davlat majburiy pensiya tizimi bo'yicha imtiyozlarning (asosan yoshga nisbatan) sezilarli darajada ko'p bo'lishi;
- mehnatga layoqatli aholining doimiy ish joyiga ega bo'lishida muammolarning yuzaga kelishi;
- iqtisodiyotda norasmiy ish haqlarining sezilarli darajada ko'payib ketishi.

Keltirilgan birinchi ikki muammoning vujudga kelishida ijtimoiy sohaning boshqa bir bo'g'ini – sog'liqni saqlash tizimi muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, optimal tibbiy xizmatlarni rivojlantirish natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar sezilarli darajada yuz berayotganligi pensiya ta'minoti qamrovi miqyosiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Ba'zi Yevropa Ittifoqi davlatlarida pensiya yoshiga yetgandan so'ng ham ish faoliyatini davom ettirish holatlariga ruxsat berilgan. Bu esa, pensiya yoshidan o'tgandan keyingi mehnat faoliyati pensiya miqdorini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalaning ikkinchi jihat, ba'zi hollarda mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning oshishiga sabab bo'ladi.

Qayd etish lozim, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tug'ilishlar sonining sezilarli kamayishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Yel mamlakatlarida yuzaga kelayotgan bu kabi murakkabliklar ijtimoiy sohada moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ta'sir etmoqda. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari hajmini oshishiga olib kelmoqda. Xususan, pensiya yoshidagi aholining jamiga nisbatan ulushi oshayotganligi tizimda nobarqarorlik omilini aks ettirsa, ikkinchi tomondan yoshi katta aholining tibbiy

xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji 2 barobardan ziyod oshadi. Bu esa, ijtimoiy sohaning rivojlanishida kompleks moliyaviy islohotlarni talab etadi.

11.3.O‘zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi ijtimoiy sohalar taraqqiyotida yangi sahifa ochdi. Bozor munosabatlariga o‘tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi. Fuqarolarning alohida toifalariga jamiyatning boshqa a’zolari bilan teng imkoniyatlар yaratib berish orqali ularning to‘laqonli hayot kechirishini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui shakllantirildi, ijtimoiy ta’minot masalalari takominlashtirildi. O‘z navbatida, ijtimoiy ta’minotning markazida pensiya ta’mnoti turadi.

Shu o‘rinda, qayd etish lozim mamlakatimizda 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni¹ bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi (2-modda):

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi.

Mazkur pensiya ta’mnoti tizimi doirasida yoshga doir pensiyani takomillashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekistonda pensiya ta’mnoti tizimining tashkiliy jihatdan ikki shakli mavjud.

1. Fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta’mnoti.

Ushbu tizimning mohiyati shundaki, ijtimoiy sug‘urta asosidagi pensiya tizimi «avlodlar birdamligi» prinsipiga asoslangan «taqsimlovchi» elementlardan tarkib topgan bo‘lib, bunda ish beruvchilar va ishlovchilar Pensiya jamg‘armasiga

¹ <https://lex.uz/docs/112314>

majburiy to‘lov va badallarni to‘lab boradi, shakllangan mablag‘lar hisobidan pensionerlarga pensiyalar to‘lab boriladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

Pensianing miqdori fuqaroning o‘rtacha oylik ish haqi miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. O‘rtacha ish haqi ishdagi mavjud tanaffuslardan qat’i nazar, fuqaroning pensiya olish uchun murojaat qilgandan oldingi oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyati davomidagi fuqaro tomonidan tanlangan ketma-ket keluvchi besh yildagi umumi ish haqi hisobidan olinib, tuzatish koeffitsientlari inobatga olingan holda hisoblangan yig‘indini 60 (5 yildagi oylar soni)ga bo‘lish orqali hisoblab chiqariladi.

Agar fuqaroning ish stoji umuman bo‘lmasa yoki 7 yildan kam bo‘lsa, bunday hollarda ayollarga 60 yoshga va erkaklarga 65 yoshga to‘lganda yoshga doir nafaqa tayinlanishi mumkin.

Avlodlar birdamligiga asoslangan davlat pensiya ta’mnoti bo‘yicha: harbiy xizmatchilarining, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarining, sudyalarning va prokuratura organlari darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo‘lgan xodimlarining pensiya ta’mnoti; imtiyozli shartlardagi pensiyalar; yoshidan qat’i nazar imtiyozli pensiya olish huquqi; umumi belgilangan yoshni 1, 5 va 10 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi; liliputlar va pakanalarga pensiyalar; yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash; pensiyalarni va ish haqini hisoblab chiqish tartibi; pensiyalarga ustama haqlar; boshqa davlatlardan ko‘chib kelgan fuqarolarga pensiyalar hisoblab chiqarish; chet elda ishlangan davr uchun ish haqini hisoblab chiqarish; pensiyalarni qayta hisoblash va to‘lash tartiblari O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida»gi Qonuni¹ hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 252-sonli Qarori² va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

¹ <https://lex.uz/docs/112314>

² <https://lex.uz/docs/1865473>

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Mamlakatimizda 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni¹ asosida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joriy qilindi. Bundan maqsad fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimiga qo‘srimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlari moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosda pensionerlarga amaldagi pensiya to‘lovlariga qo‘srimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog‘ida fuqaroning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirishdir. Ushbu tizimda fuqarolarning ajratmalari ular pensiyaga chiqqunlariga qadar jamg‘arib boriladi va pensiyaga chiqqanidan keyin to‘lab beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning jamg‘armalari ixtiyoriy va majburiy pensiya badallaridan shakllanadi. 2005 yildan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning 2 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Demak, O‘zbekistonda pensiya ta’minotining har ikkala tizimi pensionerlarning turmush farovonligini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Tayanch so‘z va iboralar:

pensiya ta’minoti, ijtimoiy himoya, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi,, mehnatga layoqatsiz axoli, jamg‘arib boriladigan pensiya, davlat majburiy pensiya ta’minoti, qo‘srimcha pensiya ta’minoti tizimi, shaxsiy sug‘urtaviy pensiya ta’minoti

Nazorat uchun savollar :

1.Pensiya ta’minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy moxiyati va axolini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o‘rni nimalarda ifodalanadi?

2.Jaxon mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimlarini turlari va ularning o‘zgarish tendensiyalarini izoxlab bering?

¹ <https://lex.uz/docs/857300>

3.O‘zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalarini taxlil qilib bering?

4. Davlat pensiyalarining qanday turlari mavjud?

5. Fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta’minoti nimani anglatadi?

6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining moxiyati nimada?

12-mavzu: AXOLI BANDLIGI. IShSIZLIK: IJTIMOIY – IQTISODIY OQIBATLARI, ASOSIY KO‘RINISHLARI, QISQARTIRISH YO‘LLARI.

Reja:

- 12.1.Bandlik, uning moxiyati va shakllari.
- 12.2.Ishsizlik va uning asosiy turlari.
- 12.3.Mexnat bozorining modellari.

12.1.Bandlik, uning moxiyati va shakllari.

Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab vazifalardan sanaladi. Bandlik sohasida bozorning o‘zini o‘zi avtomatik suratda tartibga solish jarayoniga ta’siri har doim ham sezilmaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga yunaltirilgan barcha mamlakatlarda doimiy, bandlik sohasiga ta’sir ko‘rsatish shakllari va vositalari jihatidan egiluvchan choralarни qo‘llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda. Aholining to‘liq va samarali bandligini ta’minlash har qanday demokratik jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Aholini ish bilan ta’minlash (bandlik) siyosati - jamiyat va uning har bir a’zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi chora tadbirlar yig‘indisidir.

Bandlik sohasidagi davlat siyosati ikkita asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan: birinchidan, amaldagi investitsiyalanayotgan kapitalning ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish. Jadal va foydali amal qiladigan kapital - ishchi kuchidan samarali foydalanishning eng muhim dalilidir;

ikkinchidan, mehnatga layoqatli aholini kishilarning me’yoridagi hayot kechirishlarining muhim sharti sifatida ish joylari bilan ta’minlash. Aholining farovonligi tug‘risida g‘amxo‘rlik qilish davlatning an’anaviy vazifasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib 2020 yilda mamlakatimizda

“Aholi bandligi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni¹ qabul qilindi. Qonunning 4-moddasida kimlar band deb hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan qonunda shuday deyiladi: “Quyidagi fuqarolar band deb hisoblanadi:

mehnat shartnomasi bo‘yicha haq evaziga to‘liq yoki to‘liqsiz ish vaqtin shartlari asosida ishlayotgan yoxud kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan, shuningdek haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar;

kasalligi, ta’tilda bo‘lishi, kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlashda yoki malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarish to‘xtatib turilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo‘lmagan xodimning ish o‘rni saqlanib qoladigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo‘lmagan fuqarolar;

haq to‘lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o‘tayotgan fuqarolar;

o‘zini ish bilan mustaqil ravishda ta’minlayotgan fuqarolar, shu jumladan hunarmandlar, oilaviy korxonalarining ishtirokchilari, dehqon xo‘jaliklarining, ishlab chiqarish kooperativlarining a’zolari, fermer xo‘jaliklarining a’zolari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirdorlar, shuningdek xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) bo‘yicha, shu jumladan fuqaroviylar huquqiy tusdagi shartnomalar bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar;

o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan diniy tashkilotlarda ishlayotgan fuqarolar.”²

¹ <https://lex.uz/docs/5055690>

² <https://lex.uz/docs/5055690>

Qonunning 5- moddasida aholi bandligi sohasidagi asosiy tamoillar quyidagilardan iborat deb belgilandi:

bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;

aholi bandligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;

shaffoflik va ochiqlik;

ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o‘tishda ko‘maklashish;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta’minalash;

kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta’minalash sharoitlaridagi, mehnatga haq to‘lashdagi, xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;

majburiy mehnatni taqiqlash, ya’ni biron-bir jazo qo‘llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash.¹ Ana shu tamoillar asosida amalga oshiriladigan bandlik siyosati o‘zining samarasini beradi.

12.2.Ihsizlik va uning asosiy turlari

Ish bilan bandlik sifatiga yondashuvlardagi bu tushunchaning anik kursatkichlar tizimi mavjud, Bizningcha, ular kuyidagilardan iborat:

- ish bilan band xodim daromadining darajasi. Bu daromad Xalkaro mexnat tash-kiloti (XMT) xujjalarda kayd etilganidek, fakat xodimning emas, shuningdek uning oila a’zolari extiyoylari eng kam mikdori xamda ish kuchini xosil etish (ta’lim olish, kasb egallash, salomatlikni saklash va xokazolar) uchun yetarli bulishi lozim;
- oilada jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning xarid kobiliyati;
- ijtimoiy mehnat unumдорligi darajasi. Mazkur ko‘rsatkichning umume’tirof etilgan mezoni - iktisodiy faol aholi birligiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot xajmi mavjud;

¹ <https://lex.uz/docs/5055690>

- mexnatga xak to‘lash xarajatlarining yalpi ichki maxsulot xajmidagi solishtirma ulushi. Bu ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iktisodiyotida ish bilan bandlik soxasidagi iktisodiy siyosatning eng muxim indikator-laridan biri xisoblanadi;
- mexnat bozorida ish kuchi sifati va rakobatdoshligi darajasi.

Ishsiz kolgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-kuvvatlash, ularni ijtimoiy muxofazalash mexnat bozoriga davlat siyosatining passiv shakliga kiradi. Ishsiz fukarolarni davlat kafolatlaydi:

- ishsizlik bo‘yicha nafaqalar ko‘rinishida ijtimoiy ko‘llab-kuvvatlash, moddiy yordam va boshka ijtimoiy to‘lovlarini ta’minlash;
- bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish.

Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarga moliyaviy yordam ishsizlik buyicha sug‘urta tizimi asosida amalga oshiriladi. aholining aloxida guruxlari, ishlovchilar, tadbirkorlar xamda mexnatni tashkil etishning ma’lum unsurlari davlat ta’sir ko‘rsatish ob’ekti xisoblanadi. Davlat ularga turli imtiyozlar, shu jumladan, solik imtiyozlar takdim etadi, jamoat ishlarini tashkil kiladi, shu orkali mexnatga bulgan talabni rag‘batlantiradi va bandlik muammolarini xal kiladi, korxona va ish joylarini (davlat tadbirkorligi) o‘zi yaratadi va x.,k. Ta’sir ko‘rsatish ob’ekti xususiyatlaridan kelib chikib, umumiyligi ta’sir ko‘rsatish choralarini va maxsus tadbirlarni ajratish mumkin.

Ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha xodimlarga bo‘lgan talabni xam, taklifni xam oshiradigan (kamaytiradigan), talab tarkibi va taklifning tarkibida aks etadigan, ularning uzaro muvofikligi darajasini oshirishga karatilgan tadbirlar farklanadi.

Ta’sir ko‘rsatish shakliga ko‘ra, bevosita va bilvosita tartibga solish usullari farklanadi. Birinchi guruhgaga davlat subsidiyalashi va turli imtiyozlar, shu jumladan, soliqlardan imtiyozlar takdim kilish yo‘li bilan barcha mumkin bo‘lgan tashkiliy-hukukiy shakllardagi, davlat bandlik xizmati bilan hamkorlik kiladigan va kandaydir kasb bo‘yicha o‘qigandan keyin ishga kabul kiladigan korxonalarda bandlikni rag‘batlantirish kiradi. Ikkinci guruhgaga demografik vaziyatni tartibga solish, davlat xaridlarini ko‘paytirish, solik tusiklarini kamaytirish, amortizatsiyani jadallashtirish

va boshka tadbirlar, ya’ni mamlakat iktisodiyoti pasayish boskichida bo‘lgan davrdagi ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantiradigan dastaklar kiradi.¹

Iktisodiyotni modernizatsiyalash boskichida O‘zbekistonda aktiv bandlik siyosatga o‘tish hayotiy zaruriyatdir. Aktiv bandlik siyosati - bu davlat tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maksadida olib boriladigan hukukiyl, tashkiliy va iktisodiy chora-tadbirlar yig‘indisidir. Bu siyosat ish o‘rinlarini saklab kolish maksadida ishchilarni kutilayotgan bushatishlardan ogohlantirish; ish izlayotganlarni o‘qitish, kayta tayyorlash va malakasini oshirish; yangi ish urinlarini yaratishni moliyalashtirish; ish o‘rinlarini izlash va tanlash; jamoat ishlarini tashkil etish tizimi orkali yangi ish o‘rinlarini yaratish va boshkalarni kamrab oladi.

Bandlik sohasida faol davlat siyosatini olib borish aholini ish bilan ta’minalash dasturini ishlab chikish va uni hayotga tatbik etish orkali amalga oshiriladi. Bu dastur mehnat bozoridagi holat va uning rivojlanish istikbollariga mos ravishda shakllanadi.

Bandlikni xududiy tartibga solish hududlar rivojlanishining ko‘plab o‘ziga xos jixatlarini xisobga olishni va ular asosida anik maksadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chikishni takozo etadi.

12.3. Mexnat bozorining modellari.

Mehnat bozori bozor iqtisodiyoti tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu, birinchi navbatda, bozor munosabatlari sharoitlarida amal etadigan turli: xom ashyo, materiallar, yokilg‘i, tayyor buyumlar, loyihamalar, ilmiy ishlanmalar, xizmatlar, turar joy, investitsiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshka bozorlar bir-birlaridan farq qilsa ham ularni asosiy sub’ekt -inson birlashtirib turishi bilan izohlanadi.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasining maqsadi mazkur sohalarda ro‘y berayotgan voqeа va jarayonlarni ilmiy holda ifoda etishdir. Bu nazariya amaliy ahamiyatga ega: u mazkur sohalarga oid bilimlarni integratsiyalashtirar va umumlashtirar ekan, ularni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va inson hayoti faoliyatining boshqa jabhalarida real tarzda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Davlat mehnat bozorida ikki turdagи siyosatni amalga oshirishi mumkin:

¹ IKTISOD VA MOLIYА / EKONOMIKA I FINANSI 2017, 7

1. Passiv siyosat ish izlayotgan fuqarolarni ruyxatga olish, ishsizlik nafaqasini tayinlash, uni taqdim kilish tizimini tashkil etish, ishsizlar va ularning oilalarini qo‘llab-quvvatlashning pulsiz shakllarini amalga oshirish bilan cheklanadi.

2. Faol siyosat bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat qilayotgan aholi ehtiyojlariga ko‘p darajada javob beradi. Uning maqsadi mehnat qilishni istagan har kanday inson o‘z talablariga mos ish joyini topishidan iborat. To‘lik bandlikni ta’minalashga qaratilgan aktiv siyosat olib borish rivojlangan mamlakatlar mehnat bozoridagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bu siyosat asosiy tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- davlat tomonidan iqtisodiyotga investitsiyalarni rag‘batlantirish, bu yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;
- tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘lik ishsizlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etish;
- mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjali va bandlik xizmatlarini rivojlanterish, friksion ishsizlik va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘lik ishsizlikni pasaytirish maqsadida vakant ish joylari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish, taxlil qilish va bartaraf qilish borasida choralar ishlab chikish;
- kichik va oilaviy tadbirdorlikka ko‘maklashish, bu ko‘plab mamlakatlarda aholi bandligini ta’minalashning muhim uslubi sifatida o‘rganilmokda;
- ish beruvchilar tomonidan alohida aholi guruhlari - yoshlar, nogironlarga ish joylarini taqdim etishni davlat tomonidan rag‘batlantirish (soliq va qonunchilik tadbirleri orqali);
- zarurat tug‘ilganda ish topish uchun yashash joyini o‘zgartirishda ko‘maklashish;
- bandlik muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlik, xalqaro mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalarni hal qilish;
- davlat sektorida - ta’lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo‘jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlarini qurish sohalarida ishchi o‘rinlarini yaratish;
- jamoat ishlarini tashkil kilish.

Mehnat bozorida faol siyosat olib borishda bandlar, band bo‘limgan va ishsiz fuqarolarning yosh-jinsiy tarkibi, kishilarning o‘rtacha yoshi, mazkur tarmoq mehnat salohiyatini tashkil qiluvchilar, ularning malaka darajasi, yollanib ishslashdan oladigan oila daromadi, mustaqil bandligi, yakka mehnat faoliyati hamda mehnat muassasalarini (tadbirkorlar, ishlovchilar, kasaba uyushmalari tashkilotlari) rivojlantirish va uning samaradorligini hisobga olish zarur.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasi uning vazifalarida konkretlashadi. Bu mehnat bozori va ish bilan bandlik rivojlanishi qonuniyatlar va tendensiylarining tahlili asosida mazkur sohalarning tub muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo‘llari va usullari yuza-sidan ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash, mehnat bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan modellar ishlab chiqish, mehnat resurslari prognozlari asosida mamlakat va mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish istiqbol rejalariga aniqliklar kiritish buyicha xulosalar tayyorlashdan iboratdir.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasida umumiy, alohida va xususiy qonuniyatlar ham mavjud bo‘lib, ular mehnat bozoridagi talab va taklifning ish haki mikdoriga bog‘liqligi, ishsizlik va iqtisodiyotdagi mehnat unumdarligining o‘zaro bog‘likligi, ish bilan bandlik tarkibining xo‘jalik yuritish shaklidagi bog‘liq ravishda o‘zgarishi, ilmiy-texnikaviy va texnologik taraqqiyot natijasida tarkibiy ishsizlikning paydo bo‘lishi kabi jarayonlarda o‘z ifodasini topadi.

Mehnat bozorida faol siyosatni amalga oshirish mintaqalarda iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlar va uni tartibga solishning samarali usullarini shakllantirish bilan bog‘liq

Mehnat bozorini tartibga solish deganda, tashqi mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatadigan chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi. Bu tadbirlar iqtisodiy, ma’muriy, tashkiliy, qonuniy va mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatishning boshqa tadbirlari majmui hisoblanadi. Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari ishsizlarni mehnat faoliyati jarayoniga yanada jadalrok jalb etish, tarkibiy qayta qurishni rag‘batlantirishni xohlovchilarga ishchi o‘rinlarini takdim etish va ishdan bo‘shatilayotgan ishlovchilarni qayta taqsimlashdan iborat. Band

bo‘lmaq fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash, egiluvchan mehnat bozorini huquqiy ta’minlash hamda ishga joylashtirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo‘li bilan rivojlantirish bu faoliyatning asosiy yunalishlari hisoblanadi.

Mehnat bozorlarida boshqa bozorlardagidan farqli ravishda iste’molchi extiyojini qondiradigan tovar emas, balki muayyan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat turi kursatish) uchun talab etiladigan ishchi kuchi xarid qilinadi. Ya’ni ishchi kuchiga talab tovar va xizmatlarga talabdan kelib chiqadi, bu esa mehnat bozori tovar bozorlari bilan uzviy bog‘likligini ko‘rsatadi. Ayni paytda ishchi kuchiga talab kapital bozoridagi holat investitsiya muxitidan ham kelib chiqadi. Mehnat va kapital bir-birini to‘ldira oluvchi va bir-birining o‘rnini bosa oluvchi ishlab chiqaruvchi omillar hisoblanadi. Shuning uchun kapital qiymatidagi har qanday o‘zgarish mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Bu omillar mexnat, tovar va kapital bozorlari o‘zaro alokada amal qilishini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

bandlik, bandlik tamoillari, ishsizlik, mexnat bozori, mehnat shartnomasi, majburiy mehnat, ishsiz fuqarolar, bandlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, passiv bandlik siyosati, faol bandlik siyosati.

Nazorat uchun savollar :

- 1.Bandlik, uning moxiyati va shakllarini izohlab bering?
- 2.Ihsizlik nima?
3. Ishsizlikning asosiy turlarini sanab bering?
- 4.Mexnat bozorining qanday modellari mavjud?
- 5.Mehnat bozorini tartibga solish deganda nimani tushunasiz?

13-mavzu: KAMBAG‘ALLIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI.

Reja:

- 13.1.Kambag‘allik tushunchasi, uning ko‘rinishlari va turlari .
- 13.2.Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari.
- 13.3.Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhanishi.
- 13.4.O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning yo‘llari va uning asosiy yo‘nalishlari.

13.1. Kambag‘allik tushunchasi, uning ko‘rinishlari va turlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida kambag‘allikka qarshi kurash iqtisodiy rivojlanish siyosatimizda ustuvor vazifa etib belgilandi.«Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinnari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir»¹, deb ta’kidlangan edi murojaatda.

Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘z naslini davom ettirishi mumkin bo‘lmas shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir.

Iqtisodiyot qonunlariga asosan, «kambag‘allik kambag‘allikni keltirib chiqaradi». Mazkur jarayon bir necha sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladi.

Birinchidan, daromadlari past mamlakatlar sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash uchun yetarlicha pul sarflay olishmaydi, kambag‘al aholi esa sifatli pullik ta’lim va tibbiyot xizmatlarga qurbi yetmasligi sababli inson salohiyati pasayib, kambag‘allikdan qochib qutula olmaydilar.

Ikkinchidan, kambag‘al aholining daromadlari pasayib borgan sari, iste’mol bozorining sig‘imi mutanosib ravishda kichrayib boradi va buning natijasida sanoat mollari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ayniqsa, xizmatlarga bo‘lgan talab pasayib boradi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotga to‘sinqilik qiladi, byudjet

¹ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasidan.//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.

daromadlarini kamaytiradi va kambag‘allarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini kamaytirib yopiq siklik jarayon ko‘rinishiga keladi.

Uchinchidan, aksariyat hollarda kambag‘allarning dunyoqarashi daromad yuqori bo‘lganlardan farq qiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan sabablarga ko‘ra, ular orasidan ijodkor va tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning yetishib chiqishi ehtimoli kamroq. Shuningdek, odatda kambag‘al oila a’zolari orasida jinoyatchilik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va aholining iqtisodiy faoliyatiga to‘sinqinlik qiladi.

Kambag‘allik nisbatan bir tushuncha bo‘lib, ma’lum bir jamiyatdagi umumiyligi standartlariga bog‘liq. Ma’lum bo‘lgan kambag‘allik me’yorlarining asosini, pul ta’minoti ko‘rsatkichlarini umumlashtiruvchi, masalan, eng minimal darajada imkoniyati bo‘ladigan oilaviy daromad yoki iste’mol xarajatlarining minimal miqdori kabi ko‘rinishda bo‘ladi.

BMT kambag‘allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to‘lash, suv bilan ta’minalash, elektr energiyasi, maktab ta’limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo‘lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag‘allik darajasi nisbiy tushuncha sanaladi va muayyan mamlakatdagi umumiyligi farovonlik darajasiga bog‘liq. Kambag‘allik mutloq va nisbiy kabi turlarga bo‘linadi. Mutloq kambag‘allikda kun kechiruvchi odamlar biologik tirik qolishni ta’minalaydigan minimal ehtiyojlarnigina qondirishlari mumkin.

1990 yildan boshlab har yili Jahon bankining «Kambag‘allik va yalpi farovonlik» ma’ruzalarini e’lon qilinadi. 2018 yilning oktabr oyida chiqarilgan ma’ruzada asosiy ko‘rsatkich kambag‘allikning xalqaro chegarasi bir kishi uchun kuniga 1,9 dollar miqdorida ekanligini kifaysatib berdi. Biroq kambag‘allik bo‘yicha yangi ta’rif va o‘lchamlar kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy kambag‘allik. Bu ko‘rsatkich mutloq va nisbiy kambag‘allik konsepsiyasini birlashtiradi. Bundan tashqari, kambag‘allik daromadlar darajasi bo‘yicha kommunal xizmatlar (suv,

elektr energiyasi), sog‘liqni saqlash yoki ta’lim olish imkoniyatini aks ettirmagani uchun ko‘p o‘lchamli kambag‘allik ko‘rsatkichi kiritildi. Ana shu tushunchaga mos ravishda global darajadagi kambag‘allar ulushi monetar kambag‘allik bilan taqqoslaganda taxminan 50 foizga yuqoriroq.¹

Kambag‘allikni o‘lchashda uchta asosiy yondashuv mavjud. Ulardan **biri** asosiy oziq-ovqat, asosiy ehtiyoj va kiyim-kechak iste’molini aholi tomonidan baholashdir. Bu, eng qo‘pol va iste’molning turli darajalarini inobatga olmaydigan yondashuvdir. Bu, albatta, o‘tgan asrlardagi ko‘rsatkichlarga o‘xshaydi, biroq mahsulot va tovarlarning real iste’mol qilinishini hisobga olinsa, iste’mol savatchasi va iste’mol (yashash uchun) minimumi deb ataladigan tushuncha kelib chiqadi. Iste’mol savati— respublikada yuzaga kelgan muayyan shart-sharoit va xususiyatlarga tayangan holda, ma’lum bir vaqt mobaynida, insonning ma’lum funksional ehtiyojlariga javob beradigan, ilmiy jihatdan asoslangan tovar va xizmatlar majmuidir. Iste’mol savatini yaratishda uning vakillik tamoyilidan foydalilaniladi. Unda mavjud bo‘lgan imtiyozlar va xizmatlar insonning normal hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha iste’mol majmualarini ifodalaydi. Iste’mol savatchasi quyidagi mahsulot va xizmatlarni o‘z ichiga oladi:-Oziqlantirish;— Kiyim, choyshab, poyabzal;— Dori-darmonlar, sanitariya-gigiena vositalari;— Mebel, madaniy – maishiy va xo‘jalikda foydalilaniladigan buyumlar;— Uy-joy va communal xizmatlar;— Madaniy-ma’rifiy tadbirlar va dam olish;— Maishiy xizmatlar, transport, aloqa;— Bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari uchun xarajatlar;— To‘lovlar va majburiy badallar.

Minimal iste’mol byudjeti, iste’mol bahosidagi o‘sishni hisobga olgan holda, zarur bo‘lganda qayta ko‘rib chiqiladi, lekin har chorakda kamida bir marta, har chorakning so‘nggi oyidagi o‘rtacha narxlar qo‘llaniladi.

Ikkinci yondashuv – aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida davlat statistika idorasi tomonidan belgilanadigan va aholi o‘rtasida daromadlar va xarajatlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotdir. Bu kabi statistik so‘rovnomalar,

¹ <http://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar/300-kambaallik-chegarasi-va-uni-bartaraf-etish-choralari.html>

«mini-ro‘yxatga olish»lar jamoatchilik fikrini o‘rganish emas, ular faqat masalaning amaliy tomoni bilan bog‘liq, ya’ni, siz qancha daromad olasiz, qancha sarf qilasiz va hokazo.

Uchinchi yondashuv – bu daromad va xarajatlarning jismoniy ko‘rsatkichlarini emas, balki moddiy boyliklari, moddiy muammolari va turmush tarzi ko‘rsatkichlarini baholovchi ommaviy so‘rovlardir.

Kambag‘allikni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: **Mutloq kambag‘allik**. Shaxsning o‘z topayotgan daromadiga asosiy ehtiyoji iste’mol, turar joy, kiyim kechagiga bo‘lgan talabini qondira olmasligi yoki minimal xarakterdagi yashashini ta’minalashga ehtiyojini qondira olishi.

Nisbatan kambag‘allik. Mazkur jamiyatda qabul qilingan hayot, yashash sharoiti, tarzi standart talablari ko‘rsatkichlari, farovonligi standart talablarining ayrim mezonlariga nisbatan kambag‘alligi

Ob’ektiv kambag‘allik. Mamlakatdagi mavjud ijtimoiy iqtisodiy tizim sharoitida insonning turmush shart-sharoiti. Jamiyat ob’ektiv xarakterdagi omillar ta’siri oqibatida ijtimoiy muvozanatlik, tartibning buzilish holatlari. Kambag‘allik darajasini aniqlashda “ob’ektiv” ilmiy ma’lumotlardan foydalanish.

Sub’ektiv kambag‘allik. Har qanday shaxs o‘zining ijtimoiy muammolarini shaxsan baholashi. Sub’ektiv kambag‘allik insonlarning daromadlarini taqqoslash orqali va ular tafovuti orqali aniqlash.

“Kuchsiz” kambag‘allik (ijtimoiy kambag‘allik). Yuqori yukni ortib olgan ko‘p bolali ishchilar, nogironlar, kasallar va ish joyida (malakasiga qarab) kam ish haqi bilan ta’milangan kambag‘allar.

“Kuchli” kambag‘allik (iqtisodiy kambag‘allik). O‘zining o‘rtacha daromadiga ko‘ra yashash sharoitini ta’minlab yurganlar favqulotda holatlarda yuzaga kelgan inqirozli holatlarda mavjud tizimda shu daromadi orqali ehtiyojini qondira olmasligi. Iqtisodiyotdagi inqirozli sharoitlarda ishchilar o‘zлari band bo‘lgan korxonalarda zarur bo‘lgan ish haqini ola olmasliklari

Qayd qilingan kambag‘allik. Kambag‘allik kambag‘allikni keltirib chiqaradi qoidasiga muvofiq yuzaga kelishi. An’anaviy kambag‘allik, yakka turmush tarzidagi

yosh bolali ayollar, ko‘p bollali oilalar, og‘ir toifadagi nogironlar, yakka turmush tarzidagi insonlar.

Suzib yuruvchi kambag‘allik. Kambag‘allikdan vaqtinchalik yaxshi turmush sharoitiga o‘tganlar va aksincha yaxshi turmush sharoitidan kambag‘allikka o‘tib qolganlar.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, demokratik davlatlar o‘zlarining kambag‘allikka qarshi kurash siyosatlarida biz yuqorida sanab o‘tgan kambag‘allikning kelib chiqish sabablarini va uning turli ko‘rinishlari xususiyatlarini inobatga olishlari lozim.

13.2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari.

Ijtimoiy himoya tizimi bu – kambag‘allik va tengsizlikni kamaytirish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va dasturlar majmuasidan iborat davlat siyosatidir.

G‘arb davlatlarida ijtimoiy himoyaning markazlashgan tizimi XX-asrning boshlarida Germaniya va Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta’midot tizimlarining yaratilishi davrida, bir oz keyinroq esa AQShda – Buyuk depressiya davrida muvaffaqiyatga erisha boshladi. 100 yil oldin ijtimoiy himoya tizimlari faqatgina bir necha mamlakatda rasman mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ushbu tizim deyarli barcha davlatlarda amal qilmoqda. Mamlakatlar o‘z imkoniyatlari, milliy sharoitlari va ustuvorliklariga asoslanib ijtimoiy himoya tizimlarini quradilar.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi nafaqat moddiy yordam berishga, balki aholining yordamga muhtoj qatlamlarini kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda 1990 yillardan boshlab nafaqa ko‘rinishidagi ijtimoiy yordam oluvchilarni rasmiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun majburiy talablar joriy qilingan. Bu amaliyot qo‘llanilgan mamlakatlarda (Koreya, AQSh, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va boshqalar.) aholi bandligi oshgani kuzatilgan.

Kambag‘allikdagi inson farovonligini faqatgina daromadlarga asoslangan baholash o‘rniga boshqa ko‘p kriteriyali tizimlari bilan o‘lchash kambag‘allikka qarshi kurashishning samarasini yanada oshiradi. Kambag‘allik bu faqatgina daromadlar emas, bu turli o‘lchamli (toza ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, sanitariya holati, boshqa zarur xizmatlar) hayot sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Maqsadli ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimidagi bu o‘zgarishlar qisman Avstriya, Belgiya, Avstraliya, Kanada, Chexiya, Daniya va boshqa mamlakatlarda 2000 yillarning o‘rtalarida rasmiy kambag‘allik darajasini kamaytirishga omil bo‘lgan.

Turli mamlakatlar kambag‘allik darajasini kamaytirish uchun turli modellarni qo‘llashadi. Misol uchun, shved modeli ikki maqsadni ko‘zda tutadi: to‘liq bandlik va daromadlar tengsizligini kamaytirishni ta’minalash. Mazkur mamlakatida, ishsizlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, talab yuqori bo‘lgan sohalarda ishslash qobiliyatini tiklashni ma’qul ko‘rishadi.

Odatda Xitoyning qashshoqlikka qarshi kurashdagi muvaffaqiyati manzilli yordam, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, kambag‘al aholini ma’lum ko‘nikmalarga o‘rgatish, infratuzilma va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kabi asosiy tayanch ustunlarga asoslangan, deya e’tirof etiladi.

Bunday yondashuv tufayli, bugungi kunda Xitoy — qashshoqlikni qisqartirishning rekord sur’atlarini namoyish etayotgan va birinchi marta “Qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha BMT mingyillik rivojlanish maqsadlari”ga erishgan mamlakat hisoblanadi. O‘tgan 40 yil mobaynida XXR 740 milliondan ortiq kishini qashshoqlikdan olib chiqdi. Bunday yutuqlar, avvalo, joylarda izchil ishlarni amalga oshirish, qat’iy ma’muriy nazorat o‘rnatish orqali ta’minlangan. Kambag‘allikka qarshi kurash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Mamlakatda faol kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali ularni ish bilan ta’minalash va aholining kam ta’minlangan qismiga pullik yordamlar ko‘rsatish kabi vazifalar kiradi.¹

¹ <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1879&context=interfinance>

Chexiyada esa kambag‘al aholini moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy nafaqadan tashqari mahsulotlar va pul ko‘rinishidagi qo‘sishimcha ko‘maklar beriladi.

AQShda kambag‘allarga ko‘rsatilayotgan yordam aholining 15 foizidan 20 foizigacha qismini qamrab oluvchi maxsus dasturlar orqali tarqatiladi. Eng ko‘p tarqalgan yordam turlari bu oziq-ovqat talonlari, arzon uy-joy olish dasturlari, qariyalar uchun tibbiy va ijtimoiy yordam turlari, bola parvarishlash bo‘yicha nafaqalar va boshqa turdagи qo‘llab-quvvatlash turlarini o‘z ichiga oladi. AQSh An’anaviy tarzda keng ko‘lamli xayriya fondlari amaliy tajribasini qo‘llanilishi va rivojlantirilganligi bilan tavsiflanadi.¹

Niderlandiya kam ta’minlangan fuqarolar muammosini hal qilishda maxalliy hokimiyat organlarini jalb etilishi bilan xarakterlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, xorij mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirishda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

13.3. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhanishi.

Jahon xo‘jaligi deganda milliy iktisodiyotdagi xo‘jaliklarning o‘zaro iqtisodiy munosabatini tushunamiz. Jahon xo‘jaligining shakllanish jarayoni amalda kishilik jamiyatining butun tarixini o‘z ichiga oladi. Chunki u ishlab chiqarish kuchlarining necha ming yillar davomidagi evolyusiyasi natijasidir. Jahon xo‘jaligining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini o‘ziga hos xususiyatlar bilan ifodalanuvchi ayrim bosqichlarga taqsimlash mumkin. Birinchi va eng uzoq davrni o‘z ichiga oluvchi bosqich buyuk geografik kashfiyoglar davrigacha davom eggan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro savdo Yevropa va Osiyodan keyin yer sharining boshqa mintaqalarini ham qamrab oddi. Mintaqalar o‘rtasida mahsulot ayirboshlash jahon bozorini vujudga keltirdi. Ushbu bozor transport rivojlanishi bilan yanada ham (kengaydi. Chunki, dengiz transporti barcha materiklarni birlashtirish imkonini berdi. Jahon xo‘jaligi XX asr arafasida to‘liq shakllanib

¹ <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1879&context=interfinance>

bo‘ldi. Jahon xo‘jaligi iqtisodiy kategoriyadir. Chunki u to‘g‘ridagi tushuncha ijtimoiy mehnat taqsimoti tushunchasi, xo‘jalik aloqalarining baynalminallahuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya tushunchalari bilan aloqadordir.

XX asrning ikkinchi yarmida keng miqyosda temir yo‘llarning barpo etilishi va dengiz transportining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi quruqliklar va materiklarni bog‘ladi hamda jahon savdosi va jahon xo‘jaligining shakllanishini ta‘minladi. Uzoq tarixiy jarayonlar natijasida XX asr boshlarida jahon xo‘jaligi tarkib topdi.¹ Ushbu davrda kapitalistik ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan bozor munosabatlari har bir mamlakat taraqqiyotining ajralmas bir omiliga aylandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko‘plab yirik mamlakatlarning monopolistik bosqichiga o‘tishi jahon xo‘jalik tizimining asoslarini yaratdi. Jahonni iqtisodiy jihatdan bo‘lib boshlash monopolistik kapitalning nafaqat o‘z hududida, balki o‘zga davlatlar yerida ham eng ko‘p foyda olish imkoniyatlarini ta‘minladi. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida bir to‘da yirik monopolistik davlatlar jahondagi ko‘plab erkin mamlakatlarni asoratga solish jarayonini yakunladilar. Yirik kolonial imtiyozlar paydo bo‘ldi, jaqon xo‘jaligi ham tubdan o‘zgarib ketdi. Xususan, mustamlaka mamlakatlar koloniyalarining roli boshqacha tus oldi. Agar XVI asrlarda kichik davlatlar yerlari yirik davlatlar uchun tovarlarni sotish maydonchasi rolini o‘ynagan bo‘lsa, XIX asrda bu yirik hukmronlar ushbu mamlakatlar hududida nafaqat tovar sotish, balki xom ashyolar, ishchi kuchini tashib ketish, muhim harbiy plasdarm maydoniga aylandi. Koloniyalardan katta hajmdagi soliqlar undirildi va ularning boyliklari boshqa turli yo‘llar bilan o‘zlashtirildi. Shu tariqa rivojlangan mamlakatlar bilan qaram mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar borgan sayin kuchayib bordi va dunyonи qaytadan bo‘lib olish uchun birinchi jahon urushi boshlanib ketdi. Ammo bu urush kapitalistlar o‘ylaganidek ularga katta foyda keltirmadi. Aksincha yirik ishlab chiqarish strukturalari qattiq zarbaga uchradi. Qaram mamlakatlardagi norozilik borgan sayin kuchayib bordi. Natijada qaror topgan jahon xo‘jaligi inqirozga uchradi. Ya’ni, Rossiyada inqilob g‘alaba qildi. Jahon xo‘jaligi ikki qarama-qarshi

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi

yo‘nalish girdobiga tushib qoldi. Bir tomondan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kapitalistik xo‘jalik, ikkinchi tomondan rejali iqtisodiyotga asoslangan sotsialistik xo‘jalik o‘rtasida keskin kurash bordi. XX asrning o‘rtalarida ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng kapitalistik mamlakatlar bilan koloniyalar o‘rtasida o‘zining eng yuqori nuqtasiga chikdi. Qaram mamlakatlar birin-ketin erkinlikka chiqib, mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Bu jarayon asosan 60-yillarda o‘z nihoyasiga yetdi.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlar oldida asosan ikkita iqtisodiy taraqqiyot yo‘li mavjud edi. Bu bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyot yo‘li edi. Shu tariqa jahon xo‘jaligi yangi-yangi mamlakatlar hisobiga tobora kengayib bordi. Shuningdek, jahon xo‘jaligida raqobat keskinlashdi, chunki jahon xo‘jaligi bir-biriga zid yo‘nalishlardan rivojlanishning turli bosqichlarida to‘rgan mamlakatlardan tashkil topgan edi. Bu hol 1991 yilgacha davom etdi. 1991 yildan sotsialistik tizim barham topdi va bozor iqtisodiyoti jahon bozorida hukmron yo‘nalish bo‘lib qoldi.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanib barcha mamlakatlarni qamrab oldi. Hozirgi zamон jaqon xo‘jaligi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos tomonlaridan biri iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan davlatlarning bab-baravar iqtisodiy munosabatlarga qatnashuvi bo‘lsa, ikkinchi muhim xususiyati mamlakatlar bo‘yicha ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi tobora chuqurlashib bormoqda.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘idir. U har qanday xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishini ta’minlab berish xususiyatiga ega. Jahonning barcha sanoat tarmoqlarida 400 milliondan ziyod ishchi va xodimlar ishlaydi. Mavjud sanoat tarmoqlari rivojlanish davri va ahamiyatiga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi:

1- guruhga sanoatning eski tarmoqlari - toshko‘mir, temir rudasini qazib chiqarish, metallurgiya, vagonsozlik, kemasozlik, to‘qimachilik kiradi.

2- guruhga yangi tarmokdar deb ataluvchi avtomobilsozlik, rangli metallurgiya, plastmassalar, kimyoviy tolalar, samolyotsozlik, stanoksozlik kabi tarmoqlar kiradi.

3 - guruhga eng yangi tarmoqlar kiradi. Bular mikroelektronika, elektron hisoblash texnikasi, atom va aerokosmonavtika, optika, organik sintez kimyosi, mikrobiologiya va boshqalardir. Hozirgi davrda uchinchi guruh sanoat tarmoqlari eng tez va barqaror rivojlanish sur'atlariga ega bo'lib asosan postindustrial mamlakatlarda rivojlanmoqda. Yoqilg'i energetika sanoati xususiyatlaridan biri mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish geografiyasi o'rtasidagi farqning kattaligidir.

Hozirda rivojlanish darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlarini shartli ravishda uch gurug'a bo'lish mumkin: 1.Rivojlangan mamlakatlar – AQSh, YeI davlatlari, Xitoy, Yaponiya va boshqalar.

2.Sobiq sotsialistik davlatlar.

3.Rivojlanayotgan mamlakatlar – XX asr o'rtalarida milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlari.

Bu davlatlarning taraqqiyot darajasi bu yerda yashayotgan axolining turmush darajasini, shu jumladan, kambag'allik darajasini ko'rsatadi.

13.4.O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning yo'llari va uning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston sharoitida ham rivojlangan mamlakatlardek kambag'allikni qisqartirishga kompleks yondashuv eng maqbul yechimdir. Mazkur siyosat mehnatga layoqatli aholini imkon qadar ish bilan ta'minlash va bir vaqtning o'zida muhtoj odamlarni kambag'allik chegarasidan chiqarishga qaratilgan davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Shu bilan birga, qashshoqlikni zudlik bilan bartaraf etishning imkonini bo'limgan sharoitda kam ta'minlanganlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning daromad olishi va inson kapitalini rivojlantirishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish muammosini hal qilishga hukumat tomonidan katta hajmdagi sa'y-harakatlar qaratilgan. Jumladan, mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish uchun zarur institutlar yaratildi. Bu avvalambor Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi,

kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son qarori 3-ilovasida “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi” to‘g‘risida nizom qabul qilindi. Bu nizomda umumiy qoidalar, vazirlikning tuzilishi, vazirlik va uning hududiy bo‘linmalarining asosiy vazifa va funksiyalari keltirilgan.¹

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas’ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko‘mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ijtimoiy yo‘naltirilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunday mamlakatlarda davlat jamiyat hayotidagi ishtiroki ancha muhim bo‘lib, u o‘z fuqarolari oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini keng ko‘lamba amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Kuchli ijtimoiy siyosat degani davlat institutlari tomonidan ijtimoiy ne’matlarni jamiyatning eng kam himoyalangan va eng zaif a’zolari foydasiga taqsimlash demakdir. O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda boshqa ko‘plab mamlakatlardan farqli o‘laroq, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilgani shubha ostiga olinmay kelinmoqda. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekistonda haqiqatan ham ijtimoiyadolat tushunchasiga mos keladigan davlat siyosati modeli tanlanganini ta’kidlash mumkin. Ming yillar davomida xalqimiz yashab turgan zaminimizda odamlar bir-biriga yordam berishi, og‘ir hayotiy vaziyatlarda qolgan qashshoq va zaif aholi qo‘ni-qo‘shni, mahalla va jamiyatdan madad olishi lozim, degan an’anaviy dunyoqarash shakllangan. O‘zbekistonda ijtimoiy shartnomalar ijtimoiy axloqning ko‘p asrlik tamoyillariga asoslangan.

¹ <http://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar/300-kambaallik-chegarasi-va-uni-bartaraf-etish-choralari.html>

Shunday bo‘lsada, uzoq vaqt davomida, kambag‘allikning mavjudligi siyosiy sabablarga ko‘ra rasmiy darajada deyarli tan olinmagan, kambag‘allikni aniqlashning qonuniy tasdiqlangan mezonlari yo‘q edi, bu holda samarali ijtimoiy siyosat olib borish juda mushkul masala edi. Biroq, kambag‘allik muammosi yo‘qolmadi, hatto 2007 yilda uni bartaraf etish uchun tegishli strategiyani ishlab chiqishga harakat qilindi. BMT, Jahon banki va OTB bilan birgalikda «2008-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisi farovonligini oshirish strategiyasi» ishlab chiqildi Biroq tan olish kerak, yaqin davrgacha mahalla qo‘mitalari orqali kambag‘allarni real ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmadi.

Moddiy yordam ko‘rsatish mexanizmi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldag'i qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom»¹ bilan belgilanadi. Ushbu qoidaga muvofiq, bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi qaror qabul qilishga vakolatli mahalla fuqarolar yig‘ini yoki komissiyaga belgilangan. Komissiya fuqarolar yig‘ini raisi boshchiligidagi fuqarolar yig‘ini tomonidan saylanib kelgan. Komissiya a’zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig‘ini raisi esa – o‘z vakolatlarining butun muddati davomida saylangan. Ushbu komissiya a’zolarining soni kamida 15 kishini tashkil etishi lozim.

Mazkur mexanizm, komissiya a’zolari o‘zлari yashayotgan mahallalarda qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj aholini bilgan holda ob’ektiv qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. Ammo, boshqa tomonidan, jamoaviy qaror qabul qilishning bunday mexanizmi juda murakkab, yetarlicha shaffof emasligi va berilgan vakolatlar suiiste’mol qilinishini istisno qilmaydi, ayniqsa, ko‘plab jarayonlar ortiqcha hujjatlar va sertifikatlar taqdim etilishini talab qiladi. Balki shuning uchundir, ijtimoiy yordam ajratish mexanizmidagi qiyinchiliklar va kamchiliklar ta’sirida Prezident qabulxonalariga samarasiz yoki hatto adolatsiz moddiy yordam ajratish amaliyotlar haqida murojaatlar soni oshib ketishiga olib keldi. O‘zbekiston

¹ <https://lex.uz/docs/2134701>

Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi «Aholi muammolari bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmonida¹ Xalq qabulxonalarini hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa ob’ektlarni o‘rganish orqali muammolarni aniqlash, ularga yechim topishga qaratilgan tizim joriy qilindi.

Xuddi Xitoydagi kabi O‘zbekistonda ham “manzilli yondashuv” — ijtimoiy himoya tizimining asosiy elementlaridan biridir. Yordamga muhtoj barcha fuqarolar tarmoqlar va mahalla yig‘inlari rahbarlari tavsiyasi bilan “Temir daftar”ga kiritiladi. Aslida, bu “SAXOVAT.ARROS.UZ” elektron dasturi bo‘lib, unga kiritilgan fuqarolarga davlatning maqsadli yordam ko‘rsatishi “qat’iy kafolatlanadi”. “Temir daftar”ga ish o‘rinlari va daromad manbalarini yo‘qotganlarning barchasi, shuningdek, nogironligi bo‘lgan kishilar, yakka-yolg‘iz qariyalar va kam ta’minlanganlar kiritiladi.

“Temir daftar”dagi oilalarni tanlash ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan kategorial baholash usuliga asoslanadi. Bunda aholining ayrim guruhlariga ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar sifatida qaraladi.

Bizning holatda “Temir daftar”ni yuritish 5 ta toifadagi oilalarni nazarda tutadi:

- 1) ehtiyojmand, nochor va moddiy ko‘makka muhtoj oilalar;
- 2) nogironligi bo‘lgan va surunkali kasallikka chalingan kishilar;
- 3) 5 va undan ko‘p farzandi bor oilalar;
- 4) yakka-yolg‘iz keksalar, bevalar va o‘zgalar qaramog‘iga muhtojlar;
- 5) karantin choralarini natijasida o‘zining daromad manbaini yo‘qotgan oilalar.

Bugungi kunda “Temir daftar”ga kiritishning asosiy mezoni — daromad va ishlab pul topish vositalarining mavjud emasligi hamda mehnatga layoqatlilikning cheklanganidir.

Tuman yoki shahar sektorlari rahbarlari mahalla raislari bilan birgalikda oilalarning moddiy va uy-joy sharoitlarini o‘rganish va umumlashtirish uchun uyma-

¹ <https://lex.uz/docs/4166958>

uy yurmoqda, agar maqsadga muvofiq, deb topilsa, yangi aniqlangan ehtiyojmandlar ham dasturga kiritiladi.

Ushbu dasturning afzalligi shundaki, undan tuman, viloyat va umuman, respublikadagi mavjud ijtimoiy vaziyat haqida aniqroq tasavvur yuzaga keladi. Ya’ni, tuman hokimidan tortib, Prezidentgacha ishlar ko‘lami va erishilgan natijalar borasida, real yordam ko‘rsatilayotgan oilalar va ism-shariflarga, aniq va yaxlit tasavvurga ega bo‘ladi.

Oddiy qilib aytganda, “Temir daftar”da umumiyoq ko‘rsatkichlar emas, balki har bir oila, har bir fuqaroning muammolari va ularning yechimlari aks etadi. Bularning barchasi har bir fuqaroning ijtimoiy muammolariga, uning o‘ta zaruriy muammolarini hal etishga yordam beradigan yo‘l va vositalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda kambag‘allikni yengishga hissa qo‘shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o‘rinni yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog‘liqni saqlash, kasb-hunar ta’limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag‘allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Kambag‘allik, istemol savatchasi, mutloq kambag‘allik, nisbatan kambag‘allik, ob’ektiv kambag‘allik, sub’ektiv kambag‘allik, “kuchsiz” kambag‘allik, “kuchli” kambag‘allik, qayd qilingan kambag‘allik, suzib yuruvchi kambag‘allik, kuchli ijtimoiy siyosat, temir daftar.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Kambag‘allik tushunchasini izohlab bering?
2. Kambag‘allikning qanday ko‘rinishlari va turlari mavjud?

3.Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishning qanday zamonaviy tajribalarini bilasiz?

4.Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish jihatdan qanday gruhlarga bo‘linadi?

5.O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning yo‘llari va uning asosiy yo‘nalishlari nimalarda ifodalanadi?

14-mavzu: DAVLATNING OILAGA QARATILGAN SIYOSATI

Reja:

14.1.Oila tushunchasi, uning turlari va shakllari.

14.2.Xorij davlatlarida oilaviy qon-qardoshlik munosabatlari tarixi.

14.3.Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati.

14.1.Oila tushunchasi, uning turlari va shakllari.

Oila-inson tafakkurining oliy mahsuli. Zotan, bu mo‘jaz maskan umrimizga mazmun, hayotimizga fayz beribgina qolmay, jamiyat ravnaqi, yurt taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayni chog‘da oiladagi totuvlik va ahillik kishining ongu shuurida hayotga muhabbat, kasbga sadoqat, atrofdagilarga nisbatan hurmat va e’tibor singari yuksak insoniy fazilatlarni ham shakllantiradi.

Sog‘lom muhit qaror topgan oilalar yurt koriga yaraydigan, el xizmatiga kamarbasta bo‘la oladigan farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishning eng asosiy omillaridan biridir. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta’minlash, uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Oilaning quyidagi turlari mavjud:

1. Katta patriarchal oila, bunda ota-onalar, bolalar, nevaralar bir oilada yashaydilar;
2. Ikki avloddan – ota-onva bolalardan iborat oila;
3. Noto‘liq, ya’ni oilada biror sababga ko‘ra ota yoki ona yo‘qligi;

- 4.Faqat er va xotindan tashkil topgan oila;
5. Aralash, yaqin yoki uzoq qarindoshlar bir xonadonda istiqomat qiladigan oila;
6. Baynalmilal, turli millat vakillari tuzgan oila:
7. Qayta qurilgan oila.¹

Bu oilalarni er va xotinning kelib chiqishi ma'lumoti, kasb-hunariga, moddiy va ma'naviy boyligiga, qaerda yashashiga qarab ham turlarga bo'lish mumkin. Oilaning tarkibi turli xil bo'lishiga qaramasdan, oila bajarishi zarur bo'lgan umumiyl vazifalar mavjud. Oilaning vazifalari: iqtisodiy-xo'jalik, reproduktiv (naslning davom ettirilishi), tarbiyaviy (mehnat, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, jismoniy, aqliy, ruhiy, jinsiy, axloqiy, estetik, diniy), nazorat etish, oila a'zolarining mavqeini, hurmatini, or-nomusini, sha'nini himoya etish, dam olishni, bo'sh vaqtini unumli tashkil etish, yosh avlodni oila qurishga tayyorlash, yordam berish, ruhiy-emotsional, muloqot (kommunikativ), qari bobolar-momolar, ota-onalar haqida g'amxo'rlik.

Tadqiqotlarda oilaning turlicha tariflari keltiriladi.

Oila — insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhdir².

Oila — jamiatning birlamchi bo'g'ini bo'lib, u qo'yidagi qat'iy belgilar bilan ajralib turishi kerak:

- erkak va ayolning o'zaro ittifoqi, kelishuvi;³
- ixtiyoriy va erkin holda nikoh tuzilishi;
- er-xotinning birgalikda umr kechirishi;⁴
- birgalikda ro'zg'or yuritishi;

¹ Vatan tuyg'usi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996, 82-b.

² Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: "Universitet". 1997. - 5-bet.

³ 1948 yilda qabul qilingan BMT Bosh assambleyasi Inson huquqlari deklaratsiyasining 16-moddasi.

⁴ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017 yil № 4, 2017 www.iqtisodiyot.uz 3

- hukumat tomonidan belgilangan va jamiyatda amal qilinadigan huquqiy normativ hujjatlar asosida nikoh munosabatlariiga kirishishi;
- farzand ko‘rish, uni moddiy ta’minlash va tarbiya berishga bиргаликда intilishi (Oila demografik jarayonlarning rivojlanishida eng asosiy o‘choq hisoblanadi);
- nikohning doimiyligiga intilish, hayotning har qanday qiyinchiliklariga qaramay oilani saqlab qolishga intilish¹.

Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda oilalarning tuzilishi, tarkibi va boshqa ko‘rsatkichlariga ko‘ra bir nechta toifalarga bo‘linganini ko‘rish mumkin. Ya’ni:

- nikoh birligiga ko‘ra (poligam – ko‘p nikohli, monogam – bir nikohli);
- oilada istiqomat qiluvchilar tarkibiga ko‘ra (oddiy (bir ota-onा va turmush qo‘rmagan farzandlar bilan), murakkab (ikki yoki undan ortiq oilalar birga istiqomat qiladigan (yoki bobo-buvi, ota-onা, o‘g‘il-kelin tarzida)), (agar ota-onalar hayot bo‘lib birga yashashsa, tugal oila, agar ulardan biri vafot etgan bo‘lsa, yoki faqat biri farzandlar bilan yashashi tugalmas oila deb tavsiflanadi);
- oilalarda oila a’zolarining miqdoriga ko‘ra, (kichik oilalar – 2-4 kishidan, o‘rta oilalar – 5-6 kishidan, katta oilalar – 7 va undan ortiq kishidan iborat) va boshqalar.

Shuningdek, oila a’zolarining yosh guruhlari bo‘yicha tarkibi, ijtimoiy guruhga mansubligi bo‘yicha tarkibi va boshqa qator indikatorlari ham bor. Oila nikoh va tug‘ilish jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi manba hisoblanadi. Ular bir-biri bilan o‘zaro zanjirdek bog‘langan bo‘lib, jamiyat rivojlanishini, davomiyligini ta’minlovchi asosdir. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida aholining qator demografik ko‘rsatkichlari — tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish bir xilda kechmagan. O‘tgan davrda bu ko‘rsatkichlarning ortib borishini ham, kamayib borish holatlarini ham ko‘rish mumkin. Bu jarayonlarda oilalar va ulardagi farzandlar soni muhim rol o‘ynagan faktorlardan hisoblanadi. Shu o‘rinda ko‘p bolali oilalar, umuman oiladagi bolalar soni nuqtainazaridan oilalar miqdorini aniqlash bo‘yicha ilmiy xulosalarga tayanadigan bo‘lsak, bu tushunchaning barcha birdek qabul qilgan me’yori yo‘q.

¹ Deklaratsiya «Moskovskogo demograficheskogo sammita: Semya i budushhee chelovechestva». 4 iyul 2011 g.

Oilaning miqdori nisbiy tushuncha bo‘lib, uning birinchi navbatda qaysi millatga, elatga mansubligi, ularning yashash mentalitetiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, birinchidan, oila – jamiyatning muhim hujayrasi bo‘lib, jamiyatning normal rivojlanishi, aholining ko‘payishini, yosh avlodning jismoniy va ma’naviy tarbiyasini, insonning tabiiy ehtiyojlari – sevgi, muhabbat va muloqotni ta’minlaydi. Ikkinchidan, bugungi kunda oila – o‘zining tarbiya yo‘nalishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlik kasb etgan. O‘z an’analarini avlodlarning boy tajribalari asosiga qurban va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitga ega bo‘lgani natijasida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitda ham o‘zligini yo‘qotmaydigan, o‘z davri bilan hamisha hamnafas va hamkor oiladir. Odatda bunday oilada oilaviy munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ota-onalar farzandlar, bobo-momolar va nabiralar o‘rtasida bir-birini tushunish, anglash, hurmat qilish, o‘zaro yordamlashish, mehr-muruvvat ko‘rsatish tamoyillari uyg‘unlik kasb etgan bo‘ladi.

14.2.Xorij davlatlarida oilaviy qon-qardoshlik munosabatlari tarixi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashda dunyoning rivojlangan davlatlarida ijobiy natijalar bergen yondashuvlarni o‘rganish va joriy qilish – davr talabidir. Bunda oila muammolarini o‘rganish va hal qilishga ijtimoiy ish nuqtai nazaridan yondashish sohani modernizatsiyalashtirish, rivojlantirish shartlaridan biridir.

Kezi kelganda shuni aloxida takidlash lozimki, Yevropada er-xotin orasidagi itoatning qulchilikdan farqi bo‘lmagan. Ulardagi xotinning eriga itoat qilishi savdo shartnomasiga o‘xshash bo‘lgan. Er o‘z xotinini sotishi, sotib olishi, ijaraga berishi yoki vaqtinchalikka berib turishi joriy odat bo‘lgan. Fransiya inqilobidan keyingina, 1791 yili chiqarilgan qonun bo‘yicha, bu qoida bekor qilindi. Yangi qonunning 213-moddasiga binoan, xotin eriga itoat qilishi va u turgan joyda turishi lozim, deyildi. Mazkur qonunning 1388-moddasiga binoan, itoat vojibligiga xilof bo‘lgan har qanday shartni bekor, deyildi. 1804 yildagi «Fransiya grajdaniq kodeksi»

chiqquncha, er xato qilgan xotinini qamash va xodimga o‘xshash muomala qilish huquqiga ega edi.

Xorij davlatlarida oila va oilaviy qon-qardoshlik munosabatlarini tartibga solishda nikoh shartnomasining axamiyati katta bo‘lgan Avvalo, shuni aytish joizki, nikoh shartnomasi tarixi uzoq moziyga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi davrda Vavilonda nikoh shartnomasiga amal qilingani haqida ma’lumotlar mavjud. O‘sha paytda agar turmushga chiqqan ayol biror-bir sabab bilan eridan voz kechsa, oila sha’nini yerga ursa yoki oilada isrofgarchilikka yo‘l qo‘ysa, nikoh shartnomasiga muvofiq bunday xotinni eri qul sifatida sotishga haqli bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, ming yil muqaddam qadimgi Gresiya va Rimda kelin-kuyov oila qurishdan avval, albatta, kelishuv shartnomasini rasmiylashtirib olgan. Unda mol-mulk munosabati va merosxo‘rlar masalasi uzilkesil hal qilingan. Eng muhimi, bunday hujjatni tuzish va imzolash hech kimga noqulaylik tug‘dirmagan, uyat ham sanalmagan.

XVII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib Fransiya, Angliya, Germaniya, Avstriya kabi rivojlangan davlatlarda nikoh shartnomasi instituti faoliyati qayta tiklangan.

1982 yilga qadar Angliyada er-xotinning mol-mulki “Umumiy qoida” (“common law”)ga muvofiq butunlay arning ixtiyorida bo‘lgan. Turmushga chiqqan ayol o‘z mol-mulkiga ega bo‘lish yoki uni tasarruf etish u yoqda tursin, hatto bunday erkinlikdan amaliy jihatdan butunlay mahrum etilgan. Boshqacha aytganda, nikoh tuzilishi bilan kelinning mol-davlati arning shaxsiy mulkiga aylangan. Ya’ni ayol shaxs sifatida ham, mol-mulk egasi sifatida ham inon-ixtiyorini butunlay erga topshirgan.¹

Albatta, bunday ahvol uzoq davom etishi mumkin emas edi. Shunday ham bo‘ldi. XVII asrga kelib, Angliyada “umumiy qoida” mulkdorlar toifasi manfaatlariga to‘g‘ri kelmay qoladi. Natijada turmush qurgan ayol qarindoshlarining mulkiy huquqini himoya qilish, avloddan-avlodga o‘tib

¹ Mirzaeva Z . Nikoh shartnomasi
tarixi://<https://surxondaryo.adliya.uz/surxondaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=121>

kelayotgan mol-dunyoni saqlab qolish maqsadida ayolning alohida shaxsiy mulki institutini tashkil qilish zarurati tug‘ildi. Shu maqsadni ko‘zlab, bora-bora “adolat sudlari” (“equity”) mol-mulkning bir qismiga nikoh shartnomalarini haqiqiy, deb tan oladigan bo‘lishdi. “Adolat sudlari” tomonidan ishlab chiqilgan qonun-qoidalar odatdagi oilaviy ashayolarga emas, balki shaxsiy mulkka, aniqrog‘i, har qanday ko‘rinishda boylikka daxldor edi. Qisqasi, XIX asr oxirlarigacha Angliyada ko‘pchilik aholiga tegishli bo‘lgan — (“common law”) va (“equity”) oliy tabaqalar, ya’ni mulkdorlik toifasi uchun alohida-alohida oilaviy mol-mulk qonun-qoidalar amalda hukm surib keldi.

Ko‘pgina g‘arb mamlakatlarida nikoh shartnomalarini tuzishda nihoyatda jiddiy me’yoriy talablar mavjud bo‘lib, agar unga amal qilinmasa, shartnomalar haqiqiy emas, deb topiladi. Buning oqibatida bir qator ko‘ngilsizliklar kelib chiqishi mumkin.

Yana bir qiziq tomoni shundaki, manfaatdor shaxslar nikoh shartnomasi bilan batafsil tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmaseda, lekin uning tuzilganligi to‘g‘risida istalgan vaqtda aniq axborot olishi mumkin.

Germaniyada nikoh shartnomasiga mol-mulk huquqi va qarilik ta’minti masalalari kiritilgandagina notarial idora tasdig‘i talab qilinadi, boshqa hollarda bunga hojat yo‘q. Shuningdek, bu mamlakatda er-xotinning nikohdan oldingi yoki nikohdan so‘ng orttirgan mulki shaxsan o‘ziniki hisoblanadi. Uni har biri o‘zi xohlaganidek tasarruf etadi. Oilada er-xotin bir-birining qarzi uchun javobgar emas va o‘ziga tegishli mulkdangina kafolat vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Faqat oila ta’mintini ular birgalikda amalga oshiradilar.¹

Bundan tashqari, mamlakatda mabodo nikoh bekor qilinishiga borib yetsa, er-xotinning nikohgacha va undan keyingi mulki alohida-alohida hisoblab chiqilib, taqqoslanadi. Agar ular farq qilsa, pul shaklida biridan ikkinchisiga olib berib, tenglashtiriladi.

¹ <https://surxondaryo.adliya.uz/surxondaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=1215>

Shvesiyada esa nikoh shartnomasi okrug sudi tomonidan ro‘yxatga olinadi va mamlakat bo‘yicha yagona reestrga kiritiladi. Faqat nikoh shartnomasida mol-mulk va uni boshqarish masalasidan boshqa hech narsa qayd etilmaydi.

Italiyada esa kelin-kuyov bor-yo‘g‘i ikki xil turdag'i nikoh shartnomasidan bittasini tanlab olishi mumkin. (Communione dei beni) — to‘ydan keyin orttirilgan mol-mulk ajralish vaqtida teng ikkiga bo‘linadi; (Separazione dei beni) — ajralish vaqtida har kim o‘ziga tegishli mulkni oladi. Nikohgacha er-xotin ega bo‘lgan mulk bo‘linmasdir. Italiya Konstitutsiyasi nikohga asoslangan oilani tan oladi va uning huquqlarini kafolatlaydi.¹

Turmush qurish degan tushuncha bor ekan, xohlaymizmi-yo‘qmi ajralish degan tushuncha ham hayotda mavjud. Shunday ekan, nikoh shartnomasi — qonuniy hujjat sifatida inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri – AQShda oila va oilaviy munosabatlarni takominlashtirish borasida ilmiy asosda amalga oshirilgan islohotlarning ayrim xususiyatlari o‘rganish katta axamiyatga ega.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Milliy ijtimoiy ishchilar jamiyati, ijtimoiy xizmat, odamlarga, guruhlarga yoki jamoalarga ijtimoiy vazifalarni yaxshilash va o‘z maqsadlariga muvofiq ijtimoiy sharoit yaratish uchun professional faoliyat uchun yordam beradi. Oila masalalari bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy ishchilar oilaviy terapevt bo‘lib, kamida magistr darajasiga ega bo‘lishi va bakalavr darajasiga ega bo‘lganlar amaliyotchi, ya’ni umumiy ijtimoiy xodim sifatida faoliyat ko‘rsatishi taqozo qilinadi.

“Aralashuv” — atamasi oilaning yoki uning atrofidagilarning iltimosiga binoan yoki biror muayyan muammoli vaziyatga javoban mijoz va ijtimoiy xodim bilan hamkorlikdagi faoliyatini ifodalaydi. U oila va ijtimoiy xodimning faol, maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan hamkorligiga xizmat qiladi. Oila bilan ishlash jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) oiladagi muammolarni aniqlash va aloqa o‘matish;
- 2) ma’lumot, axborot yig‘ish va ularni baholash;

¹ O‘sha joyda.

- 3) reja va shartnoma tuzish;
- 4) zarur chora-tadbirlar yo‘nalishlarini ko‘rib chiqib, aralashuvning muqobil variantlarni aniqlash;
- 5) yakuniy baholash bosqichi va jarayonning yakunlanishi.¹

AQShda ijtimoiy ishning turli usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu usullar muayyan maqsadga erishishga xizmat qiladi. Ijtimoiy xodim albatta, bir qobiqda emas, yangi, innovatsion, ta’sirchan shakllarini va oilaviy pedoterapiya, psixologik va ta’lim maslahat, “hamkasb bilan tandem ish” kabi ijtimoiy ish usullari, “oila profili” kabi an’naviy usullar bilan bir qatorda “oilada ijtimoiy ishchi” kabilarni kiritishi mumkin. AQShda ushbu soha o‘zining chuqur ilmiy asosga egaligi ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi kunda Qo‘shma Shtatlarda oilaning an’naviy modelidan uning alternativ shakllariga o‘tish tendensiyasi mavjud. Ushbu o‘zgarishlar «oila» tushunchasini aniqlashda yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu bois ijtimoiy ishchilar uchun maqbul bo‘lgan quyidagi ta’rif oilaviy shakllarning xilma-xilligini o‘zida aks ettirmoqda: "Oila — ikki yoki undan ortiq kishilarning yashash muhiti bo‘lib, bunda ular hayot maydonini, majburiyat va mas’uliyatlarni, rollarni birgalikda baham ko‘rib, taqsimlashadi va o‘zlarini oila deb bilishadi. Oilaning ma’naviy funksiyalarini baholashda amerika nazariyotchi olimlarining aksariyati tizimli yondashuv pozitsiyasida turishadi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qaralganda oila - bu tizim, uning barcha a’zolari bir-biriga ta’sir ko‘rsatadilar va ta’sirlanadilar. Har bir oila muhiti o‘z xususiyatlariga ega va bir qator ichki qoidalar, muayyan rollar, huquq va mas’uliyatning taqsimlash tuzilmasi, nizolarni hal etishning o‘ziga xos shakllari bilan boshqariladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda AQShda amalda bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy ish shakllari ishlatiladi: naqd pul yordami tizimlari (imtiyozlar, to‘lovlar, kompensatsiyalar, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash), natural yordam tizimlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal, shuningdek, dori-darmonlar, xayriya

¹ Quronov M. Oilalar bilan ijtimoiy ishslash tendensiyalarining ilmiy asoslariga bir nazar (AQSh tajribasi) // file:///C:/Users/User/Downloads/3107

dasturxonlari, xotin-qizlar uchun huquqiy maslahatlar, uy-ro‘zg‘or xizmatlari uchun imtiyozlar, kreditlar, imtiyozli ish o‘rinlari va boshqalar), gumanitar yordam shular jumlasidandir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda oila muammolarini kompleks o‘rganish va hal qilish dunyoning rivojlangan davlatlarida ushbu sohada qilinayotgan yangiliklarni ilmiy asosda o‘rganish va samarali natijalar bergen ijtimoiy texnologiyalarni mamlakatimiz xususiyatlardan kelib chiqib, joriy qilish bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

14.3.Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati

Har qaysi millat ma’naviyatini shakllantirish hamda yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki eng sof hamda pokiza tuyg‘ular, halollik, rostgo‘ylik, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar, eng avvalo, oila sharoitida kamol topadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda oila institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga muhim ijtimoiy vazifa sifatida e’tibor qaratilgani zamirida ham har tomonlama sog‘lom, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli avlodni tarbiyalash maqsadi mujassamdir.

Mustaqillik yillarida oila fenomeniga davlat ahamiyati darajasida jiddiy e’tibor qaratilganligi, oilani har taraflama rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-ma’naviy himoya qilishga astoydil kirishilganligini alohida ta’kidlash zarur. Bu, avvalo, Asosiy qonunimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Konstitutsiyamizning uchinchi bo‘lim, XIV bobi «Oila» deb nomlangan bo‘lib, undagi 63–66-moddalarda oilaning ijtimoiy-tarixiy roli, ahamiyati huquq va burchlari hamda ahamiyati qonuniy asoslarda aniq-ravshan belgilab berilgan. Bu moddalarda oilaning «jamiatning asosiy bo‘g‘ini» ekanligi hamda jamiat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga egaligi, oila qurishga asos bo‘luvchi nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi (63-modda), ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi (64-modda), davlat va jamiat yetim bolalarni yoki ota-onalari vasiyligidan mahrum bo‘lgan farzandlarni o‘z

qaramog‘iga olishni, shuningdek, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantirishi (64-modda), farzandlar ota-onalar nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida teng ekanligi (65-modda), onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi (shu modda) kabi g‘oyat muhim masalalarga huquqiy maqom berildi. Ayniqsa, 66-moddadagi «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar» kabi fikrlar jahon qonunchiligidagi o‘ziga xos yangi hodisa sifatida e’tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi qarori bilan yangi Kodeks O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” qabul qilindi¹ va 1998 yil 1 sentyabrdan boshlab yangi kodeks amalga kiritildi. Mazkur Oila kodeksi mohiyati, mazmuni jihatidan 1969 yil 6 iyunda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksidan tubdan farq qiladi. Jumladan, eski kodeksda Ittifoqdosh respublikalar aholisining o‘ziga xos urf-odatlari, mahalliy va milliy xususiyatlari inobatga olinmagan holda barcha uchun nafaqat shakl, shuningdek, mazmun jihatdan ham bir xil bo‘lgan qoidalar joriy qilinar edi. Yangi Kodeksda biz orzu qilgan yangi jamiyatning tabiatini ifoda etuvchi, uning asosiy xususiyatlarini o‘zida mukammal aks ettiradigan hamda zamonaviy oilaviy hayotning kamol topishiga, oilaviy munosabatlarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga faol ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan qoidalar mujassam bo‘ldi. Ayni paytda, ushbu Kodeksda zamonaviy oila qonunlarini takomillashtirishda uzoq yillar davomida hayot sinovidan o‘tgan va ijobiy ma’no-mazmun kasb etgan qoidalar ham saqlanib qolgan. Yangi Kodeksga kiritilgan normalarda mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy-demokratik, insonparvar davlat vazifalarini bajarishga, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida zamonaviy oilalarning barqarorligini ta’minalash tizimini yaratishga qaratilgan qoidalar o‘z aksini topgan. Yangi Kodeksda, jumladan 1-modda – «Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda ularning vazifalari»da shunday deyiladi: Huquqiy davlatlarda oilaviy munosabatlarga oid axloqiy normalar huquqiy qoidalar bilan uzviy bog‘liqdir. Huquqiy normalarning muayyan munosabatlarga tadqiq qilinishi umuminsoniy axloq talablarini amalga oshirishni ta’minlasa, axloqiy

¹ <https://www.lex.uz/docs/104720>

normalar esa, o‘z navbatida, qonunlarni buzmasdan, to‘g‘ri amalga oshirish, qonun talablariga og‘ishmay rioya qilish uchun zarur hissiyotlarni tug‘diradi. Adolat va tenglik qaror topgan demokratik jamiyatda oilaviy munosabat yuksak ideallar – muhabbat, do‘slik, birodarlik, o‘zaro hurmat-izzat tamoyillari asosida tuzilishi, muqarrar nikohning ozod bo‘lishi, er va xotin nikohga o‘tishining erkin bo‘lishi oila munosabatlarining mustahkam va abadiy bo‘lishi uchun garovdir¹.

Oila kodeksida nikoh shartnomasi instituti, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat hamda an’analarning qo‘llanilishi, qon-qardoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, aliment to‘lashga oid majburiyatlar singari qator qoidalar jamlangan.

Ona va bola manfaatlarining huquqiy himoyasi ularning salomatligini asrash, moddiy hamda ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mehnatni onalik bilan bog‘lab qo‘sib olib borish uchun ayollarga zarur sharoitlarni yaratishga asoslanadi.

Mamlakatimizda har bir oila davlat muhofazasiga olingan. Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlari oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, nafaqat er-xotin, ayni chog‘da voyaga yetmagan farzandlarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga molik.

Mamlakatimizda oila mustahkamligini ta’minlash, ayniqsa, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2018 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3808-sonli “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.² Ushbu qarorda O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaralishi takidlab o‘tilgan.

Qarorga asosan quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar etib belgilandi:

¹ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000, 3-4 betlar.

²<https://www.lex.uz/docs/3797625>

oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;

demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;

oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash;

oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish.

Ushbu qaror bilan «Oila» markazi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, «Mahalla» xayriya jamoat fondi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va keng jamoatchilikning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi A/RES/47/237-son rezolyusiyasi bilan e’lon qilingan Xalqaro oila kunini respublikaning barcha hududlarida har yili nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi.

Oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash kabi masalalar bugungi kunda ham mantiqan davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oilani asrab-avaylash, uning mustahkamligini ta’minalash, ajrashish arafasidagi oilalarni yarashtirish eng ezgu amallardan hisoblanadi. Shunday ekan, oilaviy ajrashishlarning oldini olish, er-xotinni o‘zaro murosaga keltirish borasida nafaqat sudlar, balki keng jamoatchilik ham alohida jonbozlik ko‘rsatishi jamiyatimiz rivojiga munosib ulush qo‘shishi shubhasizdir.

Tayanch so‘z va iboralar:

Oila, oila instituti, oilaning vazifalari, oilaning turlari, oilaning shakllari, nikoh shartnomasi, nikoh munosabatlari, Oila kodeksi, ijtimoiy ish, ijtimoiy siyosat.

Nazorat uchun savollar:

1. Oila tushunchasini izohlab bering?
2. Oilaning qanday turlari va shakllari mavjud?

3. Xorij davlatlarida oilaviy qon-qardoshlik munosabatlari nimalarda ifodalanadi?
4. Nikoh shartnomasi nima?
5. Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati nimalarni qamrab oladi?

15-mavzu: IJTIMOIY SIYOSAT VA IJTIMOIY XAVFSIZLIK.

Reja:

- 15.1.Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondoshuvlar.
- 15.2.Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari.
- 15.3.Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar.
- 15.4.Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni.

15.1.Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondoshuvlar.

Xar bir mamlakat uchun milliy xavfsizlikni ta'minlash muxim xayot-mamot masalasi xisoblanadi. Milliy xavfsizlik jamiyat xayotining barcha soxa va jabxalaridagi mamlakat milliy manfaatlarining ichki va tashki taxidlardan ximoyalanganlik xolatini ifodalaydi. Uning namoyon bulish shakllari xilma-xil bo'lib, davlat mudofaaviy, iqtisodiy, energetik, ekologik, mafkuraviy, madaniy, axborot, ijtimoiy soxadagi xavfsizlik uning muxim shakllari xisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi xavfsizlik bevosita axoli, uning ijtimoiy guruxlari, har bir kishining hayoti, turmush sharoitlari va darajasi, sifati, ish bilan bandligi, ta'lim va sog'likni saqlash xizmatlari va uy-joy bilan ta'minlanganligi bilan bevosita bog'lik bo'lganligi uchun ham muxim ahamiyatga ega. Ijtimoiy soxadagi muammolar, kishilar xayotining yomonlashuvi bilan bog'liq ziddiyatlar, ularning o'z vaktida hal etilmasligi oqibatida ijtimoiy taxdidlar kuchayadi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy beqarorliklar, larzalar vujudga keladi.

Ijtimoiy xavfsizlikning mumtoz mazmuni -mamlakat va axolining ijtimoiy soxadagi manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar, xayot ta'minoti tizimlari va kishilarni ijtimoiylashtirish, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlari taraqqiyotiga muvofiq turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisini ifodalaydi. Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida shaxs, aholi ijtimoiy guruhlari va jamoalarining hayotiy muhim manfaatlari, huquqlari va erkinliklarining buzilishi taxidlardidan himoyalanganlik holatidir. Demak, ijtimoiy xavfsizlik - pirovard natijada davlatning o'zining bosh boyligi bo'lgan insonga g'amxurlik munosabatidir.

Mazkur atama xalqaro va milliy ilmiy muomalaga yaqinda kirib keldi. 1995 yilda bo‘lib o‘tgan Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha Umumjaxon konferensiyasida qabul qilingan Umumjaxon deklaratsiyasida ijtimoiy xavfsizlik atamasi qo‘llanilgan. Unda, xususan «Biz shunday jamiyat qurishni taklif etamizki, unda ovqatga bo‘lgan huquq ovoz huquqi kabi muqaddasdir, unda boshlang‘ich ta’lim olish huquqi narx erkinligi huquqi kabi hurmatga loyiqdir, unda rivojlanish huquqi insonning asosiy fundamental huquqlaridan biri sifatida qaraladi»¹ deyilgan.

Deklaratsiyada ijtimoiy xavfsizlikni ta’minalashning minimal vazifalari belgilangan:

- katta yoshdagи axoli o‘rtasida savodsizlikni ikki barobarga qisqartirish, shuningdek, ayollar savodsizligi erkaklar savodsizligi darajasidan oshmasligi kerak;
- barcha uchun elementar tibbiy yordam, bolalarni vaksinatsiyalash ustuvorligini ta’minalash;
- o‘tkir to‘yib ovkatlanmaslik (yarim ochlik) holatlarini bartaraf etish;
- barcha xohlovchilar uchun oilani rejalashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;
- barcha uchun xavfsiz ichimlik suvi va sanitariya;
- barcha uchun o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini ta’minalash².

Ushbulardan kelib chiqib, fikrimizcha, davlatning ijtimoiy xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha bosh vazifasi aholining kam ta’minal-gan qatlamlarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar orqali ijtimoiy himoyalash, har bir fuqaroning shaxsiy xavfsizligini ta’minalash, uning huquq va erkinliklari, sog‘lig‘i va mulkini himoya qilishdan iborat bo‘ladi.

Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi: kambag‘allik va qashshoqlikning oldini olish, ular ko‘lamini kiskartirish; ishsizlikdan himoyalash; aholi daromadlari va turmush darajasini ko‘tarish; aholining daromadlar va mulk bo‘yicha tabaqalari o‘rtasidagi farqlarning kattalashib ketishining oldini olish; har bir ish o‘rnida ishlab chiqarish va mehnat xavfsizligini

¹ Sotsialnaya bezopasnost. //https://textbooks.studio/ uchebnik-mejdunarodnie-otnosheniya/sotsialnaya-bezopasnost-24614.html

² Sotsialnaya bezopasnost. //https://textbooks.studio/ uchebnik-mejdunarodnie-otnosheniya/sotsialnaya-bezopasnost-24614.html

ta'minlash; xizmat ko'rsatish va iste'mol xavfsizligi; ekologik xavfsizlik; jamoat tartibini o'rnatish va jinoyatchilikning oldini olish; xotin-qizlar xavfsizligini ta'minlash.

15.2. Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy sohani rivojlantirishga hamda xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni hisobga olish lozim bo'ladi:

- *iqtisodiy* - mamlakat, xududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi, ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining xususiyatlari, korxonalardagi mult turi va tavsifi, taqsimot munosabatlari bilan bog'lik omillar;
- *siyosiy* - ijtimoiy soxa saloxiyatini oshirishga davlat ijtimoiy siyosatining ta'siri, aholini ijtimoiy takror ishlab chiqarish sohasidagi huquqiy kafolatlarni amalga oshirish, kam ta'minlangan aholi guruhlarini qo'llab-quvvatlash, ularga yordam berish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq omillar;
- *huquqiy* - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish soxasidagi qonunchilik normalari va huquqiy munosabatlar, aholining huquqiy ongi darajasi bilan bog'liq omillar;
- *madaniy* - jamiyatda hukmron bo'lgan axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlar, normalar va an'analar, ularning xududlardagi xususiyatlari-ning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilishi bilan bog'liq omillar;
- *tabiiy-iklimiy* - aholining hayot tarzi va standartlariga ta'sir etuvchi tabiiy muhit, ekologik vaziyat bilan bog'liq omillar;
- *ijtimoiy-demografik* - aholi ijtimoiy guruhlari va jinsi, soni hamda tarkibi, tug'ilish, o'lim, migratsiya, bandlik, kasb-malaka tarkibi bilan bog'liq omillar;
- *milliy-etnik* - milliy mentalitet, manfaatlar, an'analar va odatlarning ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini belgilab beruvchi omillar;

- *ijtimoiy-psixologik* - ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘luvchi aholining kayfiyati, kutishi, ularning intilishi, shaxs va guruhlarning qarashlari¹.

Ushbu omillardagi o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy soxaga, shu bilan birga ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga ham ta’sir qiladi. Bu omil-larning yomonlashuvi yoki ularning ijtimoiy soha rivojlanishiga salbiy ta’siri ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar hisoblanadi.

15. 3.Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar.

Ijtimoiy xavfsizlikka taxdid deganda kimningdir manfaatlariga zarar yetkazuvchi yuz berayotgan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan potensial voqeliklar, harakat, jarayon yoki hodisa tushuniladi. Umuman tahdid deganda xavfsizlikni buzuvchi sabab tushuniladi.

Milliy ijtimoiy xavfsizlikning asosiy turlari kuyidagi guruxlardan iborat:

- 1) tashki (bir mamlakatning boshqasining raqobatdoshligini kuchsizlantirishi, uziga buysundirish, vayron kilishga intilishi tufayli vujudga keladi) va ichki (jamiyat va davlatning o‘zining holatiga bog‘liq);
- 2) real va potensial;
- 3) global, milliy, regional va lokal.

Bizning nazarimizda mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar quyidagilardan iborat: jamiyatdagi ijtimoiy barkarorlik, axoli guruxlari o‘rtasidagi ijtimoiy totuvlik va kelishuvni buzadigan darajada kambag‘al va qashshoq, aholining aholi umumiyligi sonidagi ulushining o‘sishi; axolining daromadlar va mulk bo‘yicha tabakalanishining kuchayishi; - ishsizlikning o‘sishi; uy-joy bilan ta’minalashning past darajadaligi; ijtimoiy xizmatlarga erishish darjasini bo‘yicha jamiyatning tabaqlanishi; nokonuniy migratsiyaning kengayishi.

Bu tahdidlar quyidagi ko‘rinishdagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: yirik ijtimoiy nizolarning vujudga kelishi; axolining depopulyatsiyaga uchrashi;

¹ Osadchaya G.I. Sotsiologiya sotsialnoy sferiyi: ucheb. posobie dlya vysssh. shk. - M.: «Akademicheskiy Proekt», 2003. -S. 34-36.

jamiyatning kriminalizatsiyalashuvi; giyoxvandlik; foxishabozlikning kuchayishi va x.k.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muxim o'rin tutadi. Davlatning ijtimoiy siyosati deganda, davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning xal kilinishiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati, ijtimoiy axamiyatga molik vazifalarning bajarilishi ta'minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iktisodiyoti sharoitida ijtimoiy soxani davlat tomonidan tartibga solishga yunaltiriladi. Ijtimoiy soxani davlat tomonidan tartibga solishning shakllari kuyidagilardan iborat:

- 1) mulkchilik shaklidan kat'iy nazar ishchilar uchun eng kam ish xaki darjasи, pensiya, ish kunining davomiyligи, mexnat ta'tilining davomiy-ligini konunda kat'iy belgilash;
- 2) byudjet xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mexnatga xak to'lash tizimi tariflarini urnatish;
- 3) pensiya, nafakalar, stipendiyalar darajasini o'rnatish, imtiyozlar tizimini o'rnatish;
- 4) ishchilar uchun progressiv solik stavkalarini o'rnatish;
- 5) ijtimoiy soxa tarmoqlari o'rtasida davlat byudjeti xarajatlarining eng optimal proporsiyasini o'rnatish;
- 6) ko'proq ijtimoiy-zaruriy maxsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o'rnatish, davlat ijtimoiy soxa xodimlarining daromadlarini indeksatsiyalash.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatda yuqorida keltirilgan omillarning inobatga olinishi ijtimoiy xavfsizlikning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

15.4.Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni.

Inson ijtimoiy mavjudot sanaladi. Ijtimoiy munosabatlarsiz inson shakllana olmaydi. Chunki inson jamiyat tarkibida ulg'ayadi va ma'lum ijtimoiy

munosabatlarni bajarish, ularga rioya qilish, ulardan foydalanishni o‘rganadi. Shu bois ijtimoiy munosabatlar inson hayotida juda katta o‘rin tutadi. Mana shunday o‘ta muhim va inson hayotiga o‘z ta’siri o‘tkazadigan, insonning kundalik turmushiga chambarchas bog‘lanib, uning uzviy tarkibiy qismiga aylangan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlaridan biri bu – konfliktlar sanaladi. Binobarin, konflikt insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining o‘ziga xos oqibatlari majmuidan iborat bo‘lgan natijaviy hodisa va voqelikdir.

“*Konflikt*” (conflictus) lotincha so‘z bo‘lib, ma’nosи “ixtilof”, “to‘qnashish” deganidir. Atama sifatida quyidagi mazmunlarda qo‘llaniladi:

- 1) qarshi tomonlar, fikrlar va kuchlar to‘qnashuvi;
- 2) adabiyot va san’atda- asar mohiyatidagi ziddiyat yoki personajlarning o‘zaro ixtilofi. Umuman, konfliktlogiya nazariyasida quyidagilar asosiy masalalar hisoblanadi: -shaxslar o‘rtasidagi ziddiyatlar; -guruuhlar orasidagi ixtiloflar; -taskilotlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar; -g‘oyalar o‘rtasidagi to‘qnashuvar; -davlatlar o‘rtasidagi kurashlar; -mintaqalararo raqobatlar.

Konfliktlogiya nazariyasida ziddiyatlarini sabablari, oqibatlari va ko‘lamini o‘rganish, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish masalalari muhim o‘rin tutadi. Konfliktlarni bartaraf qilishning samarali omillaridan biri konsensusdir.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy va tashkiliy asoslaridan biri bo‘lgan konsensusni nemis sotsiologi Yu.Xabermas demokratiyaning muqobili sifatida talqin qiladi. Uning talqinida demokratik usul jamoa va jamiyatni ikkiga: ko‘pchilik va ozchilikka bo‘lib qo‘yadi. Konsensus esa bo‘lingan jamoa va jamiyatni birlashtiradi. Bunga u hal qilinayogan muammoga nisbatan ko‘pchilikning fikrini aniqlash yo‘li bilan emas, barcha tomonlar qarshi bo‘lmagan yechimni topish yo‘li bilan erishadi. Konsensusga erishish uchun manfaatlari va yondashuvlari bir-biriga unchalik mos kelmayotgan tomonlar hech bir tomon qarshi bo‘lmagan yechimni topishga harakat qilishlari va topishlari kerak.

Konsensus mohiyatan kelishuvni bildiradi. Lekin uning XX asrgacha mavjud bo‘lgan kelishuvlardan farqi shundaki, u kelishuvga erishishning yangi samarali amaliyotini yaratdi. Unga ko‘ra manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan tomonlar

o‘zaro munosabat va muzokaraga kirishar ekan, ular avvalo bir-birlariga yon bosishlari kerak. Qolaversa, ular barchani qoniqtiradigan, hech bo‘lmaganda hech qaysi tomonda qarshilik uyg‘otmaydigan yechimni topishga harakat qilishlari va topishlari lozim. Bunday yechimning topilishi konsensusga erishganlikni bildiradi.

Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir kismi sifatida shaxs, axoli ijtimoiy guruxlari va jamoalarining xayotiy muxim manfaatlari, xukuklari va erkinliklarining buzilishi taxdidlaridan ximoyalanganlik xolati bo‘lib, uni ta’minlashda davlat ijtimoiy siyosati muxim rol o‘ynaydi. Mustakillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iktisodiy islohotlar va davlat ijtimoiy siyosatining amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda ijtimoiy xavfsizlik ta’minlandi. Buni mamlakatimizda axoli turmush darajasi-ning o‘sib borishi va ijtimoiy-iktisodiy barkarorlikning ta’minlanganligida ko‘rish mumkin. Ammo xozirgi vaktda ijtimoiy soxada bir talay muammolarning mavjudligi, jumladan, ishsizlik, inflyatsiya, axoli tashki mexnat migratsiyasining va kam ta’minlangan axoli katlami-ning xamda ijtimoiy soxa tarmoklari rivojlanishidagi muammolarning ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash masalasining xamon dolzarbligicha kolayotganligidan dalolat beradi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Milliy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar, ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari, ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar, ijtimoiy xavfsizlikning asosiy turlari, ijtimoiy siyosat, konfliktlar, konsensus.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining moxiyatini tushuntirib bering?
- 2.Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari nimalardan iborat?
- 3.Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlarni izoxlab bering?
- 4.Ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda konfliktlarni boshqarishning qanday axamiyati bor?
- 5.Konsensusning moxiyatini nimalarda namoyon bo‘ladi?

Atama va tushunchalarning izohli lug‘ati

Adolat (arabcha — odillik, to‘g‘rilik) — axloq va huquqning asosiy kategoriyalardan biri; 2) qonun oldida barchaning tengligi va qonunning barchaga barobarligi.

Aktiv bandlik siyosati - bu davlat tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maksadida olib boriladigan hukuki, tashkiliy va iktisodiy chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Axoli daromadlari — barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi.

Axoli migratsiyasi — aholining yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi.

Bandlik siyosati - jamiyat va uning har bir a’zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi chora tadbirlar yig‘indisidir.

Barqarorlik (ijtimoiy) - 1) jamiyat haётining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uyg‘unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar (millatlar, turli ijtimoiy qatlamlar va boshqa) vakillarining hamkorligi va hamjihatligi.

Besh tamoyil — O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan jamiyatni isloh etishning asosiy ustuvor tamoyillari. Ular O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiёт yo‘lini, o‘zbek modelining asosini belgilaydi.

Davlat - jamiyatning oliv siyosiy instituti bo‘lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o‘rnataladi. Davlat mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo‘ladi, qonunchilik bilan shug‘ullanadi va hokazo.

Davlat xizmati - davlat organlarining vakolatlari bajarilishini ta’minalash bo‘yicha kasbiy faoliyat.

Demografiya (yun. demos — xalq va... grafiya) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga boglik holda o‘rganadigan fan.

Demografik bashorat - ma'lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash.

Demografik jarayonlar -tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl va ularning omillarini o'rganish.

Demografik siyosat - davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholini takror hosil qilish jarayonlarini tartibga solish soxasidagi aniq maqsadni ko'zlagan faoliyatidir.

Demokratiya - (yunoncha xalq hokimiyati) fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli.

Demokratik institutlar— ijtimoiy haётning demokratik tamoyillarga asoslanishiga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmui.

Demokratik prinsiplar — huquqiy demokratik jamiyat asosini belgilaydigan demokratik qonun-qoidalar majmui.

Dogmatizm (yunoncha — fikr, ta'limot, qaror) — biror bir fikr, ta'limotni o'zgarishiga shubha bilan qarovchi oqim tarafdarları, aniqrog'i, aqidalarga ko'rko'rona ishonish, unga yopishib olish, har qanday sharoitda ham uning o'zgarishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish.

Jabrlanuvchi — o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog'lig'iga zarar yetkazilgan, sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan xodim.

Ijtimoiyadolat - real xalq hokimiyatidan va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligidan, millatlarning amalda teng huquqligidan, shaxsning hurmat qilinishidan iborat.

Ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar - ijtimoiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi munosabatlar, ya'ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan.

Ijtimoiy sug‘urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqasizlarni ta’minlash, yordam ko‘rsatish tizimi.

Ijtimoiy ta’mnot — keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy siyosat - qator ijtimoiy tadbirlar orqali moddiy farovonlikni oshirish, ijtimoiyadolat, demokratiya, sinflar, millat va elatlar, ijtimoiy qatlamlar, jamoa va shaxsning turmush madaniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy hamkorlik - turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligini ifodalaydi.

Ijtimoiy himoya tizimi – kambag‘allik va tengsizlikni kamaytirish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va dasturlar majmuasidan iborat davlat siyosatidir

Ijtimoiy xizmatlar - fuqarolarning barcha ijtimoiy huquq, manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektorlari tomonidan pullik, qisman pullik yoki beg‘araz ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasiga aytildi

Ijtimoiy xodim — ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi zarur kasbiy malakaga ega bo‘lgan shaxs.

. **Ijtimoiy sheriklik** – o‘zaro hamkorlikning yangi va zamonaviy shakli bo‘lib, bunda o‘zaro munosabatga kirishayotgan sub’ektlarning huquq va erkinliklari tenglik asosida vujudga kelib, ular bir xil huquqiy maqomga ega bo‘ladilar

Inson huquqlari — insonning erkinliklari, burch va majburiyati bilan bog‘liq qarashlarni aks ettiruvchi tushuncha.

Islohot (arab. — yaxshilash, tuzatish) — isloh qilish, o‘zgartirish, qaytadan qurish ma’nosida ishlatiladi.

Iste’mol savati— muayyan shart-sharoit va xususiyatlarga tayangan holda, ma’lum bir vaqt mobaynida, insonning ma’lum funksional ehtiyojlariga javob beradigan, ilmiy jihatdan asoslangan tovar va xizmatlar majmuidir.

Istiqlol (arab. — ozodlik, mustaqillik, erkin bo‘lish) — inson, millat, davlatning erkin rivojlanma olish imkoniyatini ifoda etuvchi tushuncha.

Ixtiyoriy sug‘urta -sug‘urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning o‘zaro roziligi va yozma shartnomada asosida amalga oshiriladi

Ish haqi – yollanma xodim daromadining asosiy manbai, unga tegishli ish krbiliyatiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shakli.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning u mehnat shartnomasi bo‘yicha o‘z vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o‘tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa.

Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘z naslini davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir.

Konservativizm - ijtimoiy va madaniy hayotda an’ana va vorislik g‘oyasiga tayanuvchi xilma-xil g‘oyaviysiyoziy va madaniy oqimlar majmui.

Konflikt -lotincha so‘z bo‘lib, “ixtilof”, “to‘qnashish” deganidir.

Kuchli ijtimoiy siyosat - davlat institutlari tomonidan ijtimoiy ne’matlarni jamiyatning eng kam himoyalangan va eng zaif a’zolari foydasiga taqsimlash demakdir.

Liberalizm (lot. — erkinlik) — ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amalièt, ijtimoiy-sièsiy va mafkuraviy oqim.

Mehnat jamoalari — korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ishchi va xodimlarning faoliyatini amalga oshiruvchi ijtimoiy birlashmalar bo‘lib, inson umrining asosiy qismi o‘tadigan, uning tafakkuri, haётga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma’naviy muhitdir.

Mehnatda mayib bo‘lish — xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi.

Mustamlakachilik — kuchli davlatlar tomonidan zo‘rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etib, o‘ziga bo‘ysundirish, qaram qilish g‘oyasi asosidagi o‘zga xalq yoki mamlakatlarni bosib olish, talash siyosati.

Mustaqillik — tazyikdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik. Iqtisodiy, siésiy, ma’naviy tobe’ bo‘lmaslik.

Nodavlat tashkilotlar - jamiyat hayotining davlat va ishlab chiqarishdan tashqaridagi mavjudlik sohasi.

Oila — insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlarga asoslangan, turmush birligi va o‘zaro javobgarlik orqali bog‘langan ijtimoiy guruhdir

Pensiya - fuqarolarga davlat yoki boshqa sub’ektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to‘lanadigan to‘lovlar bo‘lib, ijtimoiy ta’mintoning muhim shakli hisoblanadi.

Siyosat - (politika) atamasi lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra yunoncha „polis“ — davlat yoki ijtimoiy ishlar degan ma’noni anglatadi.

Strategiya — bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

Sug‘urta - tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog‘in va b.), har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamlari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Sug‘urta hodisasi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan

xodimning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt.

Sug‘urtalovchi — hayotni sug‘urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Taktika - strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarни va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlar

Fuqarolik jamiyatı - iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma’naviy hayot sohasiga to‘g‘ri keladigan tushuncha. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-sièsiy sohasi ko‘lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Huquq — davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi.

Huquqiy davlat — huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta’minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo‘linish prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat

Ehtiyojlar — organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan narsalarga talab, muhtojlik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Asosiy adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Каримов И. А. Кучли давлатдан кучли жамият сари, Т., 1998.
2. Каримов И.А . Мамлакатимизда демократик ислохатларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.// “Халқ сүзи”. 2010 йил 13 ноябрь
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш – бош мақсадимиздир. //”Халқ сўзи”, 6 декабрь 2014 йил.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағищланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сўзи, 06.12.2015 й.
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.//Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағищланган Олий Мажлис палаталарининг ўюшма мажлисидаги нутқ - Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. -56 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // <https://uza.uz/uz/posts/konstitutsiya-erkin-va-farovon-ayetimiz-mamlakatimizni-yanad-08-12-2017>
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. –488 б
8. “Ijtimoiy siyosat”. O’quv qo‘llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiylahri ostida. - Toshkent: “MUMTOZ SO’Z”, 2019. 312 bet.
9. Бўриева М.Р. Демография асослари. Ўқув қўлланма. Т.: 2001. - 33-бет.
10. Социальная политика государства и бизнеса: учебник для бакалавриата и магистратуры / под ред. О. А. Канаевой. — М. : Издательство Юрайт, 2017. — 343 с.

Кўшимча адабиётлар:

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида// Ўзбекистан Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

2. Абдурахмонов КХ, Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. «Ахолини ижтимоий муҳофаза килиш» - (маъruzалар матнлари) - Т.: ТДИУ, 2005.

3. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” O’quv qo’llanma. -T.: “Iqtisodiyot”. 2010.

4. Абдурахманов К.Х., Кудбиев Ш.Д. Рынок труда: Формирование и регулирование. Монография. – Т.: INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOTY – МАТВАА UYI, ДУК 2019. – 200 с

5. Абулкосимов Х.П. Иктисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. - Т.: «Noshirlik yogdusi», 2018.

6. Алимардонов Т. Ҳаракатлар стратегияси — Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи / <https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>.

7. Амир Темур, “ Темур тузуклари,” Т., 1996 .

8. Бобоев X., Амир Темур ва унинг қарашлари, Т., 1992;

9. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. Т.: “Университет”.

1997

10. Гулямов С.С., Мухаммедов М.М. Меҳнат миграцияси ва унинг салбий оқибатларини қандай бартараф этиш йўллари бор?// <https://yuz.uz/news/>.

11. Демографическая энциклопедия. М.: “Энциклопедия”. 2015. – стр-743

12. Денисова И.П., Клиновенко Л.Р Социальная политика. – М.: Феникс, 2007. – 347 с.

13. Емельянова Т.В. Финансовое обеспечение пенсионных систем в странах ЕС и России//Финансы. – Москва, 2008. - №10.

14. Омонов Б. Давлат–жамият–инсон: Жануби-шарқий Осиё мамлакатларининг ажралиб турадиган жиҳатлари

нимада?//<https://uza.uz/uz/posts/davlat-zhamiyat-inson-zhanubi-shar-iy-osiye-mamlakatlarining-03-05-2020>

16. Осадчая Г.И. Социология социальной сферы: учеб. пособие для высш. шк. - М.: «Академический Проект», 2003.
17. Сайдов А.Х. Ижтимоий шериклик ва давлат қарорларини қабул қилишда жамоатчилик иштироки масалалари бўйича халқаро тажриба. Тошкент – 2012.
18. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси. Монография. Т.:2010. 59-бет
- 19.Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. Монография Т.: 2012.
20. История политических и правовых учений, М., 1996;
21. Калanova М.З. "Местный рынок труда: изучение, оценка, предложения по улучшению использования трудового потенциала" Кейс - технология. Услубий кулланма. Т.: ТДИУ, 2008 й. -24 б.
22. Кимаровский В.В. Формы социального партнерства. - М.: Флинта: МПСИ, 2003..
23. Кричевский Н.А. Социальное страхование. Учебник. -М.: Дашков и К, 2011
24. Қурунов М. Оиласлар билан ижтимоий ишлаш тенденцияларининг илмий асосларига бир назар (АҚШ тажрибаси) // file:///C:/Users/User/Downloads/3107
25. Мирзаева З. Никоҳ шартномаси тарихи. //<https://surxondaryo.adliya.uz/>
26. Форобий, Фозил одамлар шахри, Т., 1993
27. Шиннаев Х. Ўзбекистон суғурта бозори. – Т.: “Иқтисод-Молия” 2013.
28. Шиннаев Х.М., Очилов И.К., Ширинов С.Е., Кенжаев И.Ф. Суғурта иши. “Тафаккур бўстони” - Тошкент-2014.

Axborot manbalari:

- 1.<http://www.ziyonet.uz>
- 2.<http://www.nuu.uz>

3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.stat.uz>
5. <https://textbooks.studio>
6. <https://www.lex.uz>
7. <https://qomus.info/encyclopedia>

MUNDARIJA

- Kirish.....
- 1-mavzu: Ijtimoiy siyosatning ob'ekti va predmeti.....
- 2-mavzu: Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari.....
- 3-mavzu: Axoli daromatlarini oshirishda oylik ish xaqining o'rni.
- 4-mavzu: Ijtimoiy xizmatlar.....
- 5-mavzu: Axolini ijtimoiy muxofaza kilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yunalishi sifatida.....
- 6-mavzu: Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jaxon tajribasi.
- 7-mavzu: Ijtimoiy sheriklik tizimi: hokimiyat tuzilmalari bilan aloqalarni o'rnatish.....
- 8-mavzu: O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari.....
- 9-mavzu: Ijtimoiy sug'urta: xuquq, moliya va iqtisodiyot.....
- 10-mavzu: Demografik siyosat.....
- 11-mavzu: Pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilish....
- 12-mavzu: Axoli bandligi. Ishsizlik: ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llari.....
- 13-mavzu: Kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llari ...
- 14-mavzu: Davlatning oilaga qaratilgan siyosati.....
- 15-mavzu: Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlik.....
- Atama va tushunchalar izohli lug'ati.....
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Содержание

Введение.....
Тема 1: Объект и предмет социалной политики.....
Тема 2: Теоретические основы социалной политики.....
Тема 3: Место ежемесячной заработной платы в повышении доходов населения.....
Тема 4: Социалные услуги.....
Тема 5: Социалная защита населения в качестве основного направления государственной социальной политики.....
Тема 6: Мировой опыт осуществления социалной политики.
Тема 7: Система социалного партнерства: установление связей со структурами хокимията.
Тема 8: Стратегия и основные направления социалной политики Узбекистана.....
Тема 9: Социалное страхование: право, финансы и экономика
Тема 10. Демографическая политика.....
Тема 11. Значение и реформирование пенсионной системы....
Тема 12. Занятость населения. Безработица: социално- экономические последствия, основные виды, пути сокращения.....
Тема 13. Проблемы бедности и пути их решения.....
Тема 14. Политика государства в отношении семи.
Тема 15. Социалная политика и социалная безопасность.
Толковый словарь терминов и понятий.....
Использованная литература.....